

81.633.1
265

SUNNATULLA RIZAYEV, BAROT YARASH

**LOTIN ALIFBOSI VA IMLOSINI
O'RGANUVCHILAR UCHUN
O'QUV QO'LLANMA**



DF0000009793

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESRUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

SUNNATULLA RIZAYEV, BAROT YARASH

**LOTIN ALIFBOSI VA IMLOSINI
O'RGANUVCHILAR UCHUN O'QUV
QO'LLANMA**

Oliy ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kolleji
talabalari hamda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari
uchun

Nizomiy nomdagi TDPU
KUTUBXONASI

009886/9

Toshkent

1999

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Respublika ta'lim markazi o'zbek adabiyoti bo'limining ilmiy metodika kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Respublikamizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosining joriy etilishi munosabati bilan mazkur yangi o'zbek milliy yozuvimizda o'qish uchun matnlar majmuasiga bo'lgan zaruriy ehtiyoj e'tiborga olinib, qo'lingizdagi qo'llanma yaratildi.

Qo'llanmada o'zbek milliy adabiyotimiz, ma'rifiy-ma'naviyatimiz va madaniyatimizning zabardast adiblari, yozuvchilari va sholrlarining tarjimayi holi, adabiy-ijodiy yo'li ixcham adabiy portret tarzida o'z ifodasini topgan.

Mazkur qo'llanma ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u Sizlarning talab va ehtiyojlaringizni ma'lum darajada qondirishga xizmat etadi, degan umiddamiz.

Mas'ul muharrir: O'zR Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi *Shonazar Shoabdurahmonov*

Taqrizchilar: Filologiya fanlari doktori, professor *Naim Karimov*,
Pedagogika fanlari doktori, professor *Qozoqboy Yo'ldoshev*.

Bosishga ruxsat etildi 05.11.99- y. Qog'oz bichimi 30x42 1/4. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,00. Buyurtma №20. Adadi 1000. Bahosi kelishilgan narxda.

“KO'HI-NUR” mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida bosildi. Toshkent sh. Muqimiy ko'chasi, 178.

SO'ZBOSHI

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining dunyo miqyosiga chiquvini, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik aloqalarini mustahkamlashini, jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtirish maqsadida Respublikamizda 1993- yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi va bu Qonunga 1995-yilning 6- mayida Oliy Majlis Qarori bilan ayrim o'zgartishlar kiritildi. 1995- yilning 24- avgustida esa Vazirlar Mahkamasining Hay'ati tomonidan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlandi.

Endilikda yangi alifbo va imloni keng targ'ib va tashviq etish barcha ziyolilar ommasining vazifalaridan hisoblanadi.

Yangi alifbo va imloni o'rganishga va o'qitishga doir dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari hamda turli metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar hozirlanishi davr talabi va ehtiyoji taqozosidandir.

Qo'lingizdagi ish ham ana shu talab va ehtiyoj tufayli yaratilgan dastlabki qo'llanmalardan bo'lib, u o'quvchi-talabalarimizning yangi o'zbek lotin yozuvi bo'yicha og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishga, o'zbek milliy adiblarimiz, allomalarimiz va shoirlarimiz hayoti va ijodlaridan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy bahra olishlariga xolisanillo yordam beradi, degan umiddamiz.

Qo'llanmada yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich KARIMOVning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli asari (1995) dan ayrim lavha (parcha)lar, "Hadis"lardan namunalar, sohibqiron Amir Temur, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Botu kabilar hamda shu kungi iste'dodli shoir va yozuvchilarimizdan tortib, odob-axloqqa doir ibratli matnlar ixcham tarzda berilishiga harakat qilingan.

Qo'llanmaning yaratilishida turli xil adabiy-badiiy manbalardan, to'plamlardan, xususan, professor Sobirjon Mirvaliyevning "O'zbek adiblari" (1992) to'plamidan, Q.Yo'ldoshev, R.Majidovlarning "O'zbek adabiyoti" (VII sinf) darslik majmuasidan (1997), "Axloq-odobga old Hadis namunalari"(1990), Y.Mahkamovning "Axloq-odob saboqlari"(1994), Alibek Rustamovning "So'z xususida so'z" (1987), R.Usmonovning "Saodatnoma"(1985), Malik Murodovning "Oltin sandiq ochildi" (1994), shuningdek, "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" (1977), A.Irisov, Sh.Shirinboyevning to'plamlaridan hamda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Azim Suyun kabilarning she'rlaridan foydalanilgan majmuaning barchasida milliy mafkuramizning tub negizini tashkil etadigan vatanparvarlik, erklilik, insonparvarlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birdamlik, bilimlilik va onglilik, taraqqiyparvarlik, hurfikrlilik, baynalminallilik singari chin insoniy fazilatlar mujassamlashgan.

Qo'llanmaning yaratilishida samimiy ko'maklashgan T.N.Qori Niyoziy nomidagi Respublika Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining O'zbek tili va adabiyoti nazariyasi va metodikasi bo'limi ilmiy xodimlariga, shuningdek, qimmatli taklif va mulohazalari bilan sidqidildan yordamlashgan barcha olimlarimizga, mutaxassislarimizga va o'qituvchilarimizga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur qo'llanmadan oliy o'quv yurtlari talabalari, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kollej o'qituvchilari va o'quvchilari hamda yangi o'zbek milliy lotin yozuvini o'rganuvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI*

*Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,
Abdulla Orpov so'zi*

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi kim?
Bastakori-chi?
2. Madhiyaning
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!
satrlarida xalq kuch-qudrati, vatan sha'ni bilan bog'liq his-tuyg'ular
qay tarzda o'z ifodasini topgan?
3. Davlatimiz madhiyasini yod oling!

*1992- yilning 10- dekabrda tasdiqlangan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI*

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Humo qushi baxtga yetaklovchi timsol sifatida xalqimiz tomonidan qadrlangan. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy Humoni jonzotlarning insonga eng mehriboni, deb ta'riflagan.

Quyosh aksi esa hayot yo'llari doimo charag'on, yorug' bo'lishi Respublikamizning serquyoshligini bildiradi.

Boshhoqlar — rizq-ro'zimiz belgisi, paxta aks ettirilishi O'zbekiston xalqini butun dunyoga tanitirgan, hurmatga sazovor qilgan muhim belgilaridandir. Boshhoqlarni, paxta chanoqlarini qamrab olgan O'zbekiston bayrog'i Respublikamizda yashaydigan butun xalqimiz birligi mazmunida yoritilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi Oliy Majlisning nechanchi sessiyasida tasdiqlangan, qachon?
2. Gerb so'zining lug'aviy ma'nosini izohlang.
3. Davlatimiz gerbida o'zbek millatiga xos xususiyatlar aks etganmi?

O'ZBEKISTON RESRUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I**

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ramzlari Vatanimiz tuprog'ida avval mavjud bo'lgan qudratli davlatlarning bayroqlariga xos eng yaxshi an'analarni davom ettiradi, ayni vaqtda Respublikamizning tabiiy, milliy va madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi:

1. Bayroqning moviy – ko'k rangi moviy osmon va tiniq suv, ya'ni yer-u ko'kdagi hayot manbaiari ramzidir. Moviy ko'k rang Amir Temur davri bayrog'ining ramzi bo'lgan.
2. Oq rang – tinchlik, poklik ramzi. Yangi, mustaqil davlatimiz baland dovonlardan oshishi kerak. Bayrog'imiz bizga oq yo'l tilaydi.
3. Yashil rang – tabiat, yashnab turgan hayot va hosildorlik ramzi. Ayni vaqtda butun jahonda atrof-muhitni muhofaza

*1992- yilning 2- iyulida tasdiqlangan.

**1991- yilning 18- noyabrida tasdiqlangan.

qilishga qaratilgan xayrixohligimiz ham yashil rang bilan ifodalanadi.

4. Qizil chiziqlar – har bir tirik vujudga mavjlanib turgan hayotiy kuchlar va bizning yaxshi niyatlarimizni yer-u osmon bilan bog'lab turadigan jonli rishtalar ramzidir.

5. Yangi oy – ko'p asrlik tarixiy an'analarimizga mos. Ayni vaqtda yangi oy va yulduz bulutsiz osmon timsoli. 12 raqami tabiatan mukammal raqam hisoblanadi, shuning uchun ham yulduzlar soni 12 ta.

Bayrog'imiz o'tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz porloqligining ramzidir.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'idagi ko'k, yashil va oq ranglarda qanday ramziy ma'nolar ifodalangan?

2. Bayroqdagi yarim oy va 12 yulduz nimaning ramzi?

3. Bayroqchamizning rangi

Moviy, oq hamda yashil.

Ko'rsa ko'zlar quvonar,

To'lqinga o'ranar dil.

Mazkur satrlarda milliy g'urur, iftixor tuyg'ulari qanday aks ettirilgan?

HAYOT BILAN HAMNAFAS

(Islom KARIMOVning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli kitobidan parchalar)

Mustaqillik yillari – o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish davridir. Bu – jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davridir.

Mustaqillik yillari – yosh demokratik davlatni faol qurish, unung siyosatini ishlab chiqish davridir. Bu davr ma'naviy uyg'onish va milliy o'zligini anglashning o'sish davridir. Bu – ozodlik ruhi bilan, o'z kuchlariga, mamlakatning, xalqning yorqin kelajagiga ishonch bilan to'lib-toshgan davrdir.

Xalqimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi, jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va

chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, oliyjanob milliy va diniy an'analarga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashishini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi.

Har bir kishining taqdiri ko'p jihatdan uning kasb-mahorati, ma'naviy e'tiqodi, jo'shqin o'zgarib borayotgan yangi muhitga moslasha bilish qobiliyati bilan belgilanadi.

* * *

Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin.

* * *

Bozor munosabatlariga o'tish paytida obyektiv sharoitni – xalqning turmush tarzi, ahvol-ruhiyasi, an'analari madaniyatini e'tiborga olmasdan bo'lmaydi.

* * *

Ma'naviy mustaqillik va o'ziga beklik, ezgulik, qalb saxiyligi va bag'ri kenglik xalqimizga xos xususiyatdir. Bu go'zal fazilatlar yangi iqtisodiy va turmush sharoitlarida sinovdan o'tdi. Xalqimizning eng yaxshi xislatlari, o'z yeriga, yurtiga mehr-muhabbati, vatanparvarligi ma'naviy birlikni mustahkamlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning ruhi nurafshon qilib turgan, bizga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to'q qilayotgan shu muqaddas zaminga muhabbat bamisoli bitmas-tuganmas chashmadek qaynab turibdi. Inson butun vujudi bilan shu yurtga ta'zim qiladi.

* * *

Biz, ozod O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ma'naviyatning eng muhim timsollari hamdir.

Pok va sofdil shaxsni tarbiyalashda , ona tilini qayta tiklashda hech kim va hech narsa oila bilan tenglasha olmaydi. Biz xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-ruhiy jihatdan qayta qad rostlashining jo'shqin o'chog'i bo'lgan eng oliyanob ma'nodagi mahalla, qo'ni-qo'shnichilik, o'zaro yordamlashuvning ahamiyatini ko'proq qadrlay boshladik.

Yosh avlodlarning insoniyat daholari bo'lgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish yo'lida tobora kuchayib borayotgan intilishini ham yangilanishning salmoqli yakuni sifatida ta'kidlab o'tmoq kerak.

Faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin. Mulkdorlik huquqi va tadbirkorlik tuyg'usi mamlakat aholisi orasida tobora keng va chuqur yoyilmoqda, odamlar ruhiyati va fe'l-atvorida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Tayyorga ayyorlik va yalqovlik mayllari darrov bo'lmasa-da, ba'zan qiyinchilik bilan bo'lsa-da, barham topmoqda. O'qimishlilik tushunchasi yangi ma'no kasb etmoqda.

O'zbek xalqining butun madaniy dunyoda ma'lum va mashhur bo'lgan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi buyuk ajdodlari ijodiy merosi va hayoti jasoratini hurmat bilan esga olish jamiyat turmushidagi odat va milliy shon-sharaf manbayi bo'lib qoldi.

Biz tariximiz, madaniyatimizni o'zimiz uchun va butun dunyo uchun ham qayta tiklayapmiz.

Ilg'or ziyolilar, olimlar, yozuvchilar, san'at va madaniyat arboblari, ruhoniylar isloh qilish siyosatini astoydil yoqlab chiqmoqdalar. Shu boisdan ham bizning ma'naviy hamda aqliy imkoniyatlarimiz beqiyos mustahkamlandi.

Jamiyat islohotlarning birinchi bosqichidan sivilizatsiyalashgan, inson sari yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini ma'naviyat,

axloqiylik va madaniyatning mustahkam poydevoriga qurish zarur, degan xulosa chiqardi. Bular – O'zbekistonda tinchlik, barqarorlik va millatlararo totuvlikning hayotbaxsh manbalaridir.

Faylasuflardan biri, ma'naviyat – insoniylikka olib boradigan yo'ldir, degan ekan. Binobarin, mustaqil O'zbekiston bugungi kunda o'z kelajagiga xuddi shu yo'ldan, ezgulik va insoniylik yo'lidan odim tashlamoqda.

Maqsadlarimizga erishish, yangi jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga, qanday ideallarga e'tiqod qilishiga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir.

Yuqori ma'lumotli, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo'lishi, demokratik va tub iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'lishi mumkin.

Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat-shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafaşida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu islohotlarning belgilangan yo'ldan borishini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng yaxshi kafolatidir. Bu sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishdir.

Biz yigit va qizlarimizning ma'lumotli kishi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallay olishlariga, yangi sharoitlarga tez va mashaqqatlarsiz moslashishlariga imkon berishimiz kerak.

Xalq ta'limining butun tizimini yanada qat'iyat bilan va tezroq qayta qurish zarur. Hozirgi sharoitda xalq ta'limi tizimini, uning barcha bo'g'inlarini e'tiborli va yuqori haq to'lanadigan sohaga aylantirish kerak.

Bolalar bilan maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishga, kishilarda, eng avvalo, yosh avlodda yuqori madaniyat va ma'lumotni, mehr-oqibat va halollikni, axloqiy poklikni shakllantirishi lozim bo'lgan ijtimoiy-madaniy muassasalar – kutubxonalar, teatrlar, muzeylar, ko'rgazma zallari va boshqalarning moddiy bazasini mustahkamlash va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur.

Demokratik jamiyat – bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va shaxslararo ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi.

Respublika aholisi orasida ko'pchilikni tashkil qilgan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir.

O'zbekiston bundan buyon ham ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan chinakam demokratik, ko'p millatli davlat bo'lib qolaveradi.

Savol va topshiriqlar

1. Islom Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobidan olingan "Hayot bilan hamnafas" nomli parchalarda iqtisodiyotimizga xos qanday xususiyatlar aks etgan?

2. Prezidentimiz Islom Karimovning mazkur asarlaridan olingan parchalarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini so'zlab bering.

ODOBNING BOSHI "ASSALOMU ALAYKUM"

"Salom – Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi..."

Savol va topshiriqlar

1. "Assalomu alaykum" so'zining lug'aviy ma'nosini qanday tushunasiz?

2. "Odobning boshi salomdan boshlanadi". Bu hikmatli naqlda qanday ma'no noziklari mavjud?

3. Salomlashish odobini o'rganing!

IMOM AL-BUXORIY

(810-870)

Hadis ilmi bobida butun islom olamiga ma'lum va mashhur bo'lgan muhaddislar ichida eng birinchi martabada turadigan zot vatandoshimiz Imom Buxoriy (810-870)dir.

Bag'dodda istiqomat qilgan yillarini hikoya qiladilarki, Imom Buxoriy asosan oydin kechalarda ijod qilar ekan. Qorong'i kechalarda esa shamchiroq nurida kitob yozar ekanlar. Ilhom kelmay qolganda shamni o'chirar, bexos yangi fikr kelib qolsa, darhol chiroqni yoqib, ishda davom etar ekanlar. Shu tariqa bir kechada 20 martagacha chiroqni yoqib o'chirganlarini kuzatgan kishilar bor ekan.

Imom Buxoriyning ilm-u ma'rifatdan tashqari, zuhdu taqvo, himmat, saxovat, odamiylik kabi oliy fazilatlari ham juda mukammal bo'lgan. Masalan, u otasi shayx Ismoilidan qolgan meros mollaridan katta qismini faqir-u miskinlar va tolibi ilmlar ehtiyojiga sarf etar edi.

Imom Buxoriy asarlari ichida eng mashhuri 4 jildlik "Al-Jomi as-sahih" (Ishonarli to'plam) kitobidir. Uning mana shu "Al-Jomi as-sahih" asarini yozib qoldirganiga mana 12 asrga yaqin vaqt o'tdi. O'sha davrdan boshlab barcha islom ulamolari bu kitobni Qur'ondan keyin bevosita ikkinchi o'rinda turadigan manba deb baho berib keladilar.

Diyorimizda Imom Buxoriyning nomi faxr-u e'zoz, izzat-u ehtirof bilan tilga olinadi. Bunga 1974- yili Samarqandda uning tug'ilgan kuniga 1200 yil to'lishi munosabati bilan "Imom Buxoriy va hozirgi zamon" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazilishi, shu munosabat bilan uning shoh asari sanalmish "Al-Jomi as-sahih" va "Al-adab al-mufrad" kitoblarning mamlakatimizda birinchi marta nashr etilishi, masjidi, qabri va uning atroflarini obod etish kabilar dalil bo'la oladi.

Imom Buxoriy yuqorida zikr qilingan kitoblardan tashqari u yana yigirmaga yaqin asar yozgan, ammo hammasi ham bizgacha yetib kelmagan.

•1999- yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etilishi munosabati bilan uchinchi va undan yuqori kurs iqtidorli talabalari uchun uchta Imom al-Buxoriy davlat stipendiyasi joriy etildi.

Savol va topshiriqlar

1. Imom Ismoil Al-Buxoriy qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Islom olamida Imom Buxoriy hadisshunos olim, alloma sifatida qanday qadrlanadi?
3. Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" (Adab durdonalari) kitobidagi axloq-odobga oid hadislarining ota-onani qadrlash, do'stlik va sadoqatni ulug'lash qismlaridagi g'oyaviy mazmunni so'zlab bering.

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY

(824-892)

At-Termiziy 824- yili hozirgi Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida tavallud topgan, deyiladi. Aslida u hozirgi

Sherobod tumanining Bug' qishlog'ida tug'ilgan bo'lsa-da, o'sib-ulg'ayishi, ilmlar egallashi va istiqomati Termizda bo'lgan.

Imom Termiziy ko'p hadis mutolaasiga qiziqqan va bu borada ko'plab muhaddislardan bu ilm sirlarini o'rgangan va Imom Buxoriy, Imom Muslim va boshqa ko'plab imomlarni o'ziga ustoz deb bilgan. Imom Termiziy ko'p qimmatbaho asarlar yozib qoldirganlar.

Chunonchi, "Kitob al-ilal" ("Nuqsonlar kitobi") "Kitob at-tarix" ("Tarix kitobi"), "Kitob ash-shamoil an-nabaviya" ("Payg'ambar alayhissalomning axloq va odoblariga oid kitobi") va boshqalar shular jumlasidandir. "Sunan at-Termiziy" ("Termiziy sunnatlari") nomli hadislar to'plami esa Imom Termiziyning eng mashhur asalaridan hisoblanadi.

At-Termiziy 892- yili Termizda vafot etganlar.

Savol va topshiriqlar

1. At-Termiziy qayerda tavallud topganlar?
2. At-Termiziy hadislarining ma'nosini sharhlang.

"Hadis"lardan namunalar

Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilishdir.

Agar uch kishi bo'lsangiz, ikkitalaringiz alohida uchinchi shaxsga eshittirmay pichirlab gaplashmanglar, chunki bu uni ranjitadi.

Dunyodan o'tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.

Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lib, hol-ahvol so'rashib turish – bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir. Zulm va qarindoshlardan uzilib ketishlik esa jazosi tez bilinadigan yomon ishlardandir.

Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'lingizlar, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin.

Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaringizlar.

Kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi halol savdodir.

Uyquga ketishdan oldin chiroqlarni o'chirib, darvozalarni berkitib, suv idishlari va oziq-ovqatlarning ustini yopib go'yinglar. Yopgani narsa topolmasangizlar, idishlar ustiga biror cho'p bo'lsa ham tashlab qo'yingizlar.

Uchrashganda qaysi birlaringiz birinchi bo'lib salom bersangiz, o'sha odam Tangriga ham itoatliroqdir.

Beshta narsadan oldin beshta narsani g'animat biling: o'limdan oldin tiriklikni, betoblikdan oldin salomatlikni, bandlikdan oldin vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni g'animat bilingizlar.

•

Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringizlar. Shunda o'rtalaringizda mehr-u muhabbat uyg'onur.

Sadaqaning afzali chanqoq odamlarga suv ulashmoqlikdir.

Kimgaki aql-u idrok nasib etilgan bo'lsa, demak, u omadlidir.

Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.

Avvalo onangizga, yana onangizga va yana onangizga, so'ng otangizga yaxshilik qilingizlar.

Tangri birovlariga qovog'ini solib qaraydigan kishilarni yoqtirmaydi.

Gaplarning yomoni – bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Yolg'onchilik yovuzlikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga.

Rostgo'y odamga yaxshi baho, yolg'onchi odamga yomon baho beradilar. Rostgo'y odam chin so'zi bilan borib-borib Tangri huzurida siddiq (so'zida sodiq) deb yozib qo'yiladi. Yolg'onchi ham borib-borib uning huzurida kazzob (yolg'onchi) deb yozib qo'yiladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi.

* * *

Bir mo'min bemor yotgan mo'min birodarini ko'rgani borsa, bosib o'tgan yo'llarida Jannat bog'larida yurgandek bo'ladi.

lymonli odam va'daga vafodor bo'ladi.

* * *

Har bir odamning amakisi izzat-hurmat va munosabatda o'z otasi kabidir. Amaki – ota o'rnidadir.

* * *

Bergan narsasini qaytarib oladigan kishi go'yo it qayt qilgan narsasini yana qayta yeyaverishi bilan barobardir.

* * *

So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat.

* * *

Sizlar odamlarni mol-u dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki ochiq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin.

* * *

Yaxshi odam bilan o'tirish go'yo mushk-u anbardek, yomon odam bilan birga bo'lish esa temirchining bosqoni kabidir.

Qo'shni bilan yaxshi aloqada bo'lingizlar,

* * *

Ro'za tutish, namoz o'qish va sadaqa qilishdan ham afzal amaldan xabar beraymi?! U ikki kishini yarashtirib

qo'yishdir. Birovlarning o'rtalarini buzish dinning qironidir (qirg'inidir).

Oralaringizda eng kuchlilaring kimligini aytaymi?! U g'azabi keiganda o'zini tutib tura oladiganingizdir.

Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.

Oddiy kiyim kiyish ham iymondandir.

Rostgo'ylikka xavf-u xatar ko'rsangizlar ham rost so'zlangizlar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham yolg'ondan saqlaningizlar. Chunki bari bir yolg'onning oxiri voy.

Bir-birlaringizga xayr-ehsonli, mehr-oqibatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'ashlik ketadi.

•

Kishining go'zalligi – uning tilidan bilinur.

Mo'minlarning bir-birlarida oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so'rasa berish, aksirsa javob aytish, kasal bo'lsa borib ko'rish, o'lsa borib dafnida qatnashish.

Sizlarning yaxshilaringiz — xushxulq, shirin suhbatilaringizdir. Yomonlaringiz esa og'zini to'ldirib, ezmalik ila ko'p gapiruvchilaringizdir.

Xatning javobini qaytarish – go'yo salomga alik olishlik kabi zarurdir.

Muloyimlik — hikmatning boshidir.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan haqsh kabi dard.

Har bir qilinadigan yaxshilik sadaqa savobiga tengdir.

Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

Qo'llarida ovqatdan qolgan yog' qoldiqlari bilan yotib uxlagan odamga biror kasallik yopishsa, o'zidan ko'rsin.

Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi.

Dasturxonga to'kilgan taom va ushoqlarni terib yeydigan odamning gunohlari to'kiladi.

Kimki birovni o'z nomi o'rniga biror laqab bilan chaqirsa, uni farishtalar la'natlaydilar.

•
•

Kimning xulqi yomon bo'lsa, u o'zini azobga giriftor qiladi.

Kim soch qo'ygan bo'lsa, uni e'zozlab toza va tartibli tutsin!

Rasululloh beijozat ikki kishining o'rtasini yorib, oralariga suqilib kirib o'tirishni man etganlar.

Yomon ulfatdan yakkalik yaxshi, yakkalikdan yaxshi ulfat yaxshi, jim o'tirgandan foydali gap yaxshi, befoyda gapdan sukut saqlagan yaxshi.

Salom berib kelmagan odamni huzuringizga qo'ymangizlar.

Mehmondo'st bo'lmagan odamdan yaxshilik kutilmaydi.

Bir-birlaringizga tuhmat va bo'hton qilmanglar!

•

"Assalomu alaykum" – Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringizlar. Zero, mo'min kishi odamlar oldidan o'tib borayotib ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko'p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, unga bari bir, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya'ni farishtalar alik olishadi.

Uzulib ketgan qarindoshlaringizga muruvvatli bo'ling. Birov sizga yomonlik qilsa ham, siz unga yaxshilik qilavering. Garchi o'zingizning zararingizga bo'lsa ham, haq so'zni so'zlang.

Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi yoki foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamlar uchun har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab istig'for (kechirim so'rash) aytadillar.

Eshikni taqillatayotgan odam o'zining kimligini ham bildirsin. "Kimsiz?" desa, otini aytmay "Men", deb javob berishlikni Rasululloh yoqtirmas edillar.

Taom suzilgan lagannig atrofidan yenglar, o'rtasidan yemanglar, zero, o'rtasiga baraka yog'llib turadi.

Omonatga olib kiyilgandan ko'ra, qirq yamoqli bo'lsada, o'z kiyimida yurgan yaxshi.

Qaysi bir ishni odamlar oldida qilish uyat, deb bilsangiz, uni yolg'iz qolganingizda ham qilmang.

Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni ylg'ib, uni sarf qilmay ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Bemorni ko'rgani borganda uning peshanasiga qo'lni qo'yib hol-ahvol so'rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo'l berib ko'rishib salomlashish mukammal bo'ladi.

* * *

Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

Kimki otasini vafotidan keyin ham unga yaxshilik qilishni istasa uning yor-u birodarlari bilan aloqani uzmasin.

BAHOVUDDIN NAQSHBAND

(1318-1389)

Bahovuddin Naqshband Said Muhammad ibn Jaloliddin 1318 yilda Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduyon (Hozirgi "Qasri Orifon") qishlog'ida tug'ilganlar va shu yerda vafot etganlar.

Bahovuddin Naqshband mashhur shayx bo'lib, Naqshbandiya ta'limoti (tariqati) asoschisidir.

Bahovuddin yoshligidanoq ustoz (piri) Mir Said Kulol ta'sirida o'z oqimini yaratgan mashhur shayxdir.

U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasini ilgari surib, Muhammad ta'limotiga qat'iy itoat etishga chaqirgan. Shuning-dek, u ayniqsa, kishilar xayr-ehson hisobiga emas, balki faqat o'z mehnati bilan yashashni da'vat etganlar:

"Dil ba yor-y, Dast ba kor" (Dil – ko'ngil, muhabbat – Xudo bilan, qo'l – ish bilan band bo'lsin) deydilar. Shunga amal qilib, o'zlari dehqonchilik bilan shug'ullanib, shundan chiqqan daromad evaziga kun kechirganlar. Keyinchalik esa shoyi gazlamalarni rangdor gullar bilan bezagan va metallarga har xil naqshlar solgan (naqshband – naqsh bilan bezovchi).

Mutaassiblar Bahovuddin Naqshband nomlarini ulug'laganlar. Uning qabriga (Buxoro yaqinida) maqbara qurdirilgan bo'lib, diniy rivoyat va kitoblarda diniy muqaddas shaxs sifatida talqin etiladi. Ularga ko'ra, go'yo Bahovuddin Naqshband maqbarasini ziyorat qilgan kishi haj qilganlik savobini topadilar. Dindorlar unga sig'inishib, uni balogardon, ya'ni balolarni daf etuvchi, deb biladilar.

•
Bahovuddin Naqshbahd 1389- yilda vafot etganlar. •

Islom dunyosining eng mo'tabar zotlaridan biri Hazrat Bahovuddin Naqshbandning mustaqil O'zbekistonimiz o'zining ma'naviy mafkurasl asoschilaridan biri hisoblab, ul zotning tavalludlarining 675 yilligini 1993- yilda keng nishonladilar.

Savol va topshiriqlar

1. Bahovuddin Naqshband davrimizning qaysi asrida yashagan?
2. Naqshbandiya tariqati Kubraviya, Yassaviya va boshqa tariqatlardan qay jihatlari bilan farqlanadi?
3. Bahovuddin Naqshbandning hikmatomuz so'zlari mazmunini o'zlashtiring.

ABU RAYHON BERUNIY

(973-1048)

Muhammad Ibn Ahmad Abu Rayhon Beruniy 971- yilning 4- sentabrida Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida tug'ilgan. U ona yurtida tahsil ko'rdi va ilm-fanning ko'p sohalarini (astronomiya, algebra, geografiya, geodeziya, mineralogiya, tarix, falsafa va h.k.) puxta egalladi. Beruniy shu fanlar bo'yicha bir yuz-u ellikdan ortiq asar yozib qoldirgan. U arab, so'g'd, yunon, yahudiy va hind tillarini juda yaxshi bilgan.

Abu Rayhon Beruniy og'ir hayot kechirgan. 995- yili Kotni Gurganj hokimi Ma'mun I bosib oldi. Shundan keyin Abu Rayhon Beruniy Eronga ketib qolgan. Ray (995-997) va Jurjon (998-1104) viloyatlarida Istiqomat qilgan. 1004- yili esa Xorazmga qaytib kelgan va 1017- yilga qadar Gurganjda turib, asosan, ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. Xorazm Mahmud G'aznaviy qo'shini tarafidan istilo qilingandan keyin (1017- y.) u boshqa olimlar bilan birga, G'aznaga olib ketilgan. Beruniy 1048- yili G'aznada vafot qilgan va o'sha yerga dafn etilganlar.

Savol va topshiriqlar

1. Abu Rayhon Beruniy qanday olim?
2. Amerika sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash'ali.

Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston vatanim manim.
Abdulla Oripovning mazkur satrlarida Beruniy dahosiga nisbatan
qanday fikrlar ifodalangan?
3. Beruniy hikmatlarini sharhlang.

ABU RAYHON BERUNIYDAN

TO'QSON TO'QQIZ IBRATLI SO'Z

*Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

*Odamlar o'rgangan, odatlangan va bilgan narsasiga qarshilik ko'rsatmang.

*Hakim va olimlar axloqidan ta'lim olish yaxshi xulqni tirgizadi, yomon qiliqni ildiradi.

*Kichik narsaga e'tiborsiz qaramang, uning foydali o'rni bor; katta ishning kerakli joyi bor.

*Odamlarning tuban darajalisi ham o'zidan tubavroq bo'lgan birovga egalik va raislik qilishdan xoli emas.

*Xato sodir bo'lmaslik uchun donishmandlar qayta-qayta kuzatishni va xalal yetish imkoniyatidan saqlanishni tavsiya qilganlar.

*Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rta kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi.

*Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi.

*Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay ko'zadagi asalni bekorga yeb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi.

*Sevimli narsalarga mashaqqat bilan, yaxshilikka esa o'ziga sevimli bo'lgan narsalarni sarf qilish bilan erishiladi.

*Nazmda takalluf va qiynalishga ehtiyoj tushadi.

*Ne'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.

*Odamlarning maqsadlari xilma-xil, xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p.

*Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam u yoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi.

*Xabarga yolg'on-yashiq qo'shilmaganda, u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi.

*Asosi bo'lmagan fandan voz kechilsa ham bo'ladi.

*Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

*Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzalroqdir.

*Nodonlik - davosi yo'q bir kasallikdir.

*Tarjimalarda, iboralarda ixtilof bo'lmay chora yo'q.

*Bir narsani oson yoki qiyin deb mutlaq qilib aytish kam uchratiladi, balki ahvolning turlichaligiga qarab oson va qiyin deyiladi. U narsa ahvolga ko'ra bir jihatdan oson va boshqa jihatdan qiyin bo'ladi.

*Har bir kun uchun haq va haqlat hozir narsa.

*Har bir erta uchun unda paydo bo'ladigan narsa bor.

*Minnat qilish — qilingan ehsonni yo'qqa chiqaradi.

*Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.

*Doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

*Odamlar bilmagan narsalarga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar.

*Yomon faylasuflar avom xalqi uchun emas, balki yuqori tabaqalari uchun usul va qoidalar ishlab chiqqanlar.

*Hayvonlarning tablatlarida kushandalaridan nafratlanish, dushmandan o'zini qo'riqlash bor.

*Ommaga nisbatan podshohda faqir bo'lib qolish xavfi kamroq, halokatga yaqinlashish xatari ko'proq bo'ladi, albatta, u kam narsa (ya'ni faqirlikdan qo'rqish) ko'paymaydi va u ko'p narsa (ya'ni falokatga yaqinlashish xatari) yo'q bo'lmaydi.

*Ba'zi bir so'zlar borki, u bir din va tilda bema'ni bo'lsa, boshqa din va tilda bema'ni bo'lmaydi.

*Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

*Beozorlarga ozor berib lazzatlanuvchilardan o'ch oling.

*Tarjima qilgan kitobiga bob qo'shib ishonchsiz bo'lgan

kishi, tarjimada ham jumla orttirib, ishonchsiz bo'lishdan chetda qololmaydi.

*Tabiat yaxshini yomondan ayirmasdan, hammasiga bir xilda ta'sir qiladi.

*Hasad bilan g'azab ikki qanot bo'lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va qudratli qilib yuboradi.

*Ulug' hodisalar har vaqt yuz beravermaydi.

*Ba'zilar isbot kuchsiz bo'lsa ham, o'zlariga yoqqan narsani tan oladilar, garchi rost bo'lsa ham, e'tiqodlariga to'g'ri kelmaydigan narsadan qochadilar..

*Har bir yangi narsada lazzat bor.

*Maqsad va irodalar har xil-bo'lgach, hunar va sinoatlar ham rang-barang bo'ladi.

*Birovni zo'rlik bilan yollab ishlatish doimiy bo'lmaydi, to'g'ri ham kelavermaydi.

* Yoqutdagi teshik uning ayblaridan biri hisoblanadi. Chunki yoqut go'zalligiga dog' tushiradigan tomonlaridan sanaladi.

*Xalifa al-Muhtadir Hallojni ming darra urdirdi, qo'l va oyoqlarini kesdirib, bo'ynini uzdirdi. Keyin jasadi to kuyguncha neft septirdi va kullni Dajla (Tigr) daryosiga tashlatdi. Al-Halloj bu qlynoq vaqtda bir og'iz so'z gapirmadi, yuzini burlishtirmadi va labini qimirlatmad.

*Jo'rttaga o'z so'zida turib olgan bilimsiz kishi bilan bahslashish na maqsad egasiga va na maqsadga biror foyda yetkazdirmaydi.

*Amir Ismoil Somoniy debdi: "Ajdodlaringizning shuhratiga suyanmang, o'zingizga shuhrat toping" Kimda-kim qarindoshlari sababli o'ziga obro', yaqinlik axtarsa va o'lgan ajdodlari bilan faxrlansa, o'sha kishining o'zi o'lik va ajdodlari esa tirik sanaladi.

*Bir kishi o'z jinsini ulug'lab, yolg'on xabar tarqatdi. Bundan maqsad o'zini ko'rsatish bo'ladi. Chunki uning o'zi o'sha jinsdan kelib chiqqan bo'ladi, yoki o'zini ko'rsatish maqsadida boshqa zid bir jinsni ayblab, yolg'on gap yoyadi. Chunki u shu bulan uning ustidan g'alaba qozongan va o'z istagiga erishgan bo'ladi. Bu ikki xil xabarning yomon g'azab

taqozosidan kelib chiqishligi ma'lum.

*Birov o'zi sevadigan bir tabaqaga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lib, ular o'rtasida yolg'on xabar tarqatadi... U bu xabarni do'stlik yo dushmanlik natijasida tarqatgan bo'ladi.

*Uchinchi bir kishi o'zining past tabiatligi sababli biron yaxshilikka erishish yoki o'zining yuraksiz va qo'rqqoligi sababli yomonlikdan qutulib qolish uchun yolg'on xabar tarqatadi.

*Ba'zi kishi yolg'on xabar tarqatuvchiga taqlid qilib, bilmasdan yolg'on xabar tarqatadi.

*Yolg'onchilik bilan mashhur bo'lgan kishilarning biridan "Hech rost gapirganmisan?" deb so'rashganida: "Rost gapirib qo'yishdan qo'rqmasam, yoq der edim" deb javob bergan.

*Xalqlardan biriga tegishli xabarni aniqlab bilishga inson umri kifoya qilmaydi.

*Xabar — xabarchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi.

- * Kim uchsa sa'yjahd qilmay shuhratga,

- Karam libosiga ko'zi bo'lsa och.

- *G'aflet soyasida shod bo'lur, ammo

Safar kiyimisiz qolar yalong'och.

*Bilim qaytarish, takrorlash mevasidir.

*Foydali bo'lgan joyda gapirmay, foydaga xalal yetkazish nasihatni tark etish bo'ladi.

*Har bir insonning qadr-qiymati o'z ishini qoyil qilib bajarishidir.

*Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni tirgizadi, yomonni yo'q qiladi.

AMIR TEMUR IBN TARAG'AY

Hazrat sohibqiron Amir Temur O'rta Osiyoda mo'g'ullarning qariyb 150 yillik hukmronligini tugatib buyuk davlat tuzgan, olamga dong'i ketgan va safarlari tarix zarvaraqlarida bitilgan jahongir sulton, kuragi yerga tegmagan buyuk shaxs, yirik davlat arbobi, sarkarda, qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan

birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan insondir.

Amir Temur 1336- yilning 9- aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topgan. Olasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi.

Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat (Chlg'atoy ulusi) og'ir ijtimoiy-siyosiy bo'hton Iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi...

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat kattadir.

Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurti o'z tug'l ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi.

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishida yordam berdi.

Uchinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi.

Amir Temurning sa'yi-harakati bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Yassi(Turkiston) singari shaharlarda qad ko'targan oliy imoratlarni aytmaysizmi?! Ularning ba'zilari hozir ham bor va shahrimizga ko'rk bo'lib turibdi. Amir Temur o'z yurti Turkistonnigina emas, balki qo'shib olingan yurtlarni ham obod qilganlar.

Amir Temur ham Iskandar Zulqarnay va Qutayba ibn Muslim, Doro va Mahmud G'aznaviy, Chingizxon va Botu, Ivan Grozniy va Pyotr Blinchi, Napoleonga o'xshash mashhur odam bo'lgan bo'lib, u 1405- yilning 15- (18) fevralida O'tror shahrida vafot etganlar.

1996- yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi.

Savol va topshiriqlar

1. Amir Temurga bo'lgan munosabat sobiq sovet davrida qanday edi-yu, bugungi kunda qanday?
2. Amir Temurni millat tayanchi va panohi deb qadrlaymiz, nega?
3. Amir Temurning hikmatlarini sharhlang!

AMIR TEMUR IBN TARAG'AY O'GITLARI

– Biz kim – mulki – Turon,
Amiri Turkistonmiz.
Biz kim – millatlarning
Eng qadimi va eng ulug'i
Turkning bosh bo'g'inimiz!

*Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi gat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

*Garchi ishning qanday yakunlanishi tadbir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir.

*Agar ikki xatarlik yoki bir xatarlik ishlarni qilishga to'g'ri kelgudek bo'lsa, ikkovidan barobar qutulish chorasi topilmagach, bir xatarni ixtiyor etmoq kerak.

*Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y.

*Qilmoqchi bo'lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so'z berar ekanlar, yaqiniga ham yo'lamasinlar.

• *Kengash ikki turli bo'lyr: biri - til uchida aytilgani, ikkinchisi – yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini (shunchaki) eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog'iga quyardim va dilimga joylardim.

*Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so'z olib kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savodlirog'ini tanlab olardim.

*Yuz ming otliq qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.

* Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir mang'a,
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang'a.

*Do'st-u dushman bilan muros-a-yu madora qildim.

*Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishingga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-

tazarru qilib kelgach hurmattalab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarda menga nisbatan shubha-yu qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi.

*Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur va mard kishilarni ardoqlaydi.

ALISHER NAVOIY

(1441-1501)

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri, olim va yirik davlat arbobi Alisher Navoiy 1441- yilning 9- fevralida Hlrotda tug'ilgan.

Butun umr bo'yl Temuriylar (Abulqosim Bobur, Sulton Abu Said, Sulton Husayn Boyqaro) xizmatida bo'ldi. Lekin tamom aql-zakovati, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri va boyligini el-yurt va xalq farovonligi yo'lida sarfladi. O'z mablag'iga ko'pgina xayrli binolar qurdirtdi. Hlrotdagi "Ixlosiya", "Shifoia", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, Marvi shohi jahonda bino qildirtirgan "Xusraviya" madrasasi, Xuroson yo'llari bo'ylab qurdirtirgan "Raboti ishq", "Raboti sangbast", "Raboti Derobod" otliq rabotlar (Karvonsaroylari) shular jumlasidandir.

Navoiy juda ko'p nodir asarlar yaratib qoldirdi. Adib va olimning "Xamsa" turkumi bo'yicha yaratgan dostonlari: "Hayrat ul-abror" ("Yaxshilarning hayratlanishi"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor" ("Yettil sayyora"), "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori), "Badoye ul-bidoya" ("Badiilik ibtidosi"), "Navodir unnihoya" ("Behad nodirliklar"), "Tarixi muluki Ajam" ("Ajam podshohlari tarixi"), "Holati Sayyid Hasan Ardasher", "Risolayi muammo" ("Muammo ilmi haqida risola"), "Majolis ul-nafois" ("Nozik ta'blar majlisi"), "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'ichovi"), "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari"), "Xazeln ul-ma'oni" ("Ma'nolar xazlnasi"), "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi"), "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillar sevgani") kabi o'nlab asarlari o'zbek xalqi, butun jahon xalqi madaniyati xazinasidan munosib o'rtn olgan.

Alisher Navoiy umrining oxirigacha Sulton Husayn mirzo bilan birga bo'lgan va 1501- yilning 3- yanvarida vafot etganlar.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiy qayerda yashab, ijod etgan?
2. Nega Alisherga Navoiy taxallusi berilgan?
3. Navo, navoiy so'zlari qanday ramziy ma'nolarga ega?
4. Navoiyning axloq-odobga oid hikmatlarini yod oling.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

(1875-1919)

Buyuk ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy 1875- yili Samarqand shahrida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Zuyolilar oilasidagi muhit undagi adabiyotga, siyosatga, ma'rifatga bo'lgan qiziqishini tezroq ro'yobga chiqishiga yetakladi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga o'z ta'sirlari o'tkazmay iloji yo'q edi. Keyinchalik bu haqda o'z maqolalaridan birida otasi ta'lim bergan "Hidoya" (Islom huquqligga sharhlar) asari uning taqdirida muhim rol o'ynaganligini bejiz qayd etmaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. Ro'znoma va oynomalarda jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganishga kirishib, Islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullana boshlaydi. 1902- yilda Makkaga borib, xo'ja va mufti unvonlariga ega bo'lib qaytadi. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'lib, Ovro'po madaniyati bilan ham qiziqadi. O'sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi Jarida va ro'znomalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari ham mazkur ro'znoma va oynomalarda chiqq boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalariining targ'iboti ushbu maqolalarning markazida turardi.

Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo'lgan Kadetlar partiyasining a'zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta'siri katta bo'ladi. 1910- yillarga kelib,

o'lkamizda "Sho'roi Islomiya", "Ulamo", "Adolat", "Yosh buxoroliklar" kabi firqalar paydo bo'ladi. 1912-1913- yillarda Behbudiy Samarqandda "Samarqand" ro'znomasi, "Oyna" jaridasi chiqishida jonbozlik ko'rsatadi. U 1914- yilda Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblarni o'quv qo'llanmalari keltiradi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq u turli to'siqlarga uchrab, "jadidchilik" rahnamosi, dahriy deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoilbek Gasprinskiyning ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab, o'z o'lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi, ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ladi. U bir qator jahon tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Behbudiy adib sifatida o'zining "Padarkush" (1913) dramasini yaratgan. Unda turkistonlik yoshlarni Ovro'po ilmgohlarida o'qitishni targ'ib qilgan. Mazkur asar o'z davrida A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Mirmuhsin Fikriyning "Befarzand Ochildiboy", Hamza Hakimzodaning "Yag'gi saodat" kabi asarlarining yaratilishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Hatto u Amerikaning Kaliforniya dorilfununida tarjima ham qilingan. Bundan tashqari, Behbudiy o'zbek va tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (1903- yil, "Qisqacha umumiy jug'rofiya"), "Kitobat – ul – atfol" (1908- yil, "Bolalar uchun kitob"), "Muxtasari tarixi islom" (1909- yil, "Islom qisqacha tarixi"), "Amaliyoti islom" (1908- yil), "Russiyaning qisqacha geografiyasi" (1905- yil) kabi darsliklar, kitoblarni yozgan. Albatta, Behbudiy qosonayotgan bunday shuhrat hokim sinflar va amaldorlarning g'ashiga tega boshlaydi. Uni Buxorodagi inqilobiy kuchlarga xayrixohlikda ayblab, Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan 1919- yilda Qarshida qatl qilinadi. Qarshi shahri 20-30-yillarda Behbudiy nomi bilan atalib kelinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1956-yilga kelib oqlanadi. Hozirgi kunda u qoldirgan rang-barang adabiy-madaniy meros o'z xalqi xizmatiga kirmoqda.

Xullas, S.Ayniy yozganidek: "Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o'zining ongi va insoniy qadr-u qimmatini

bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma'rifat uchun kurashga chorlab keldi"

Savol va topshiriqlar

1. Mahmudxo'ja Behbudiyning madaniy hayotimizda, xususan, maktab va maorif (xalq ta'limi) sohasidagi xizmatlari nimalardan iborat?

2. Behbudi'y bizga qanday adabiy meros qoldirdan?

3. Behbudiyning jadidchilik harakatidagi xizmati nimada?

4. Behbudiyning ta'lim-tarbiyaga doir hikmatlarini yod oling.

ABDULLA AVLONIY

(1878-1934)

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan. U eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimaiy holidagi yozishicha: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo'lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjimon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim".

Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912), "Tarix", "Turki gulistoni va axloq" (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1895- yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Avloniy", "Surayyo", "Abulfayz", "Indamas" taxalluslari bilan she'r, hikoya, felyeton va kichik hajmli dramatik asarlar (1900-1917) yaratdi. Shoir o'z she'rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qilar va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqirar edi.

Abdulla Avloniy 1917- yilgacha mahalliy xalq vakillaridan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazetalarni tashkil etadi. U "Advokatlik osonmi?", "Ikki muhabbat", "To'y", "Syezd", "Layli va

Majnun", "O'liklar" kabi dramatik asarlarida jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojlali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarni fosh etadi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqi maorifi, madaniyati va ma'rifati bilan bir qatorda qo'shni afg'on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham 20-yillarda muhim rol o'ynagan. U ma'lum vaqt Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng Sho'rolar ittifoqining Afg'onistondagi konsuli-elchisi vazifalarida xizmat qilgan.

Abdulla Avloniyning fidokorona mehnati munosib baholangan. U 1925-yilda "Mehnat Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. 1930- yilda esa "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" va til bilimi bo'yicha professor degan faxriy nomlarga sazovor bo'lgan. U 1934- yilning 25- avgustida 56 yoshda vafot etgan.

Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Avloniy qachon va qayerda tug'ilgan?
2. A.Avloniyning "Aqli bog'bon" asarining mazmunini matn asosida sharhlang.

A.AVLONIY

"AQLLI BOG'BON"

Abdulla Avloniy bemehnat kun kechirishni hamma eng yomon sifatlarning ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u mehnatni ulug'laydi, mehnat kishining eng go'zal fazilatidir, deydi. Bu jihatdan uning "Aqli boq'bon" hikoyasi xarakterlidir.

Hikoyada aytilishicha, bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Lekin bolalar dangasa va ishyoqmas o'sganlar. Otada ularga meros qoldiradigan tanga – tilla yo'q. Bu ketishda ular ko'p o'tmay xor-zor bo'lishi aniq. Ota umri tugayotganini bilib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchala o'g'lini yoniga chorlaydi: "O'g'lonlarim, — deydi u, — mening ajalim yetganga o'xshaydi. Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnat-u mashaqqat ila bir ko'za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklarning birining tagiga ko'mganman. U sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'lib, harchand urinsam ham ko'milgan joyni xotirlay olmadim. Uni o'zlaringiz

izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar". Bir ko'za tilla daragini eshitgan uch ishyoqmas uni izlashga ketadi. Bog'ning hamma yerini kovlab chiqishadi. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmay kovlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qayta ag'dar-to'ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib, tuprog'i kulga aylanib ketadi hamki, oltinli ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'miladi. Bog'da o'sha yili chunonam hosil bo'ladiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar. "Uch dangasa o'g'illar ota gaplarining asl ma'nosini, oltin – mehnatda ekanligini tushunib yetadilar".

Adib mehnatni sharafllovchi ushbu hikoyasi bilan o'quvchi qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi. Har kim baxt va kamolotga faqat mehnat orqaligina yetishishi mumkinligini uqtiradi...

ABDURAUFI FITRAT

(1884-1938)

Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida shoir va olim, nosir va dramaturg, o'qituvchi va ma'rifatparvar sifatida muhim o'rin egallaydi. U 1884- yilda Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan bo'lib, Buxoro, Istanbul madrasalari va dorilfununlarida o'qiydi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtiradi.

Adibning otasi savdogarchilik bilan shug'ullangan bo'lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. U asosan onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo'lib, undan Navoiy, Uvaysiy, Zebuniso, Bedil, Fuzuliy kabi ulkan shoirlar g'azallarini birinchi tinglagan.

Fitrat 1909-yilda Turkiyaga o'qishga borib, 1913-yilgacha Istanbul dorilfununida tahsil ko'rgan. Turkiyada tashkil bo'lgan "Buxoro ta'limi maorifi" uyushmasida faollik ko'rsatgan. Behbudiy asos solgan jadid usulidagi maktablar takomiliga xizmat etgan. Uning ilk to'plami 1911-yilda "Sayha" ("Chorlov") nomi bilan chop etiladi. "Sayyohi hindi", "Munozara" kabi asarlari ham shu yillarda nashr etilgan.

1909-1913-yillarda Turkiya dorilfununida o'qiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-o'qituvchilarni hayratga

soladi. Unga Fitrat — Donishmand ("tug'ma iste'dod") taxallusini beradilar. Fitrat ijodi Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan, "Sharq uyg'ongan" davrlarga to'g'ri keladi. U ham o'z salafлари kabi avvalo ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning 1913-yilda tojik tilida yaratilgan "Munozara" nomli asarida o'z xalqini zulm botqog'idan qutqarib, "najot yo'li"ni izlaganligi seziladi. Bu davrda rus tili va rus madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligi yo'nalishining muhim tarmog'i bo'lgan.

Fitratning 1922-yilda nashr etilgan "O'zbek shoirlari" to'plamiga kirgan "Kecha", "Behbudiy mozorini izlab", "Sharq" kabi she'rlarida izlanish jarayoni uchraydi. "Shoir" she'rida "o'zim uchun ko'p umidlar to'qidim" degan xulosaga keladi. Uning 1920-yilda yozilgan "Kim deyay seni" kabi she'rida oshiqning ma'shuqaga katta umid bilan intilishi, kutishi, suyishi lirik bir ohangda kuylanadiki, shoir endi ijodning yangi pog'onasiga ko'tarilayotganligidan dalolat beradi.

Shoir ijodida, dunyoqarashida siljish, yangilikka, go'zalikka intilish seziladi. Xuddi shu hol uning "Abulfayzxon", "Arslon" va "Vose" (tojik tilida) kabi dramalari g'oyasida ham seziladi. Uning "Qiyomat", "Shaytonning tangriga isyoni" kabi nasriy asarlarida endi ijodkor falsafasining chuqurlashganligi, katta ijtimoiy-hayotiy muammolarni hal etishga intilishi ko'zga tashlanadi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratgan. Jumladan, "Adabiyot qoidalari", "Eski o'zbek adabiyoti namunalari", "Aruz haqida" kabi ilmiy kuzatuvlari adabiyotshunoslik fani tarixida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, uning Umar Hayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil, M.Solih, Muqimiy, Furqat haqidagi tadqiqotlari ham adabiyotimiz tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat etishi shubhasiz.

Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi o'ndan ortiq mumtoz adabiyot vakillari haqida maqolalar yozgan. Fitrat ayni chog'da olim, ulkan pedagog, xalq maorifi tashkilotchisi sifatida ham faol ishladi. 1921-1923-yillarda u Respublika Maorif xalq noziri bo'lib xizmat qildi. 1923-1924-yillar orasida Moskvadagi Sharq tillari institutida, so'ng Peterburg dorilfununida ma'ruza o'qidi.

"O'zbek tili" darsligi, "O'zbek tili sarfi" (grammatikasi) kitoblari esa 1925-1930-yillarda besh marta chop etildi. Uning "Tilimiz", "O'zbekcha til saboqlari", "Imlo konferensiyasi munosabati bilan" maqolalari ham yaratildi. U ana shu ishlari uchun o'zbek olimlari orasida birinchilardan bo'lib professor degan yuksak ilmiy unvonga sazovor bo'lgan. Fitrat 1938-yil 4-oktabrda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Otajon Hoshim, Qayum Ramazon, G'ozi Olim kabi xalqimizning buyuk ziyolilari qatorida qatl etildi. Faqat 1956-yilga kelib u oqlandi. Oqlandi-yu, qariyb yana o'ttiz besh yildan so'nggina, mustaqillik davri sharofati bilan u haqdagi haqiqatni aytish va yozish imkoniyati tug'ildi.

Abdurauf Fitrat hayoti va adabiy faoliyati ziddiyatlarga o'ta boyligi bilan ajralib turadi. 1991-yil 25-sentabrda Abdurauf Fitratga o'zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, realistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik maktabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Abdurauf Fitrat qanday maktab va madrasalarda ta'lim olgan?

• 2. Fitratning milliy mustaqilligimiz yo'lidagi xizmatlari nimada?

3. Erta sahar tavof qilg'il, bu vatanimdir,

Na vatan bu, sajdagoh-u jonim va tanimdir.

Fitratning "Sayha" to'plamidan olingan, vatan haqida fikr, mushohada yurituvchi mazkur satrdagi ma'no noziklarini sharhlang.

ABDULLA QODIRIY (JULQUNBOY)

(1894-1938)

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tug'ildi.

"Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada... tug'ilg'onman", - deydi u o'z tarjimai holida. — Yoshim to'qqiz-o'nlargacha borg'onda meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajidan o'n ikki yoshimda

meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv bilaturg'on kishiga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabiga yubordi. 1912-yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm barobariga prikazchik bo'lib kirdim... Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oina" gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi... 1913-yilda chiqqan "Padarkush" ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim..." (1915-y.).

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913-1914-yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning "Ahvolimiz", "Millatimga", "To'y" (1914-1915) kabi she'rlari "Oina" jaridasida bosilib chiqqan edi. O'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. Uning "Baxtsiz kuyov" (1915) nomli fojiasi, "Juvonboz" (1915), "Uloqda" (1916) kabi hikoyalarida ham o'z xalqini savodli, bilimdon, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1924-yil Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib "Mushtum" jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi. Uning "Toshpo'lat tajang nima deydi?" va "Kalvak mahzumning xotira daftaridan" turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosila bordi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918-yillardan boshlab "O'tgan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926-yillarda "O'tgan kunlar" uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi.

1928-yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani "Mehrobdan chayon" nashrdan chiqdi.

U "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri", "Dahshat" kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt o'lim orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31-dekabrda qamoqqa olindi. "Menga qo'yilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan

qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman..." Abdulla Qodiriy 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda otildi. Uning asarlari 1956-yildan boshlab yangidan nashr etila bordi. 1990-yilda Respublika prezidenti Farmoni bilan A.Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1991-yilda esa A.Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oliy bilimgothlar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi. Uning nomidagi Toshkent Davlat madaniyat oliy bilimgothida eng bilimdon va iqtidort talabalari uchun Abdulla Qodiriy davlat stipendiyasi joriy etilgan. Uning yuz yillik tavallud (1994) sanasiga yetti jildlik to'la asarlari nashr etildi.

Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Qodiriy qanday oilada tarbiyalangan?
2. Abdulla Qodiriyning bolalik va yoshlik yillari qanday kechgan?
3. A.Qodiriyning ijodiy faoliyati qachon boshlangan?
4. A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani o'zbek adabiyotida qanday o'rin tutadi?
5. Yozuvchining "O'tgan kunlar" romanining badiiy xususiyatlari haqida so'zlab bering.

CHO'L PON

(ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI)

(1897-1938)

O'zber adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov — Cho'lpon 1897-yilda Andijonning "Qatortarak" mahallasida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Cho'lponning otasi Sulaymonqul o'z davrining yirik ziyolisi, ma'rifatparvar kishisi bo'lgan. U "Rasvo" taxallusi bilan she'rlar yozgan.Mistik g'azallar qatori hayotbaxsh misralar yaratib, "Devon" ham tuzgan.

Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra Andijon va Toshkentdagi obro'li madrasalarda tahsil olib, turk, arab, fors tillarini mukammal o'zlashtiradi. Sharq ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Dehlaviy, Nizomiy, Umar Hayyom, Alisher Havoii, Abdulla To'qay kabi buyuk so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'rganadi. Shu bilan birga, Andijondagi rus-tuzem maktabida rus tilini chuqur

o'zlashtirishi natijasida jahon adabiyoti durdonalari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni chog'da Turkistonda 1905-yillarda kamol topa boshlagan ma'rifatparvarlik yo'nalishi ta'sirida shakllana bordi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi atoqli ma'rifat targ'ibotchilari va tashkilotchilariga ergashdi, ma'rifatchi adib bo'lib shakllandi.

Cho'lponning ijodi 1913-1914-yillardan boshlangan, u avval "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" va nihoyat, Cho'lpon (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qila boshladi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o'z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shdi.

Cho'lpon 1922-1926-yillarda o'zining "Tong sirlari", "Uyg'onish" va "Buloqlar" kabi uchta she'riy to'plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib "Soz" va "Jo'r" kabi she'riy to'plamini tayyorladi. Ammo "Soz"i chop etiladi-yu, "Jo'r" to'plami qatag'onlik shamoli tuzog'iga ilinib, qolib ketadi. Shoir to'plamlari orasida "Buloqlar"(1922) ajralib turadi. Unda shoir yaxlit holda mazlum Sharq taqdiri fojiasi haqida o'z qarashlarini to'kib soladi. To'plam besh bo'limdan iborat bo'lib, "Sharq uchun", "Sezgilar", "Sevgi", "Qora yo'llar" va "Qor qo'ynida" deb nomlanadi. Shoirning o'zi qayd etishicha, mazkur she'riy guldasta "Jahon fotihlari changalida ezilib yotgan Sharq o'lkalariga bag'ishlanadi".

Cho'lpon yetuk lirik shoirgina emas, yirik nosir sifatida o'nlab publitsistik maqolalar, ocherk va hikoyalar, "Qor qo'ynida lola", "Yov" qissalari va "Kecha va kunduz"(1936) kabi ajoyib romanining birinchi ("Kecha") qismini nashr ettirgan iste'dodli adib hamdir.

U dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning "Xalil farang", "Cho'rining isyoni" kabi kichik pyesalari, "O'rtoq Qarshiboyev", "Mushtumzo'r" kabi yetuk dramalari hamda ko'p vaqt sahnadan tushmagan "Yorqinoy" pyesalari mashg'ul bo'lgan. Shuningdek, rus yozuvchisi B.Yan bilan hamkorlikda "Hujum" dramasini yaratgan. Cho'lpon adabiy tanqid sohasida "Sho'ro hukumati va sadoi nafisa" "Adabiyot nedur?" kabi mazmunli maqolalar ham yaratgan. Cho'lpon mohir tarjimon sifatida M.Gorkiyning "Ona" A.S.Pushkinnig "Dubrovskiy" qissasi va "Boris Godunov" kabi pyesalarini hamda B.Shekspirning mashhur "Hamlet" in o'zbekchaga o'g'irgan.

Cho'lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi qatag'onlik siyosati qurboni bo'lgan. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan. 1956-yilda oqlandi, 1991-yildagina birinchi bor "Yana oldim sozimni" nomi bilan eng yaxshi she'riy asarlari to'plam holida nashr etildi. Keyingi bir jildlik kitobidan uning kengaytirilgan tarjimayi holi (prof. O.Sharafiddinov), "Kecha va kunduz" romani o'rin olgan.

Hozirgi kunda Cho'lpon nomida nashriyot, ko'cha, mahalla, kutubxona va maktablar qo'yilgan. Uning Fozila(1906), Foiqa (1908) ismli qizlari va nabiralari Namanganda yashaydi. Unga 1991-yil 25-sentabrda "Yana oldim sozimni" kitobi uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi.

Savol va topshiriqlar

1. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon davrimizning qaysi asrida, qachon tug'ilgan?
2. Cho'lpon qanday oilada voyaga yetgan?
3. Cho'lponning ilk ijodi qachon boshlangan?
4. Cho'lpon so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
5. Cho'lpon – tong yulduzimi?
6. Cho'lponning "Xalq", "Ko'ngil" she'larini yod oling.

USMON NOSIR

(1912-1944)

30-yillarning ko'zga ko'ringan, el og'ziga tushgan iste'dodli shoiri Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Qo'qon shahrida hunarmand oilasida dunyoga keldi. Yoshligi bolalar uyida o'tgan. Usmon o'rta maktabni bitirgach, 1931-yildan boshlab, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetining Til va adabiyot fakultetida Amin Umariy, Hasan Po'latlar bilan birgalikda tahsil oldi.

Usmon Nosirning ilk she'rlari universitetda o'qib yurgan vaqtlaridayoq matbuotda ko'rina boshlagan edi. Natijada shoirning "Quyosh bilan suhbat"(1932), "Safarbar satrlar"(1932), "Traktorobod"(1934), "Yurak"(1935), "Mehrim" (1936) kabi she'riy to'plamlari, "Norbo'ta" va "Naxshon" poemalari hamda "Atlas" she'riy dramalari birin-ketin nashr qilindi. Uning "Norbo'ta"(1932) asarida O'zbekistondagi fuqarolar urushi mavzusi, "Naxshon"da qardosh arman xalqi farzandlarining ozodlik uchun intilishlari kuylangan bo'lsa,

antik dunyodagi qullar kurashini aks ettiruvchi "Nil va Rim" kabi poetik asarlari tarix va xalq mulki bo'lib qoldi.

Usmon Nosir she'riyati, avvalo hayotiyligi, qolaversa, jozibali va isyonkorligi, ayni chog'da sodda va ravonligi bilan tezda kitobxon qalbidan chuqur o'rin olgan. Sundan bo'lsa kerak, shoir she'riyati hamon davralarda tez-tez yoddan aytiladi:

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding,
Ko'zinga oyni berkitding
Yurak, sensan ishqibozim.
Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinchim toshdi qirg'oqdan.
Tilim charchar, ajab gohi
Seni tarjima qilmoqdan.

Usmon Nosirning tarjima sohasidagi xizmati ham bebahodir. Uning tarjimasida Pushkinning "Bog'chasaroy fontani" poemasi, Lermontovning "Demon" ("Iblis") asari o'zbek kitobxonlarining qalbiga yetib borgan.

Samimiy, jo'shqin, lirik iste'dod egasi Usmon Nosirning asarlari hamisha kishini hayajonga soladi. Usmon Nosir qatag'onlik davrining qurbonlaridan biri sifatida yosh umrini Sho'ro lagerlarida azob-uqubatda o'tkazib, tutqunlikda 1944-yili vafot etgan. Shoir nomi yoshlik, kurash, go'zallik kuychisi bo'lib, o'zbek xalqi qalbida abadiy yashaydi. Ha, shoir o'zi aytganidek:

Ming yillardan keyin ham
Unutma meni bog'im.
She'rlarim yangrab qolur...
Bir umrga o'lmayman,-
deganda haq edi.

Savol va topshiriqlar

1. Usmon Nosir qayerda tug'ildi?
2. Qanday oilada tarbiyalandi?
3. U.Nosirning ijodiga xos xususiyatlar nimada?
4. Usmon Nosir nega qatag'onlikka uchradi, nima uchun?
5. U.Nosirning "Yur, tog'larga chiqaylik", "Yurak" she'rlarida ifodalangan badiiy nafosatni so'zlab bering.

BOTU (MAHMUD HODIYEV)

(1904-1938)

Botu yangi zamon o'zbek adabiyotining boshlab berganlardan biri, iste'dodli shoir va jamoat arbobi edi. U 1904-yil 16-mayda Toshkentning Shayxontahur dahasining Qatortarak mahallasida tug'ildi. Boshlang'ich ta'limni eski usuldagi maktablarda olgan bo'lsa ham, oliy ta'limni Moskvadagi Pokrovskiy institutining rabfakida (1921) oldi. So'ngra Moskva Davlat dorilfununining iqtisod fakultetida o'qishni davom ettirdi (1921-1927). Samarqand Pedakademiyasiga qaytgach, adabiy va ilmiy ush bilan mashg'ul bo'ldi. 20-yillarning o'rtalaridan boshlab, partiya, davlat ishlarida faollik ko'rsata boshladi. Samarqandda nashr etilgan "Alanga" oynomasida va "Farg'ona" ro'znomasida muharrirlik qildi.

Shu davrdan boshlab, uning she'r va hikoyalari, publitsistik asarlari va ocheklari - "Bilim o'chog'i", "Inqilob", "Tong", "Alanga", "Maorif va o'qitg'uvchi" singari oynomalarda chop etiladi. Uning "Hayit harom bo'ldi" (1929), "Tursun"(1930) kabi hikoyalarda eskilik bilan yangllik o'rtasida kurash, ziddiyat o'z ifodasini topdi.

Uning "Umid uchqunlari", "To'lqinlarim" (1930) kabi she'riy to'plamlari nashr etiladi. Ulardagi "O'zbek qiziga"(1920), "Kuz kunida", "Parchalar", "So'rma", "Hijron to'lqinlari", "Umid uchqunlari" (1925) kabi she'rlari samimiy va hayajonli tuyg'ular ifodasi edi. Ayniqsa, uning tabiat go'zalliklari, sehrli karomatini ochuvchi "Ko'klam", "Oloy qizi", "Kaspiy dengiziga" kabi she'rlari kitobxonni o'ziga maftun etadi. Shoirning "Birinchi xat" poemasi ham mashhur bo'lgan. Eng muhimi, uning she'rlarida porloq, ozod kelajak uchun kurash bosh motiv desa bo'ladi. Shu jihatdan, uning "Qo'zg'olish", "Isyon", "Bizning tovush", "U kun", "Yosh yurak to'lqinlari" kabi o'nlab she'rlarida hayot, kurash, kelajak tushunchasi bosh mavzudir. Shuning uchun ham shoir o'z yurti, eli osmonini musaffo ko'rishni xohlaydi:

Yirtilingiz, ey yaramas qora qalin pardalar,
Hech yovuqsiz yulduzlarning nurli yuzi ochilsin!
Yo'qolingiz yorug'likni to'saturgan bulutlar,
Yurtimizga eng yuksakdan yorug'liklar sochilsin!

Ha, sholr orzu qilgan yangi olam ko'ksidagi ozodlik quyoshi, istiqloq qiyosi nur socha boshladi. Bu nur barqaror bo'lsin, deymiz. Uning bir o'g'li – Erkin Mahmudovich Hodiyeu jarroh, tibbiyot fanlari doktori, professor bo'lsa, qizi – Naima Mahmudovna Mahmudova tibbiyot fanlari doktori, professor, yirik jamoat arbobi (Respublika kasaba uyushmasi raisi bo'lgan) hamdir. Botu 1938-yil 8-mayda Moskvada xalq dushmani sifatida otib yuborilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Mahmud Hodiyeu – Botu qayerda tavallud topgan?
2. Uning hayoti va ijodiy faoliyati qanday kechgan?
3. Shoirning qatag'onlikka uchrashi, ijodining ta'qib ostiga olinishiga sabab nima?
4. Bugungi kunda Botuning ijodiga munosabat qanday?
5. Botu so'zining lug'aviy ma'nosini izohlang.

DONOLAR DEYDILARKI,...

ILM HAQIDA

Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi. Chunki kishi ilm bilan sharafga erishadi.

...

Hadisi sharifda "Ilm olmakka intilish har bir muslim, muslima uchun farz" deyiladi.

...

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy xalqni ilm olishga chaqirganlar. Jumladan, Beruniy ilmning buyuk ko'zini shunday ta'riflaganlar:

"Ilmlar ko'pdir, ular zamon iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir"

Buyuk sarkarda Amir Temur ham ilmni ulug'lab, shunday degan: "Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar"

...

Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn

Sino kabi buyuk olimlar-u fuzalolarning barchasi o'z darajasiga mukammal ilm egallash orqali erishganlar.

Ilm-fanda to'ppa-to'g'ri yo'l bo'lmaydi. Ilm-fanning metin qoyalariga qo'rqmay emaklab chiqqan kishilargina uning nurli cho'qqilariga yetishi mumkin.

Ilmning ahamiyatli ekanligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega" deb yozilgan.

Ilm — boylik manbayi bo'lib, aqlni mustahkamlaydi, izzatni oshiradi, ilm har bir kishini kamolga yetkazadi, umrini boqiy qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ilm haqida donolar deydilarki,.. jumlasini so'ngida qo'yilgan uch nuqta o'rnida ilmga oid qanday fikrlar aks etishi mumkin, deb o'ylaysiz?
2. Ilm haqida donishmandlar nima degan?
3. Donishmandlarning ilm haqidagi hikmatlarini yod oling.

VATANPARVAR INSON – ELIGA POSBON

Ona-Vatanning go'zal tabiatidan zavqlana bilmagan va uni zebo qilish uchun kurashmagan kishidan vatanparvar chiqmaydi. Chunki uning dilida Vatan ishqisi yo'q.

Ona-yer haqida quruq gap sotgan kishi emas, balki uning boyligi va go'zalligi ustida g'amxo'rlik qilgan inson haqiqiy vatanparvardir.

Ona-yerga bo'lgan mehr bilan elga bo'lgan hurmat egizakdir.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligini ko'z qorachig'iday asrash va uni ko'paytira borish ustida sidqidillik bilan mehnat qilish – chin vatavparvarning ishi.

Chin insonning sevgisi uning Vatanga bo'lgan muhabbati bilan egizak bo'ladi va bu hissiyotlar bir-biridan quvvat oladi.

Yashab turgan o'lkang, oilang, o'qib turgan bilim o'chog'ing bilan faxrlanib yashashga odatlanmog'ingiz lozim, chunki insondagi vatanparvarlik tuyg'usi ana shulardan boshlanadi.

Bizda Vatanning qudrati avlodning vatanparvarligi tuyg'usi bilan mutanosib ravishda rivojlanadi.

Ona-yerni sevmagan, elni sevmagan boladan vatanparvar chiqmaydi.

O'zingizdagi barcha fazilatlar uchun awalo ona-Vatandan va olijjanob insonlardan qarzdotsiz.

Savol va topshiriqlar

1. Vatan deganda nimani tushunasiz, vatanparvarlik deganda-chi?
2. Sizning nazaringizda vatanparvar inson qanday bo'lishi kerak?
3. Vatanparvar inson — eliga posbon, matnida ifodalangan g'oyaviy mazmunni so'zlab bering.
4. Hamma ham vatanparvar bo'lishi mumkinmi?

ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

Xalq ona yurtini ana shunday deb ulug'laydi. Vatanning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uni sevrishga, ardoqlashga da'vat etadi. Darhaqiqat, ona yurt – beshik. Biz ana shu oltin beshikda dunyoga kelamiz, birinchi bor ilk qadam tashlaymiz, o'sib-ulg'ayib, voyaga yetamiz, el-yurt xizmatiga bel bog'laymiz. Ha, ona diyorning qadriga yetish uning kamoloti, gullab-yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg'urishni yoshlikdan ongimizga singdirilishida chuqur ma'no bor. Chunki har qanday inson ona-Vatani, ota-bobolari o'tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi. Bu tuyg'u unga kuch-quvvat beradi, aql-idrok ato etadi, jasoratlarga chorlaydi, mardliklarga undaydi. Insondek yashash, mehnat qilish, hayot kechirishni ta'minlaydi.

Vatanni sevish — bu ona yurtning ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, o'zini qahramonliklarga tayyorlab borish demakdir. O'zing yashab turgan zaminni e'zozlash, tabiatini va nafosatini saqlash, uning go'zalligiga go'zallik qo'shish, odamlarni seva bilish, a'lo o'qish, xushxulq bo'lish demakdir.

Savol va topshiriqlar

1. "Ona yurtim — oltin beshigim" iborasi zamirida qanday ramziy ma'no ifodalangan?

2. Ona yurtni onaga qiyoslanadi, nima uchun?

3. A.Oripovning "Men nechun sevaman, O'zbekistonni" she'rini yod oling.

OQIL BOBO DEYDILARKI,...

*O'z Vatanini sevmagan odam — yomon odam. Kimdakin o'z ona diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho'llari-yu, dala-dashtlarini qalbdan sevolsa, unday odam kam bo'lmaydi, zavol ko'rmay, kamol topadi. Vatangado esa xalq qahr-g'azabiga uchragan kishidir. Vaqti kelib unga, hatto bir parcha yer ham, kafan ham buyurmaydi. "Bir siqim ona yer tuprog'i — bir hovuch oltindan qimmat", — deb bejiz aytilmagan.

*O'z Vataningizni, millatingizni sevolsangiz, uni qadrlay olsangiz, o'zgalar yurtini ham seva olasiz. O'z uyingiz, o'z qishlog'ingiz, o'z shaharingiz, o'z ona diyoringiz fidoyisi bo'la olsangiz, qardoshingiz vatani uchun ham jonkuyar bo'la olasiz...

YER SEVARNI — EL SEVAR

Yaratganning ajoyib tuhfası ona-yerimizning qadr-qimmatı, saxovati va insonlar taqdirida tutgan o'rni beqiyosdir. Yer jamiki boyliklarning, noz-ne'matlarning onasi hisoblanadi. Shu sababli uning har bir qarichini muqaddas bilib ardoqlash, qadriga yetish, e'zozlashga, uning chiroyiga chiroy qo'shish uchun astoydil ter to'kib, mehnat qilishga da'vat etuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari juda ko'p

Xalq topishmoqlarida yer haqida shunday deyilgan:

* Zar gilam, zargar gilam,

Ko'taray desam, og'ir gilam.

* Hammani to'ydiradi-yu, o'zi yemaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Nega “Yer sevarni — el sevar” deyishadi?
2. “Yer sevarni — el sevar” matni mazmunini so'zlab bering.
3. Oybekning “Yer” she'rini yod oling.

GO'ZAL XULQ — GO'ZAL QALB IFODASI

Yaxshi inson ko'rkam fazilatlar chashmasidir. Odamlar uning mehr bulog'idan mudom bahra oladilar.

Javohirlar ichida gavhar serqirraligi va xilma-xil nurlar sohib, zebolik namoyon etganidek, inson ham go'zal fazilatlari va sermazmun muloqotlari bilan xulqi zebolik va jozibadorlik kasb etadi.

Xushmuomala bo'lish sizdan ortiqcha bir narsani talab etmaydi, lekin uning hosili bebahodir.

Ma'naviy kamolotingiz qay darajada ekanligini jamiyat a'zolari bilan muloqot doirangiz kengligi, rang-barangligi bilan o'lchanadi.

Odob gulshaningizda yaxshi odamlardagi go'zal sifatlar niholidan ko'proq ko'chirishga harakat qiling.

Agar odamlar sizdan uzoqroq yurishga intilsalar, o'z xulq-atvoringizga razm soling. Hatto asalari ham xushbo'y ko'katga intiladi, badbo'yidan qochadi.

Inson xulqi zebolik kasb etishi go'zal fazilat, lekin u boshqalarning ham shunday bo'lishiga yordam bersa, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

Burchga sadoqat axloqiy fazilatlar gultojidir.

Insondagi go'zallik tuyg'usi bamisoli g'uncha bo'lsa, uning

mumtoz xulqi, odobi bu g'unchaning xush jamolidir. Bu fazilatlar bir-birlarini bezaydilar va boyitadilar.

Savol va topshiriqlar

1. Go'zal xulq deganda nimani tushunasiz?
2. Xulqning o'quvchi fe'l-atvori bilan bog'liqlik tomoni bormi?
3. Go'zal qalb, go'zal xulq tushunchalarining farqi nimada?
4. U.Nosirning "Yurak" she'rini yod oling.

SAODAT EGASI BO'LAMAN, DESANGIZ...

Birinchidan, yomon xislatlarini yaxshilari bilan almashtirishi losim. Birinchi navbatda ichqoralikni yo'qotib, oqko'ngil bo'lishi, ya'ni yovuz niyat va yomon fikrlarni esga ham keltirmaydigan bo'lib, faqat ezgu niyat va yaxshi amal bilan o'zini mashg'ul qilishi zarur.

Ikkinchidan, ko'rolmaslikni ko'ngildan butunlay chiqarib, uning o'rniga xayrixohlikni mustahkam qilib o'rnatishi kerak. O'zgalarning muvaffaqiyatiga sidqidildan xursand bo'lishi lozim.

Uchinchidan, ochko'zlikdan tamoman qutilib, ko'zi to'qlikni odat qilishi shart. Tabiat va jamiyat ne'matlaridan foydalanganda o'zgalarni, hatto kelgusi avlodlarni ham hisobga olishi kerak.

To'rtinchidan, o'zini yoki nasli-nasabini o'zgalardan ustun deb bilmasligi lozim. Chunki har qanday kishi tug'ilishidan to dafn qilingunga qadar o'zgalarga muhtoj, uning hayoti o'nlab emas, millonlab kishiga bog'liq.

Beshinchidan, surbetlik, uyatsizlikni hayo bilan almashtirishi shart. O'zidan kattalarni hurmat, kichiklarga shafqat qilishi shart.

Oltinchidan, butun a'zoni pok tutishi, jumladan, ko'zi pok, qulog'i pok, luqmasi pok, so'zi pok bo'lishi shart. Ko'z pokligi qarash kerak bo'lmagan narsalarga qaramaslik, quloq pokligi eshitish kerak bo'lmagan gaplarni, jumladan, g'iybatni eshitmaslik, luqma pokligi o'zgalarning tegishi bo'lgan, man qilingan va zararli bo'lgan narsalarni yeb-ichmaslik, so'z pokligi beadab so'zlarni tilga olmaslikdir.

Yettinchidan, dangasalik, tanballik va erinchoqlikni vujudidan qochirib, o'zini mehnatsevarlikka o'rgatishi va mehnatni rohat oladigan darajaga yetishi lozim. "Erinchoqlik boshga balo keltirar" degan maqolning mazmunini

anglamagan, mehnatning jismoniy va ruhiy salomatlik hamda moddiy farovonlik uchun eng zarur narsa ekanligini bilmagan yoshlar mehnatdan qochib, o'zlariga jabr qiladilar.

Sakkizinchidan, besabrlik, to'zimsizlikdan qutilib, o'zni sabr qilishga va bardoshli bo'lishga o'rgatishi shart. Xalqimiz sabr qilsang g'o'radan halvo bitar, sabrsizlik o'z oyog'idan yitar, deydi.

To'qqizinchidan, ortiqcha talablar o'rnini qanoat bilan to'ldirishi lozim. Qanoatli kishi aziz bo'ladi, degan bashoratli so'z bor.

O'ninchidan, iloji boricha ko'proq hunar o'rganib, ilm olishi kerak. "Hunari yo'q kishining — mazasi yo'q ishining", "Hunar — hunardan unar", "Olim bo'lsang, olam seniki", degan maqollar bekorga vujudga kelgan emas. Kelajakda kim bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun zarur bo'lgan insoniy xislatlarning asoslari shulardan iborat. Bu xislatlarga ega bo'lgan kishi saodat egasi bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Kimni saodat egasi, deyish mumkin?
2. Saodatga erishishning ilm bilan bog'liqlik tomoni bormi, mehnat bilan-chi?

NON HAM NON, USHOG'I HAM NON

Non. Mana shu birgina so'z zamlrida bir jahon ma'no bor. Non shunchaki dasturxonimiz bezagi emas, balki tiriklik mazmuni, hayot manbayidir. Shu boisdan ham ajdodlarimiz nonni muqaddas bilganlar, u haqda qo'shiq va dostonlar to'qiganlar. Yerda bir burda nonni ham, kichik bir ushog'ini ko'rsak ham olib darrov ko'zimizga surtishimiz, ehtiyotlab, pokiza joyga qo'yishimizning boisi ham nonga bo'lgan buyuk muhabbatimiz va e'tiqodimizning ramzidir.

O'zbek xalqining zamonlar sinovidan o'tgan juda ko'p yaxshi milliy odat va an'analari bor. Non bilan bog'liq shunday milliy rasm-rusmlar, udumlar ham borki, ular otabobolarimizning behad donishmandligidan dalolat beradi. Zero, xalq nazarida hamma narsa: or-nomus ham, vijdon ham, imon ham nonni e'zozlashdan boshlanadi. "Non kechamiz, bugunimiz, ertamiz", — deb ta'kidlaydilar bobolarimiz. Ha, onalar sutining mo'tabarligi, otalar bilagining baquvatligi, bolalar tabassumining nafosati, yurt go'zalligi-

yu turmush chiroyi, o'tmishimizning mavjudligi-yu, kelajagimiz barqarorligi ana shu non bilan bog'liqdir.

HIKOYAT

...Sulton Ulug'bek navbatdagi safardan Samarqandga qaytayotgan ekan. Ko'cha o'rtasida yotgan bir burda nonni ko'rib qolibdi. Shoshib otdan tushib, nonni qo'lga olibdida, uni o'pib peshanasiga surtibdi. Buni ko'rgan mulozimlardan biri: — Hazrat, o'zingiz otdan tushmasdan bizga aytsangiz bo'lmasmidi? Sultonlik sha'niga... — debdi. Shunda Ulug'bek: — "Nonga mening nazarim tushdi, binobarin, nonni yerdan men olishim kerak. Boshqa kimsaga aytsam, nonga nisbatan hurmatsizlik qilgan bo'lardim, — deb javob beribdilar.

Qissadan hissa:

Nonning nomi ulug', nomidan o'zi ulug'.

Savol va topshiriqlar

1. "Non ham non, ushog'i ham non" hikmatida nonni qadrlash lozimligi haqida qanday fikrlar bildirilgan?
2. Dunyoda eng aziz taom nima?
3. Non haqidagi hikmatlarni yod oling.

NON – DORI-DARMON

Tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino nonning shifobaxshlik xususiyatlariga alohida e'tibor bergan va uni anchagina kasalliklarga dori-darmon sifatida foydalanib kelgan:

*Milklar og'rib, tishlar bo'shashsa, qattiq nonni qasir-qusur chaynash kerak.

*Sariq kasaliga chalinganda qattiq yoki yumshoq nonni anor sharbatiga botirib yeyish foyda beradi.

*Oshqozon og'rig'iga yoki yurak sanchish kasaliga chalinganlar har kuni uch mahal qattiq non yeb, ketidan bir piyola qatiq ichishsa, shifo bo'ladi.

*Qattiq non talqoni qatiqqa aralashtirib iste'mol qilinsa, dizenteriyaga davo bo'ladi.

*Obi yoki shirmon nonni tandirdan uzish bilan oftobda qotirish kerak. Bu ne'mat hatto qon aralash ich ketishiga ham shifodir.

*Uzoq davom etgan kasalliklar natijasida kishining qon tomirlari va jigarida tiqilmalar paydo bo'ladi. Yoki kishi issiq mijozli bo'lsa, tanasi doim qizib yuradi. Ba'zi kishilar ko'proq semirishga moyil bo'ladi. Ana shu uchala holda Abu Ali ibn Sino suvi qochgan nonni yuvib yeyishni tavsiya qiladi. Uning yozishicha: "Yuvilgan non sovutuvchi bo'lib, ozqligi kam bo'ladi va u me'dada suzib yuradi. Bunday non issiq mijozli odamlar uchun yaxshi bo'lib tiqilmalar paydo qilmaydi, qizitmaydi"

*Nonni sutga to'g'rab yeyish kishining hazm qilish a'zolari faoliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari rang-ro'yni tiniq va chiroyli qiladi.

*Nonni sutga botirib yeyish esa peshob yo'llaridagi achishishga barham beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Nega nonni dori-darmon deyishadi, sababi nima?
2. Nonni qadrlaysizmi, nima uchun?
3. Non haqidagi naqlarni o'rganing.

YEMOQ ODOBLARI

*Rasululloh Alayhissalom aytadilarki, "Dasturxonga to'kilgan taom va ushoqlarni terib yeydigan odamning gunohlari to'kiladi" Bu hikmat mazmunida nonni tejash yotadi.

*Taom oldidan qo'l yuvmoqda mezbon hammadan oldin qo'l yuvmog'i kerak.

* Qo'l yuvmoqda o'zgalardin peshlik qilmagay.

*Shubhalik taomdan hazar qilgay.

*Islik taomni ham yemagayki muxolifi sunnatdir.

*Taomni dasturxon ustiga qo'yib yegay.

*Ogohlik bilan taom yegay va ichgay.

*Taomni o'z oldidan olgay.

*Non va o'zga taomni isrof qilmagay, nonning qarsini ko'p ulug' qilmagay.

*Sufraning ustiga hozirgilarga kifoya qilgulik non qo'ygay va ziyoda qo'ymagay, ki isrof va tahovun (xor) bo'lur.

*Nonni tabarruk me'yorida ol, ushog'i ham bo'lmasin zavol.

*Ushatgan non bo'lsa, yana bir non ushatmagay, bu ham isrof va tahovunga qo'shilur.

*Non va nonrezalarni ikrom qilgay.

*Nonni ikki qo'l birla sindirgay.

*Tishlagan nonni oxirigacha yemoq lozimdir, uni dasturxonga qo'yib ketish odobdan emasdir.

*Qo'lining yog'ini va labini nonga surtmagay, agarchi nonni yemoqchi bo'lsa ham.

*Og'zidin yo qo'lidin tushgan nonrezani yo o'zga donlarni darhol terib yegay, ki yaxshi odob nishonasidir va tashlamagay, ki takabburlik va xudparastlik belgisidir.

*Taom yemoqlik vaqtida tez-tez, shitob bilan yemagay, agarchi och bo'lsa ham.

*Luqmani o'rta olgay, na katta va na kichik.

*Og'zidagi luqmani xo'b chaynagay va ohista yutgay, taom issiq bo'lsa, uni puflamagay va sabr qilgay.

*Taomlik qo'llni kosaga yo taboqqa silkitmagay.

*Agar imkoni bo'lsa taomni tanho yemagay.

*Yaxshiroq taomni hamkosa va hamrohiga qo'ygay va o'zi qo'l uzatmagay.

*Qoshiqni ko'p to'ldirib ichmagay, ki alomati hirs va ochko'zlikdur va oz-oz ham ichmagay, ki alomati kibru nahvat (gerdayish) dir, balki o'rta ichgay va yana ehtiyot qilgay, ki qoshiqdin sho'rva yo osh sufraga yo libosga tommagay.

*Qoshiqdagi oshni yarim ichib qolganini kosadagi oshga qaytarmagay, qoshiq birla ichishda og'zini kosadagi oshga ko'p yaqin keltirmagay, og'zini ko'p katta ochmagay qoshiq uchun.

*Og'zining ichiga qoshiqni eltmagay, qoshiq birla ichishda og'zidin noxush ovoz chiqarmagay va qoshiqni taboq labiga qattiq tashlamagay.

*Taom vaqtida, zaruratdin, hojatxonaga borish to'g'ri kelsa, avval qo'lni yuvib, so'ng bormoq lozimdir, andin foriq bo'lgandin ham qo'lni yuvmoq vojibdir, albatta.

*Taom vaqtida kishi ba'zi noo'rin xatti-harakatlardan o'zini tutmog'i dardor.

*Taom vaqtida, zarurat bo'lmasa, gapirmaydirlar.

*Agar kishi po'stlik, po'choqlik yo donalik mevalarni (taomlarni) yemoqchi bo'lsa, adab ushbudir, ki uning po'sti, po'chog'i yo danagini zarfi (zarf – idish) taom va yo mevalik zarfga qo'ymagay, balki boshqa bo'sh zarfga qo'ygay.

*Taomdin forig' bo'lgandin so'ng qo'lini dasturxon va yo sufraga artmagay, ki makkohdir, balki tozalab yuvib, alohida latta yo sochiqqa artgay.

*Noz-u ne'matlardan to'la dasturxon oldiga kelib o'tirdan zahotiyoq yemoq — shoshilmagay, agar o'zi mezbon bo'lmasa.

*Barmoqlarni yalamagay, taom turlariga ko'p nazar solmagay, taomni iskamagay va tanlamagay.

*Agar eng yaxshi taom miqdori kam bo'lsa, unga ko'p mushtiq bo'lmagay, aksincha, uni boshqalarga taklif qilgay.

*Taomdin ilgari har bir kishi qo'lini yuvgay va taomdin so'ng ham yuvgay, yuvgan qo'lini silkitmagay, toki qatrlari atrofdagilar yo o'z libosiga sachramagay, qo'lini yuvgandan so'ng pok sochiqqa artgay.

Savol va topshiriqlar

1. "Yemoq odobi" matnida yemoqning, ya'ni, ovqatlanmoq odobining qanday xususiyatlari haqida fikr yuritilgan?
2. "Yemoq odobi" haqidagi hikmatlarni yod oling.

TILGA E'TIBOR – ELGA E'TIBOR

Inson odobini, xulq-atvorini ko'z-ko'z qiladigan, ayni chog'da qilich tig'idan keskir, ilon zahridan o'tkir, alal xusus boldan shirin — tildir.

Odamni bor qiladigan ham til,
Yo'q qiladigan ham til.

Til borki, bol keltirar,
Til borki — balo.

- Bulbul gulzorni bezaydi,
Til insonni.

Til kuydiradi,
Til sovutadi.

Sel qlrg'oqni buzadi,
Til insonni.

Til — ko'ngil tilmochi,
Til — yurakning kaliti.

Tilni bilish — dilni bilish.

Tilni tiygan boy bo'lar.

Tildan qoqilgandan ko'ra,
Oyoqdan yiqilgan afzal.

Tilingizni botir qilmang,
O'zingizni botir qiling.

Til shirin — elda shirin.

Sevdiladigan ham til, bezdiradigan ham til.

Yaxshi so'zlasa, asal tomadi,
Yomon so'zlasa, zahar tomadi.

Achchiq savol berib, shirin javob kutmang.

Savol va topshiriqlar

1. Nega "Tilga e'tibor - elga e'tibor" deyishadi?
2. Tilga e'tibor turg'unlik yillarida qanday edi-yu, bugungi kunda qanday?
3. A.Oripovning "Ona tilimga" she'rini yod oling.

DONOLAR BISOTIDAN

TIL VA SO'Z HAQIDA

Til tig'i tig'dan ham bo'ladi battar,
Bu tanga, unisi jigarga tegar.

Odamni bitta so'z yerga teng qilar.

So'z qilichdan keskir.

Shifokorning dorisi emas, so'zi shifoli.

Yaxshi so'z odamga qanot bag'ishlaydi.

So'z odamni davolar.

Bitta so'z olamni vayron qiladi,
Bitta so'z qo'rqqni polvon qiladi.

Bizlar - bir o'tkinchi jahon bir qaror,
Odamdan qolg'usl - yolg'iz so'z yodgor!

Ona tilida — ayni xalq va uning butun Vatani gavdalanadi...
Boshqacha aytganda ona tili — o'tmish, hozirgi va kelajak
avlodlarni, buyuk tarixni, jonli, yagona halqaga birlashtiruvchi,
eng jozibador, eng boy va mustahkam vositadir...

Ona tili — xalq ma'naviy hayotining hech ham so'lmas,
mangu yashnab turuvchi gulidir.

U yoki bu xalqning butkul ma'naviy dunyosini anglamoq
uchun, eng oldin uning tilini egallab oling!

Savol va topshiriqlar

1. Til bilan so'z orasida mohiyatan bog'liqlik bormi?
2. So'z tilda ifodalanadi, degan tushunchaga qanday qaraysiz?
3. Til va so'z haqidagi naqlarni yodlang!

"SEN" YAXSHIMI, "SIZ?"

"Siz" ham chiqar suyaksiz tildan,
"Sen" ham chiqar suyaksiz tildan.
Bilgin farqin: "Siz" yedirsa asal,
Kelar kulfat "sen" degan tildan.

Ha, "siz" ham bir tildan chiqadi, "sen" ham... Ammo bu ikki so'zning kishi ruhiyati va ma'naviy kamolotiga ta'siri bir-biridan keskin farq qiladi. Birinchisi, kishiga iliq kayfiyat bag'lashsa, bahri-dilingizni ochsa, uni tilidan qo'ymagan kishiga nisbatan mehr uyg'onib, hurmat-izzat paydo qilsa, ikkinchisi, ya'ni sensirashni eshitganda (ayniqsa, o'zingdan kichikroq kishidan) o'zgacha holatga tushasiz.

Sensirash esa manmanlik, dimog'dorlik, nodonlik alomatidir. Shu boisdan ham "siz" rahmat keltirsa, "sen" sirash har qanday kishida nafrat tuyg'usini uyg'otadi. Shuni ham aytish kerakki, odobda katta-kichik, ikir-chikir degan gap bo'lmaydi. Hamma narsa e'tiborga olinmog'i lozim, hamma narsaga yaxshi xulq, yaxshi odob, ibratli fazilatga yoshlikdan odatlanmoq kerak. Bir qaraganda, "sen" bilan "siz" ham kichik, ko'zga chalmaganday tuyiladi-yu, ammo bu so'zlar o'zida chuqur ma'noni anglatadi.

• Savol va topshiriqlar

1. "Sen" yaxshimi, "Siz"?
2. O'zidan kichikni sen, kattani sizlab gapirishga sizning munosabatingiz qanday?
3. "Sen" yaxshimi, "Siz" matnining mazmumini so'zlab bering.

SOG' TANDA — SOG'LOM AQL

Sog'liging – boyliging.

Tani sog'llik – tuman boylilik.

Sog' odamga – Suqrotning keragi yo'q.

Sog'llikda xorlik yo'q.

Sog'llik oltindan qimmat.

Poklliging – sog'liging.

Sog' yuray desang, ozoda bo'l.

Tozalik – sog'llik garovi.

Sog'llik – uzoq umr garovi.

Mehnat bilan inoqlashsang,
Tan og'rig'in ko'rmassan.

Oz yesang – ko'p yashaysan.

Sayohat ham sayr,
Sargardon ham sayr.

Quyosh, havo – tanga davo.

Savol va topshiriqlar

1. Tanning sog', jonning sihat bo'lishida sport qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?
2. "Sog'lom avlod uchun" jurnalini o'qib turasizmi?
3. "Sog' tanda - sog'lom aql" matni asosida sog'lom, aqlli bo'lishning xususiyatlarini so'zlab bering.

IYMON HAQIDA

Iymon — arabcha so'z bo'lib, ishonch ma'nosini bildiadi. Iymonlik kishi — mo'min deyiladi. Mo'min, ya'ni iymon keltirgan, ishongan odam.

Iymon — qalbning duri bo'lib, kishini e'tiqodlikka, yaxshilikka, ezgulikka, halol va pok bo'lishga undaydi.

Alloh taologa keltirilgan iymon mo'minni har qanday dahshat va kulfatdan saqlovchi kuchdir. Payg'ambarimiz Rasulullohi Alayhi Vasallam insonlar qalbidagi bezovtalikni ketkazish, uning dunyoviy ehtiyojlarga qul bo'lib qolmasligi, hayot davomida o'tkinchi istaklar va xatarlar ta'sirida qolmasliklari uchun ular diliga iymonni joylashga o'z hayotlarini baxsh etdilar.

Alloh taolaga iymon insonni jismoniy va aqliy qullikdan ozod etar ekan, uni ma'rifatli kasb va hunarda mohir bo'lishga undaydi.

Iymon taqozosi bilan hayot kechirgan ajdodlarimizdan jahon ahli ilm-u hunar o'rganganligiga butun tarix guvohdir.

Iymonli kishining qalbi tiniq va beg'ubor bo'lishi bilan birga ma'rifatparvardir. Odamlarga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbati, sadoqati, insofi bilan boshqalardan ajralib turadi, bu esa uning insoniy fasilatlari baland ekanligini ko'rsatadi va qadrini oshiradi.

Iymonli kishi aql-zakovati sohibi bo'lishi bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. Birovga xiyonat qilmaydi. U shunday saxovatlikki, uning yuzidan nur yog'ilib turadi. Bu nur kishilarni o'ziga sehraib qo'yadi. Ziyo, nur, fikr tovlanib turgan bunday insonlar bor bo'lsinlar!

Savol va topshiriqlar

1. Iymonlilik nima?
2. Iymon-e'tiqodli, oriyatli inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?
3. A.Oripovning "Haj daftari" kitobini o'qib chiqing.

POKLIK HAQIDA

Poklik — bu ulug'lik. Poklik turmushda, mehnat va kishilar bilan bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy tuyg'uga ega bo'lishi lozim. Poklik va his-tuyg'u insonning ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki poklik mazmunida oqil va e'tiqodlilik, sharm-hayo va or-nomuslik, ziyrak va farosatlilik, o'z yoriga muhabbatli bo'lish, halollik, pokizalik, vazmin va ulug'vorlik, tejamkorlik, mehribonlik kabi yaxshi xislatlar mujassamlashgan.

Poklik — bu zehn va idrok tiniqligidir. Ma'naviy poklik, bu axloq ziyosidir. Unda ruh saffoligi, sezgi, tuyg'ular yuksakdir. Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi. Ruhiy hayotga rag'batlantiradi, shodlik keltiradi.

Kishi hayotida axloqiy poklik birinchi darajali vazifadir. Axloqiy poklik ta'ma va molparastlikka mutlaqo ziddir.

Alisher Navoiy ta'limotida ma'rifatga erishgan har bir kishi axloq jihatdan pok, ko'ngli oq, lafzi halol bo'lishi shartdir, deb ta'kidlangan. Alisher Navoiy Farhodni bunday ta'riflagan:

Demakki ko'ngil pok-u, ham so'zi pok,

Tili pok-u, o'zi pok.

Navoiy bobomiz kabi til bilan dilni pok qilib yurish barchamizning vijdoniy burchimizdir.

Poklik va tozalik o'zbek xalqi ongi, g'ururiga singib ketgan. Milliy odatlarimizga binoan yosh kelinchak va qizaloqlar odob me'yori bilan erta tongda hovli, ko'cha, ostonalarini supuradilar. Orasta qilib, yangi kunni poklik bilan kutib oladilar. Erta tongda turish, poklanish, yaxshi niyat qilish xalqimiz sog'ligi, yurtimiz boyligi uchun xizmat qiladi. Insonning pok, ozoda bo'lishi, ozodalikni saqlash va unga hamisha amal qilishi sog'lom turmushning asosiy omilidir.

Beruniy kiyimni ozoda tutish qanday ahamiyatga ega ekanini sharhlab shunday yozganlar:

"Kiyimning ozodalligiga diqqat qilgan kishi dastavval o'z tanasining ozoda bo'lishiga ahamiyat beradi. Chunki bu joylar iflos bo'lsa, kiyimni tashqarida kir qilishi yoki chang bostirishi mumkin. Shunday qilib, umumiy maqsad kiyim orqali amalga oshiriladi.

Demak, pok odam usti-boshi, yuz-qo'llari, uy-joylarini toza tutadilar, farzandlarini ham shunga o'rgatadilar.

Uy bekasi sochiq, dasturxon, oshxona narsalarini pok va ozoda bo'lishiga e'tibor qilladilar.

Umuman, uyning pokiza bo'lishi, saranjom-sarishtalligi kishi ko'ngliga shodlik, taniga sihat-salomatlik keltiradi.

Xalq orasida pok muhabbat, pok yigit, pokiza qiz, pokiza hayot kabi so'zlar tez-tez uchrab turadi. Bundaylarni eshitib yoki ko'rib kishi havas qiladi. Haqiqatdan ham, o'zbek xalqi orasida pok insonlar ko'p. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etish to'g'risidagi Farmoni pok insonlarning mehnatini e'zozlash, qadrlash demakdir. Shunday ekan, xalqimizning asriy an'analarini davom ettirib,

poklik degan so'zlarga turmushda amal qilaylik. Bir-birimizga pok, sadoqatli bo'laylik.

Savol va topshiriqlar

1. Poklikni qanday tushunasiz?
2. Poklik toza kiyinib, yuvinib, taranib, yurishmi yo boshqa xususiyatlari ham bormi?
3. Qanday odamni qalbi pok, go'zal deyish mumkin?
4. Poklik haqidagi naqlarni o'rganing.

HALOLLIK HAQIDA

Halollik — odamzotning insoniyligini eng yuqori darajaga ko'taradigan, unga faqat ezguliklar olib keladigan fazilatdir.

U insonga obro'-e'tibor hadya etadi.

Halollik ajdodlarimiz tomonidan pokiza saqlanib, asrlar osha sayqallanib, hozirgi kunda ham o'z tarovatini, jozibasini yo'qotgani yo'q. Jamiyatimizda halol odamlar ko'p. Shuning uchun hayot tarovatli, turmush mazmunli.

Halol odamlar andishali, vazmin, bosiq bo'ladilar.

Insoniylikni shishadek shaffof, billurdek pokiza, sadafdek aqika, dur-u javohirdek qimmatbaho fazilati bo'lgan halollikni saqlash, kelgusi avlodlarga yetkazish barchamizning unutib bo'lmaz burchimizdir.

Savol va topshiriqlar

1. Halollik bilan poklik orasida qanday farq bor?
2. Halol odamni pok odam deyish mumkinmi?
3. Halollik haqidagi hikmatlarni o'zlashtiring.

KAMTARLIK HAQIDA

Kamtarlik — inson qiyofasini bezovchi bebaho fazilatlardan biridir. Haqiqiy kamtarlik insonparvarlik, odamiylik kabi xislatlari bilan uzviy bog'liqdir. Kamtar odam o'zini hech qachon mehnatkash xalqdan ustun qo'ymaydi. Xalq bilan doimo bir tan, bir jon bo'lib yashaydi. Oilada, turmushda, yurish-turishda, kiyinishda, oddiy odamlarga nisbatan samimiy munosabatda bo'ladilar.

"Kamtar kam bo'lmas", "Kamtarga kamol", — deydi dono xalqimiz. Isbot talab qilmaydigan bu haqiqat ming yilliklarning sinovidan o'tib kelmoqda. Shu bois, keyinchalik birodarlarimiz o'z yaqin qardoshlariga doimo kamtar bo'ling, kamsuqum

bo'ling, kam bo'lmaysiz deb nasihat qiladilar. Chinakam kamtar, chinakam kamsuqum kishilardan har qanday buyuklikni, har qanday fidoiylilikni kutish mumkin. Chunki undaylar ota-ona-yu do'st-birodarlariga samimiy mehr-muhabbat ko'rsatishni o'z hayotlarining mazmun-mohiyati deb biladilar.

Shayx Bahovuddin Naqshband kamtarlikni, kamsuqumlikni hamma narsadan yuqori qo'yib, ko'ngilni ranjitishni ulug' qabohat deb biladilar... Kishilar bir-birini sevsinlar, bir-biriga madadkor bo'lsinlar, bir bo'lib, yuksak haqiqat uchun yashasinlar.

Alisher Navoiy insonlardagi kamtarlikni yuqori baholaydilar va Farhodning qancha bilim va qobiliyati bo'lmasin uning kamtartligini eng yuqori belgisi deb biladi.

Yaqin o'tmishdagi bizga yurtdosh bo'lgan buyuk allomalarimiz Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Qori Niyoziy, Habib Abdullayev, Obid Sodiqov, Sa'di Sirojiddinovlar kamtar, kamsuqum, zahmatkash kishilar sifatida hamisha el-u yurt ardog'ida bo'lganlar. Bular safida bugungi kunda biz bilan yashayotgan o'nlab ulug' zotlarning ismi shariflarini qo'shish mumkin.

Ular kamtarlikda ham, zahmatkashlikda ham, mehr-u muruvvatlikda ham ko'plarga o'rnak bo'lganlar. Ular tinimsiz mehnatlari tufayli obro'-e'tibor qozonganlar.

Bugun biz ularning qoldirgan meroslari bilan haqli ravishda faxrlanamiz, ularning muborak nomlarini g'urur bilan yod etamiz.

Savol va topshiriqlar

1. Kamtarlik nima?
2. "Kamtarga kamol, manmanga zavol" degan naqlni qanday tushunasiz?
3. Kamtarlik haqidagi hikmatlarni yodlang.

TO'G'RILIK HAQIDA

To'g'rilik — ma'naviy boylik. To'g'rillik tabiiy bir fazilat bo'lib, hayotning tabiiy oqimiga uyg'undir, u insonni sog'lom odamlar bilan baxt sari yetaklaydi. To'g'ri odamga hamma

ishonadi. Unga yordam qo'lini uzatishga tayyor odamlar ko'plab topiladi. To'g'ri odam uddaburon bo'lsa, yordam so'rab, murojaat qiladigan ixlosmandlari ko'p bo'ladi. Ba'zilar yolg'on so'zlab o'zlarini oqlamoqchi bo'ladilar. Qisqa muddat mobaynida haq bo'lib ko'rinishlari mumkin, lekin vaqt o'tgach, to'g'ri kishilar haq bo'lib chiqadilar, chunki to'g'ri bo'lmagan insonlar uzoqqa bormaydi. To'g'rilik insonning ajoyib xulqlaridan biri bo'lib, hayotdagi hamma ishlarining tartibda bo'lishini ta'minlaydi. To'g'rilik bo'lmasa har qanday ish xarob bo'ladi. To'g'rilik inson fazilatini oshiradi. Qadingi bitiklarda shunday ma'lumotlarni uchratish mumkin: "Temur muhrining ustida uchta halqaning shakli bor. Bunday yozuv esa "Rosti va rosti" so'zidan iboratdir. Ma'nosi: "To'g'ri bo'lsangiz, najot ko'rasiz".

To'g'rilik inson qadrini yuksaklikka ko'taradi. To'g'rilik umr va ezgulik tayanchidir. To'g'ri odam bamisoli sham, chunki shamning qismatidek yonib tugaguncha nur taratadi. U bor ekan, yorug'lik mavjud. To'g'ri odam ham butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini taratadi. Shuning uchun ham to'g'rilikni yaxshi xulqlarning posboni, deyishadi.

Savol va topshiriqlar

1. To'g'rilik bilan haqiqat orasida qanday farq bor?
2. Ertaklarda to'g'ri, rostgo'y qahramonlarning hayoti nima bilan tugaydi?
3. To'g'rilik bilan rostgo'ylik o'rtasida farq bormi?

RUXSAT SO'RASH ODOBI HAQIDA

Bir kishining uyiga borib, u kishi bilan ko'rishish va biror ish to'g'risida so'zlashishni istasangiz, uy egasidan kirishga ruxsat oling. Indamay-netmay eshikni ochib, uyga kirib keta berish odobsiz va tartibsizlik sanaladi. Avval eshikni sekinroq taqillating. Undan hech bir tovush chiqmasa, birozdan keyin yana taqillating. Shu tariqa uch marta taqillatganingizdan keyin ham hech kim javob bermasa, uyda odam yo'qligi yoki uy egasi hech kimni qabul qilishni istamaganligi anglashiladi. Shuning uchun hadeb taqillatavermay, orqaga qayting.

Agar uy egasi eshik taqillaganini eshitib kelib, "Kimsiz" deb so'rasa, "Men" deb javob bermang, o'tingizni to'la-to'kis ayting. Uy egasi eshikni ochgandan keyin u bilan

salomlashib ko'rishing, nima ish bilan kelganingizni unga bildiring, chehrangiz ochiq, so'zingiz muloyim bo'lsin.

Agar uy egasi uyga klib so'zlashishni taklif qilsa, qabul qiling, ishingiz zarur bo'lsa, uzringizni aytib, taklifi uchun tashakkuringizni bildiring. U uzringizni qabul qilsa, o'sha yerda muddaoyingizni so'zlang. Maslahatni, kerakli javoblarni olganingizdan keyin, uning ruxsati bilan xayrlashib qayting.

Savol va topshiriqlar

1. Ruxsat so'rash odobini qanday tushunasiz?
2. Ruxsat so'rash odobining qanday xususiyatlari mavjud?
3. Ruxsat so'rash qoidasini o'rganing.

YAXSHILIK HAQIDA

Yaxshilik – bu dil ravshanligi va yurak pokizaligini namoyon etuvchi insoniy fazilatlaridir. Yaxshilik ishonch, mehr, oqibat kabi axloq-odob sifatlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, qorong'ilikda ham yorishib turadi. Yaxshi fikrlar, yaxshi tuyg'ular, yaxshi kayfiyatlar, yaxshi ishlar kishi ko'nglini tog'dek ko'tarib, diliga quvonch bag'ishlaydi. Shuning uchun ham yaxshilik hamisha odamlarga yaxshilik qilish, ularning og'irini yengil qilish, el-yurt mustaqilligini va farovonligi uchun ishlash demakdir.

Yaxshilik chinakam insoniylik bo'lib, u xalqimizning insonparvarlik qarashlarini, quvonchlarini ifodalaydi.

Yaxshi gap gapirish, yaxshi so'z eshitish, yomonliklardan ko'z yumish, nafsdan qochish — bularning hammasi insoniylikka kiradi. Shuning uchun ham insonning kechirgan hayoti uning qilgan har qanday yaxshiligi xalqqa bo'lgan nafi, mehr-muhabbati, rahm-shafqati bilan o'lchanadi.

Ota-bobolarimiz o'z turmushlarida doimo yaxshi niyati bilan orzu-istaklarini dillarga jo qilib yashaganlar. Ular o'zlarining yaxshi nomlari bilan jahonga dong taratganlar. Sohirqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi o'zbek xalqimizning buyuk allomalari o'z hayotlarida doimo kishilarga yaxshilik qilish maqsadida yashaganlar.

Savol va topshiriqlar

1. Yaxshilik nima-yu, yomonlik nima?
2. "Yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyatga" degan naqlga qanday qaraysiz?
3. Yaxshilikning ma'nosini izohlang.

INSON YAXSHILIK UCHUN YARATILGAN

Yaxshilik — bu eng avvalo, jamiyat va xalq uchun tinmay mehnat qilish, jamoa shaniga dog' tushirmaslik, ko'pchilik manfaatiga qarshi ish tutmaslik, o'z xalqiga xiyonat qilmaslik, zarar-ziyon yetkazmaslikdir. Chinakam yaxshilikning mazmunini biz "Odam odamga do'st" degan axloq tamoyili asosida, kishilarning o'zaro mustahkam aloqasi, ular manfaatlarining umumiyligi asosida tushunamiz.

Yaxshilik vijdon amridan chetga chiqmaslik, o'zaro hamkorlik, muomala — munosabatda madaniyatlilik, inson taqdiri haqida chinakam g'amxo'rlik qilish demakdir.

Keng ma'noda olganda, tarixiy zaruriyatga javoban jamiyati-mizning istiqlolni mustahkamlash tomon borishida yordam beradigan har qanday xatti-harakat yaxshilikdir. Halol mehnat qilish chinakam yaxshilik manbayidir.

Har bir lahzani g'animat bilib, yaxshilik qonuni asosida yashamoq — barhayotlilikdir.

Donolar deydlarki:

• Birovga yaxshilik qilsangiz, o'zlariga bildirmay qiling.

Birovga yaxshilik qilsangiz, yaxshilik qaytadi.

Yaxshilik urug'ini sepsang har tomon,
Jannat mevasini olasan shu zamon.

Yaxshi bilan yurdim — yo'llimni topdim.

Yaxshilik yo'lda (yerda) qolmas.

Yaxshilik — yashar.

Yaxshilikka yaxshilik — har kishining ishi,
Yomonlikka yaxshilik — er kishining ishi.

Yaxshi — yaxshiga yondoshtirar.

* * *

Hayotning lazzi — yaxshi soʻz. Ota-bobolarimiz yaxshi soʻzga ilon inidan chiqadi, deb bejiz aytishmagan. Til-zabonimiz tabiat tomonidan yaxshi soʻz uchun inʼom etilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Yaxshilikning, insoniylikning qanday xususiyatlari mavjud?
2. Inson qanday boʻlishi kerak?
3. “Inson yaxshilik uchun yaratilgan” degan fikrga qanday qaraysiz?

DOʻSTLIK HAQIDA

Ey farzand! Tirik kishi albatta doʻstsiz boʻlmaydi. Kim bilan doʻst tutinsangiz ham doʻstlik qoidalariga rioya qiling. Har kim doʻstini esiga olmasa, doʻsti ham uni esga olmaydi.

Kimning doʻsti koʻp boʻlsa, ayblari yopiladi. Yangi doʻst topsang, eski doʻstlaringdan yuz oʻgirma. Yaxshi doʻst kishiga ulugʻ xazinadir. Doʻstingning doʻstlarini oʻz doʻstlaringdan, dushmanlarini dushmanlaringdan deb hisoblang, doʻstingizga dushman, dushmaningizga doʻst boʻlgan kishi bilan, aqlsiz bilan aslo doʻst boʻlmang. Aqlsiz, nodon doʻst aqlli dushmandan yomondir...

Savol va topshiriqlar

1. Doʻstlikni qanday tushunasiz?
2. Doʻst bilan obod uying
gar boʻlsa vayrona ham,
Doʻst qalam qoʻymas esa
vayronadir koshona ham...
satrlarining muallifi kim?
3. Doʻstlik haqidagi sheʼrlarni yod oling.

HUNAR HAQIDA

Ey farzand! Oqil va dono boʻlay desangiz, hunarmand boʻlishni andisha qiling. Hunarmandlik sababidan izzat va hurmatga yetishasiz, agar hunardan bebahra boʻlsangiz, qup-quruq, soyasiz daraxtga oʻxshab qolasiz. Agar aql va donishmand boʻla turib, hunarsiz boʻlsangiz, donishing surat va haybatsiz bir badan yoki mevasiz daraxt kabidir.

Ey farzand! O'z nasibangizga, ota-bobolaringizning martabasiga, mansabiga g'ururlanib ilm-u hunar o'rganishdan zinhor or-u nomus qilmang, ota mansabiga mag'rur bo'lib, mehnatdan qochib, ilm-hunar o'rganmay qolish johil va nodon kishilar ishidir. Oqil va donolar mehnatdan qochmaydilar.

Shuni yaxshi bilingki, oliy nasablik bo'lsangiz-u, aql, donishingiz, hunaringiz bo'lmasa, undan sizga nima foyda?

Ey farzand! Aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishlar bilan do'st bo'ling, hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi.

Mehnatdan, ilm-u hunar o'rganishdan uzoqlashmanglar.

Savol va topshiriqlar

1. "Hunar, hunardan gul unar" degan naqlning tag ma'nosida qanday ma'no noziklari yashiringan?

2. "Bir yigitga qirq hunar oz" naqliga fikringiz qanday?

3. Ilm-fan, hunar o'rganishga bugungi kunda qanday ahamiyat berilmoqda?

SAXIYLIK HAQIDA

Saxiylik — bu ulug' sifat bo'lib, u pokiza kishilarga xosdir. Saxiylik — bu himmat bo'lib, doimo kishi qo'lining baland ekanligini ko'rsatadi. Saxiylik — bu saxovat bo'lib, olmoq emas, balki bermoqdir. Berguvchi gado bo'lsa ham, uning qo'li balang. Oluvchi shoh bo'lsa ham, qo'li past. Saxiy bo'lgan gado shohdan ustundir. Ziqna bo'lgan shoh gadodan pastdir. Saxiylik — gadoni shoh etguvchi insoniy fazilatdir. Saxovat xayrixohlik va oliyhimmatlik belgisidir. Alisher Navoiy ta'biricha, "Saxovat — odamiylilik mulkingning mavj urib turgan dengizi yoki ana shu dengizning bebaho gavharidir"

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning saxiylik haqidagi asarining qahramoni kim?

2. Saxiylikning qanday xususiyatlari mavjud?

3. Saxiylik xususiyatlarini o'rganing.

HIMMAT HAQIDA

Xalqimiz sharqona milliy urf-odatlardan bo'lgan himmat ko'rsatish fazilatini doimo ardoqlab kelgan. O'zbek xalqi yurt boshiga qanday kulfat tushmasin, ne balolarni boshidan

kechirmasin asl saxovati bilan ajralib turgan. Shuning uchun ham xalqimiz bir-birini suyab kelganlar.

Himmat bu axloqning asosiy qoidalaridan biridir. Uning mazmunida saxovat, pokizalik o'rin egallagan. Himmatli kishilar har qanday vaziyatda ham el fayzi va rohati uchun qayg'uradi. Himmatli kishi o'zining doimo to'g'riligi, og'ir, vazmin bo'llishi bilan ajralib turadi. Ular odamlarga doimo saxovat ko'rsatib, nochor, xayr-u zakotga muhtoj bo'lganlarga yordam berganlar.

Himmatli kishida til va dil yumshoqligi, shafqat va mehribonlik odobi, so'z va muomala madaniyati, yomonlik qilganda ham yaxshilik qila olish qudrati, bag'rikenglik va dil pokligi mujassamlashgan bo'ladi.

Himmatlilarning ixtisosi saxiylkdir. Bu ikki sharaflı sifat pokiza kishilarga xosdir. Saxiylık insonning badanidir, himmat – uning joni.

Savol va topshiriqlar

1. Himmatlilik, oliyhimmatlilik dostonlarda, xususan, "Alpo'lish" dostonida qanday aks etgan?
2. Himmat, himmatlilikni izohlab bering.

MEHMON AZIZ

Muin ibn Zoyid ismli hokimning dushmanlaridan uch yuz kishini asir qilib, uning huzuriga keltirdilar. Muin ibn Zoyid ularni qatl qilishga buyurdi. Shunda bir bola o'rnidan turib:

— Ey hokim, men tashnaman, bir piyola suv bering, tashna holda o'lib ketmay, — dedi. Muin suv berishni buyurdi. Bola piyolani qo'liga olib aytdi:

— Hamma asirlar tashnadirlar, men suvni ichib, ularga bermasam muruvatdan bo'lmas, bersam o'zim tashna holda qolaman. Albatta, hammamizni o'ldirasiz, bunga ko'zimiz yetadi. Marhamat qilib buyuring, hamma asirlarga suv bersinlar, tashna holda o'lmaylik. Muinning buyrug'i bilan hamma asirlarga suv berdilar. Ular suvlarini ichib bo'lganlaridan so'ng bola o'rnidan turib:

— Ey hokim, suvingizni ichish bilan hammamiz mehmoningiz bo'ldik, mehmonni o'ldirish fazl-u karam ahlining rasm-rusumi emasdir, — dedi.

Muln ibn Zayld bolaning fasohatli so'zidan zavqlanib, hamma asirlarni ozod qildi.

Savol va topshiriqlar

1. Mehmon kutish, mehmon kuzatish qoidalarini bilasizmi?
2. "Mehmon – otangdan ulug'" naqliga amal qilasizmi?
3. Mehmon kutishni o'rganing.

IQTISOD HAQIDA

Pul va molni kerakli va zarur bo'lgan narsalarga sarf etgandan keyin, qolgan va ortgan puldan bir qismini kelgusi kunlar uchun saqlash lozimdir. Shunday qilinsa, iqtisod qila-qila so'mlar yig'ilib, katta sarmoya hosil bo'ladi.

Iqtisod, tejashni odat qilgan odamlar saodat va ichish, kiyish kerak, ammo "ko'rpangga qarab oyoq uzat" deyilgan so'zga amal qilinsa, boshqalar qo'llda bo'lgan narsalarga tama qilinmaydi. Ko'ngil ham shod bo'ladi. Qo'lida bo'lgan pul, molga qanoat qilmagan odamning nafi butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi.

Iqtisod bilan amal etmagan odam xasis va tamakor bo'ladi. Tama esa davosi topilmagan kasallikdir.

Savol va topshiriqlar

1. Turmush tarzimizning yaxshilanishida iqtisodning muhimligini qanday tushunasiz?

2. Iqtisodchi bo'lishni xohlaysizmi?
3. Iqtisod haqidagi naqlarni bugungi kunga tadbiq qiling.

ISROF HAQIDA

Isrof – o'rinsiz va foydasiz yerlarga pul va mol sarf qilishdir. Qo'lida bo'lgan pul va molni kerakli joylarga sarf eta bilish, yaxshi idora qila olish uchun isrofdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonmoq uchun takallufli va tantanali to'y va ziyofatlar qilib, pul sarf qilish nodonlikdir. Isrof natijasida yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga tama va hasad qilish kelib chiqadi. Shuning uchun isrofdan saqlanish lozimdir.

Savol va topshiriqlar

1. Isrofgarchilikka barham berishning qanday yo'llarini bilasiz?
2. Isrofgarchilik nimadan boshlanadi?
3. Isrofgarchilikka yo'l qo'ymang!

SO'Z QUDRATI

So'z qudrati — shirinsuxanlik, inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki uning aql-saxovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada, so'zda ifoda etiladi. Yaxshi so'z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so'z hayotning quroli bo'lib, unda olam-olam ma'no yotadi. So'z yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi.

"So'zning otasi aql, onasi til" deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham suyakni tebratadi.

Odamning odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimda ko'rinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini o'zlashtirgan kishilarga farosatli, fahmli, odobli, aqlli, es-hushli, madaniyatli deb, baho beramiz.

So'z mulkining sohibqironi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asaridan: "So'z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi... So'z jon bo'lib, ruh uning qolpidir. Tanda ruhi bor odam zoti unga ehtiyoj sezadi". Alisher Navoiy yana shunday deyilar: "Aqlli odam yolg'on gaplmas, ammo barcha rost gapni ham aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'illay, nog'ironidir, ammo u aybdor emasdir"...

"Birovni nohaq xilolatga solmoq — o'z nodonligini isbot qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir..."

Savol va topshiriqlar

1. "So'z atomdan kuchli, uning kuchini o'tin yorishga ishlatmaslik kerak" degan fikr qaysi yozuvchining qalamiga mansub?
2. So'zlashish odobini bilasizmi?
3. "Ming o'ylab, bir so'zla" naqliga amal qilasizmi?
4. So'zlashish odobiga rioya eting.

KITOB HAQIDA

Kitob — oftob.

Qush don qidirar,
Olim — kitob.

Kitob — aql chirog'i.

Kitob bilim beradi,
Bilim baxt keltiradi.

Topay desang kamol,
Oltin olmay, kitob ol.

Kitob — ko'zgu, undan olamni ko'rasan.

Oltin yer tagidan kavlab olinadi,
Bilim kitobdan.

Kitobsiz uy — quyoshsiz kun.

Kitob o'qimagan ko'pni bilmas,
Ko'pni bilmagan uzoqqa bormas.

Kitob o'qigan yaxshi,
So'zga bo'ladi baxshi.

Kitob — bilim manbayi.

Kitob — inson do'sti.

Non to'ydiradi, kitob kiydiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Sizga qanday kitoblar yoqadi?
2. Kitob haqida kimlar nima degan?
3. Kitob haqidagi hikmatlarni yod oling.

BOLA BOSHIDAN...

(Oqil boboning "Hikmatlar xazinası" dagı yozuvlardan)

Aziz o'g'il va qizlarim! Siz bilan yuksak axloqiy fazilatlarga ega kishilar bo'lib yetishishimizga eng yaxshi urf-odatlar, umidlar, an'analar, ya'ni xalq odobnomasining ahamiyati ulkan. Chunki kimda-kim yoshlikdan xalqimizning yillar va davrlar sinovidan o'tgan xalqchil, hayotiy odatlarini, udumlarini, odobnomalarini yaxshi o'zlashtirib olsa, otabobolarning, pand-nasihatları va o'gitlariga quloq solsa, unga amal qilsa, unday bola elda katta obro'-e'tibor topadi. Otabobolarimizning azal-azaldan bizni odobli, mehnatsevar, to'g'ri so'z, halol, rostgo'y, kamtar, insofli, diyonatli, o'z tug'ushganlariga, qarindosh-urug'lari va yaqin do'st-birodarlariga qaynoq mehr-muhabbatli kishilar qilib tarbiyalashga kuch-g'ayratlarini, tajribalarini, aql-idroklarini ayamay sarflaganlar. "Otalar so'zi — aqlning ko'zi", "Naql — tomiri aql", "Qari bilganni — parı bilmas" kabi maqollarning tug'ilishi bejiz emas, albatta.

...

"Uch og'a-inilar" ertagidagi ota tilidan uşbu so'zlarni bir esingizga keltirib ko'ring-a:

"O'g'illarim, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim, yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim... Sog'lom vujudli qilib tarbiyaladim — quvvatli bo'ldingizlar... Qo'rqitmay o'stirdim — botir bo'ldingizlar. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringga olib, esdan chiqarmanglar: "To'g'ri bo'linglar — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmanglar — xijolat tortmaysizlar Dangasa bo'lmanglar — baxtsiz bo'lmaysizlar!"

Ko'pni ko'rgan keksa Oqil bobo "Bola boshidan..." xalq hikmatini sharhlar ekan shunday deydi:

Hali ancha yosh edim. O'shanda dadamdan eshitgan gaplarim hecham esimdan chiqmaydi. Bir kuni ariqdan oqib turgan suvga tupurganimni ko'rib qolib, dadam: "Bolam suvga tupurmang, yomon bo'ladi", — deb qoldilar. "Nega yomon bo'ladi, suvning joni bormi, tupurganimni biladimi?" — dedim. "Biladi, o'g'lim, suvning ham joni bor, — deb

goldilar o'shanda dadam. – Nima yomonlik qildiki, unga tupurasiz. Axir chanqog'ingizni qondirsa, kiyim-kechagingizni toza qilsa, eng oxiri... Katta otangizning ko'z yumishi oldidan suv so'rganlarini ko'rgansiz-ku? Suv tomizdik, so'ng suvda yuvib-tarab joylariga qo'ydik. Ha, suvni hurmat qiling, u bo'lmasa na yer yashnaydi, na el yashnaydi, na siz bilan biz unib-o'samiz.

Suv — hayot-ku, axir..."

Shu-shu suvga hurmat bilan qarayman, unga nisbatan izzat-u ikromda bo'laman.

Kimda-kim yoshligida xalq odobnomasiga quloq solsa, ota-ona so'zlariga, kattalarning pand-nasihatiga, oqil murabbiylarning maslahati va yaxshi qo'ni-qo'shnilar yo'l-yo'rig'ining mag'zini chagib, dil-dilidan unga amal qilsa, oqibati juda xayrli bo'ladi. Bordi-yu, buning aksini qilib, o'z bilarmon bo'lsa, xalqining umidlari, urf-odatlarini nazarga ilmasa, keksalar pandiga quloq osmasa, kekkaysa, takabburlikni odat qilsa, kitobni, mehnatni qadrlamasa, keragidan ortiq tantiq va injiq bo'lsa, dangasalik, tanballik, ishyoqmaslik yo'lga kirsam, uning oqibati voy bo'lishi turgan gap. Bundan farzand o'zi og'ir ahvolga tushibgina qolmasdan, avvalo, ota-onasiga, o'qituvchi-murabbiyiga, maktabiga, do'stlariga ham isnod keltiradi.

Axir xalqimiz:

Yaxshi bo'lsa bolasi,
Rahmat olar onasi.
Yomon bo'lsa bolasi,
La'nat olar onasi.
Yaxshi chiqsa o'g'loni,
Rohat topar otasi.
Nobop bo'lsa o'g'loni,
G'amga botar otasi,

deb bejiz aytmaganlar.

"Bola boshidan..." hikmati odobnomaning bosh mavzularidan bo'lib, uning zaminida uyda o'zini tuta bilish, ota-onaning aytganiga quloq solish, aka-ukalariga g'amxo'rlik ko'rsatish, to'g'ri so'z va to'g'ri qo'l bo'lish, mehnat qilish, kitob o'qish, bo'sh vaqtini bekor o'tkazmaslik, tozalikka rioya etish, kattalar oldida odob saqlash, hayvonlar parvarishi,

tomorqa qarovi, bog' ko'kartirish kabi qator axloq-odob qoidolari, yo'l-yo'riqlari yotadi. Ha, hamma narsa bolalikdan boshlanadi...

Savol va topshiriqlar

1. Bola tarbiyasini qachondan boshlash kerak?
2. Bola tarbiyasida onaning roli qanday, otaning-chi?
3. 1998-yil — Oila yilida bola tarbiyasiga qanday ahamiyat berildi?
4. Bolalarning qanday jurnallarini bilasiz?
5. Barot Yarashning "Ilmli bola" she'ri yod oling.

HIKMATLAR

Dunyoda oqilona so'z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.

* * *

Nodon kishi o'zining nasl-nasabiga, olim kishi esa o'zining ilm va adabiga tayanadi.

* * *

Ma'nosiz, poyma-poy so'zlamodan ko'ra sukut qila bilish fazilatdir.

So'z doriga o'xshashdir, ortiqchasi zarar keltiradi.

* * *

Ilm o'rganishdan murod mansab emas, xalq va Vatan oldidagi burchni oqlash uchundir.

* * *

Baxt-saodatni izlasangiz topa olmaysiz; zimmangizdagi insoniy vazifalarni ado eting — baxtning o'zi keladi.

* * *

Donolardan o'rganish va o'rgangan narsalarni boshqalarga o'rgatish — eng buyuk insoniy belgilardandir.

* * *

Yaxshi nom olib o'lgan kishi, yomon nom olib tirik yurgan kishidan afzaldir.

Aqlsizlikning eng yaramas ko'rinishi vaqtning bekorga o'tkazishidir.

Aqlli odam boshqalarning xatosidan ibrat oladi.

Har bir ishning o'z natijasi bo'ladi: muloyimlik—ulug' martaba, qanoat—rohat, tavoze—e'zoz keltiradi.

Go'zal xulq qahr-g'azab kelganda bilinadi.

Sir saqlash — til ostiga cho'g' olib turishdan ham mashaqqatlidir.

Aflotundan so'radillar:

* Ilmlarning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir.

* Shoir tilini saxovat tig'i bilan qirqmoq kerak.

* Til — so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimonidir.

* Ba'zilar tillarda birgina narsaga ko'p ism bo'lishidan magtanadilar. Holbuki, unday holat tilning eng ulug' ayblaridan sanaladi.

Tilning vazifasi mavjudot va undagi narsalarning har biriga o'sha ismni aytgan paytda, boshqasi haligi ismni aytgan kishining maqsadini anglash kerak.

Agar bitta narsaga bir ismning o'zi kifoya bo'lgan holda har bir qabila yo tabaqa o'zi istagancha unga har xil ism bersa, ismlar ko'payib maqsad bekik qolishiga sabab bo'ladi; bittasidan boshqalari bekorchi, ma'nosiz va befoyda bo'ladi. Ularni yodlashda umr zoye bo'lib, mashaqqatlar chekishga sabab bo'ladi.

* Buyurilgani uchun nusxa ko'chiruvchilar bekorchi narsalarni ham ko'chira bergaylar.

* Odamgarchilik insonning o'zi, urug'-aymog'i va o'zi ahvoliga ta'sir etish bilan cheklanadi. Mardlik esa undan ham ustun turib o'zidan tashqariga ham o'tadi. Odamgarchiligi bor mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga

hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi.

* **Mardlik** — shod-xurramlik, xayr-saxovat, iffatlik, aziyatdan tiylilish bilan ta'riflanadi.

* **Mardi maydon** shunday odam bo'ladiki, erta-yu kech dushmanga zarar-u, do'stga foyda keltiradi.

* **Savodsiz kishilarning** seziladigan va ko'tariladigan narsaga tarafkashlik qilib qiziqishi, har bir joyda ozchilikni tashkil qilgan olimlar aqlari topadigan narsadan ularning nafrat qilishi tabiiydir.

* **O'z istagiga erishishga taqdir yordam bermagan kishiga** malomat qilinmaydi.

* **Yutuqqa ega bo'lmaganini** tahqir qilmang.

* **Qarama-qarshiligi ravshan va ayon bo'lgan narsaga** qanday ishonib bo'ladi?

* **Uzoq zamon, davr o'tavergach nasllarning ketma-ket** saqlab borishi kam uchraydi, balki bunday vaqtda biron naslga nisbat berilishining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini ko'pchilikning bir fikrga kelishuvining va guruhlarning bir og'izdan uni tasdiqlashi orqali bilinadi.

* **Suqrot o'z xalqi ommasining samanlarga ibodat qilishiga** qarshilik ko'rsatib, tilda bo'lsa ham, sayyoralarini xudo deb atashdan bosh tortdi. Shuning uchun Afinaning o'n ikkilik qozisidan o'n bittasi bir ovozdan uning o'ldirilishiga fatvo berdilar. Suqrot esa haq yo'ldan qaytmagancha o'lib ketdi.

* **Dushmanlar hamisha nasablarga ta'na qilish,** nomuslarini yerga urish, turli uydirma gaplar tarqatishga urinadilar. Shuningdek, do'stlar va xayrxohlik qiluvchilar yomonni yaxshi ko'rsatishga, xalal yetkazadigan yo'llarni to'sishga, go'zallikni izhor etishga va yaxshiliklarga nisbat berishga tirishadilar.

* **Agar o'simlikdan yoki jonivorlardan biror xilining** o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarga bu ahvol bo'lavermaydi. Ularning har biri vujudga kelishida birdaniga paydo bo'lib, yo'qolishida esa birdaniga yo'qolib ketmaydi. Balki uning o'zi yo'qolsa ham u o'z o'xshashini qoldirib ketadi. Hatto u bir nechasini qoldiradi.

* Payg'ambarlarning ba'zilariga hech kim ergashmay, halok bo'lgan va o'zidan keyin nomidan boshqa hech narsa qolmagan. Ba'zilariga ma'lum xalqlar ergashganlar.

* Kishi o'z mehnat va mashaqqat chekishlar jarayonida, garchi u insonlarning eng aqllisi va eng ziyragi bo'lsa ham, hamisha shod-u xursandchilikni orzu qilib, sevinch keltiradigan narsalarga moyil bo'ladi va yolg'on ko'riladigan narsalardan tortinadi. Shu bilan telbalanib, yaxshi tushlar ko'rsa xursang bo'ladi, hatto fol va munajjmlar gapiga ishonadi.

* Odamlar tuzilishlarining rang, suvrat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning odam yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir.

Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida bir-biriga ehtiyoj tug'ilishidir.

* Hojatlarning turi ham bir xil emas, inson bir o'zi uni eplay olmaydi, u haqda birorta yordamchi ham kifoya qilmaydi.

Ehtiyojlarning turi ham, soni ham ko'p, uni faqat birmuncha kishigina bajo keltira oladi. Buning uchun inson yig'ilib yashashga muhtoj.

* Oltin va kumush qadri odamlar orasida tabiiy suvratda emas, balki sun'iy suvratda yuksaladi. Chunki bu ikkalasi tosh bo'lib, odamni ochlikdan to'yg'aza olmaydi, tashnalikni qondirolmaydi. Zararni daf qilolmaydi, mashaqqatdan saqlay olmaydi. Ovqat sifatida manfaati bo'lmay, insonni tiklay olmagan va uning turini boqiy qoldirolmagan, kiyim bo'lib, odamlarni asray olmagan, issiq-sovuq qiyinchiliklardan saqlay olmagan va pana yer sifatida yordam berolmaydigan har bir narsa tabiatan maqtanarli emas. Basharti maqtovga sazovor bo'lguday bo'lsa ham u tabiiy ravishda maqtalmaydi, balki hayotda bo'lib, boshqaning ehtiyoji tushadigan narsa uning yordamida bo'lsa, shundagina u maqtaladi.

* Ko'pchilik tomonidan botirlik deb tanilgan xulq, ya'ni urush maydonlarida bahodirlik va turli halokatlarga uchrashni pisand qilmaslik o'sha shijoatning bir turidir. Ammo uning

hamma turlari ichida eng yuqori darajali bir xili – to'g'ri so'zni so'zlash toki to'g'ri ishni qilishda o'limni pisand qilmaslikdir.

- * Rostgo'ylik shirinligini totmagan yoki shirinligini bilsa ham, totishni istamagan kishi uni sevmaydi.

- * Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi; zulm, yolg'on guvohlik, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o'g'rilik, dunyo va xalqlarning buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa yomon xulqlarni yaxshi qilib ko'rsatadi.

- * Yunon faylasuflari haqiqatni bayon qilishga urinsalar ham, avom xalqqa tegishli tushunchalarda ularning e'tiqodlari va shariatlaridagi ishoratlardan chetga chiqa olmadilar.

- * Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnashib qolib, go'yo unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan tinchimaydi.

- * Komil narsa ortiqchaligini ham, kamchilikni ham qabul etmaydi.

- * Ba'zilar o'zining bahuzurligini iloj boricha ko'rsatishga harakat qilib, qiynalganini yashiradi. Hatto ularning (chin) ahvolini bilmaganlar ularni boyga yo'yishadi.

- * Ba'zilar Hotam at-Toyiga o'xshab o'z joniga qasd qilib bo'lsa ham dushmaniga nisbatan saxovat va shafqat ko'rsatadi... Hotam dushman tilagini rad qilishga ko'ngli bormay, qo'lidagi nayzasini dushmanga tutqazgan.

- * Sanamlarni ishlagan kishilardan keyin ko'p zamonlar o'tib, sanamlar ko'p asrlarni kechirganlar. Keyin ularning yasalishi sabablari va ularni talab qilgan ahvol unutilgan va sanamlar odatga kirib, rasmiy va odatiy narsa bo'lib qolgan.

- * Tanishish hamjinslik bilan yuzaga keladi... Agar unga yomonlikdan xavfsizlik qo'shilsa, u holda oshnachilik ikki bor ortadi, oradan nafrat ketadi.

- * Soqov nazarida barcha odamlar ham soqovdir.

- * Shakl — shaklga tortar, qush o'z sheriklari bilan qo'nadi.

- * Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilm-u hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud (nopokliklardan) tozalanishdir Kimda shunday

(sifatlar) topilsa, hukm uning foydasiga va kimda yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi.

* Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shu joyga yaqinlashgan sari, to o'ziga borib yetguncha soddalashib boradi.

* Har bir narsani o'z jinsidan qidirish kerak.

* Ikkala da'vogar rozi bo'llshibdi-yu, qozi rozi bo'lmabdi.

Savol va topshiriqlar

1. Qanday so'zlarga hikmatlar deyiladi?

2. "Kuch - adolatda" deb kim aytgan?

3. Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" kitobini o'qib chiqing.

DONOLAR DEYDILARKI,...

Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli hunarmandlarning suhbatlarida bo'ladi, ulardan bahra oladi. Donishmandlar suhbatlari — mushk-anbar, demakdir.

Ham tavezalik bo'lib, ham boadab,
Yaxshilarning suhbatini qilgil talab.

Bir donishmanddan:

— Qaysi odam, qaysi millat afzal? - deb so'radilar.

U donishmand ikki qo'lga yerdan tuproq olib:

— Mana shu ikki qo'limdagi tuproqning qaysi biri afzal?
- dedi. Keyin ikki qo'ldagi tuproqni bir-biriga qo'shib aytdi:

— Ikki qo'limdagi tuproqning bir-biridan farqi bo'lmagani kabi hamma xalq, hamma millat bir-biriga birodardirlar.

Qadimdagi Eron donishmandi Buzurjmehr aytadilar:

— Ustozimdan, hammadan yaxshiroq narsa nima? — deb so'radim.

Ustozim aytdilar:

— Sihat-salomatlik, farovon turmush, saxiylik va xotirjamlikdir.

Uch narsa insonga juda zarur: qahr-u g'azab vaqtida o'zni tuta olish, boshga kulfat tushganda betoqat bo'lmay, sabr qilish va xayrli ishlarga shoshilishdir.

Aqlli odam boshqa bir odamning qilgan xatosidan saboq olib, o'zi shunday xatoga yo'liqmaslik uchun harakat qiladi.

Yoshlik chog'ida fazilat orttirish uchun zahmat cheksangiz, qariganda fazilatning o'zi sizga xizmat qiladi.

Fazilatni aylar esang ixtiyor,
Bo'lur davlating hamdam-u, baxt-yor.

* * *

Va'daga vafo qilish — insonlik fazilati. Qo'ldan kelmagan ishga va'da berish yaxshi xislatlardan sanalmaydi.

* * *

Har kimni do'st hisoblab, yashirin sirni aytish aqlli kishining ishi emasdir.

Qilichdan yetgan jarohat tildan yetgan jarohatga qaraganda yengilroqdir, chunki qilich badanni, til esa qalbni jarohatlaydi.

To'rt narsa hamma uchun kerak: salomatlik, go'zal xulq, rostgo'ylik va halol mehnat.

O'n xislatlarni qo'ldan bermaslik lozim: to'g'rilik, insof, muloyimlik, olim va fozillar bilan suhbat, qarilarga hurmat, kichiklarga shafqat, qanoatli bo'lish, vafodorlik, iffat va adolat.

Aflotundan so'radilar:

— Olim-u donishmand oddiy kishilardan nima bilan farq qiladilar?

Aflotun javob berdi:

— Olim kishi ochiq yuzli, yumshoq so'zli, tavozeli bo'ladi. Biroq odamdan o'zi haqida bo'lmag'ur so'z eshitsa, xafa bo'lmaydi. Maqtashlar va olqishlarga uchib, o'zini yuqori tutmaydi, kamtar bo'ladi.

Arslon yirtqichligi, inson esa aql-u hikmat va axloqi bilan kun kechiradi.

Adab aqlning tashqi suratidir.

•

Qalbi pok bo'lgan kishining ishlari ham pok, toza bo'ladi.

Kimning himmati baland bo'lsa, qadr-qiymati ham baland bo'ladi.

Aql ulug'likka, aqlsizlik esa tubanlikka yetaklaydi.

O'z nafsiga asir bo'lgan odam insoniylikni qo'ldan boy beradi.

Hunar shunday otdirki, u minglab kishini rohat va e'tibor manziliga yetkazadi.

Adab — aql va iymonning chirog'i, obro'-e'tibor sarmoyasidir.

Egri ishning soyasi ham egri bo'ladi.

•

• Savol va topshiriqlar

1. Donishmand bo'lmoqlikning siri nimada?
2. "Oz-oz o'rganib dono, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur" naqli kimning qalamiga mansub?
3. Donishmandlik haqidagi hikmatlarni yod oling.

TARIXIMIZ SAHIFALARIDA

TOSHKENTNING O'N IKKI DARVOZASI

Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Shosh (Toshkent) o'zining uzoq va qiziqarli tarixida o'zaro feodal urushlar hamda xorijiy bosqinchilar istilosi natijasida necha bor buzilib, necha bor qayta tiklangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda yirik shaharlar qo'rg'on bilan o'rab olinganligi, ularning bir necha darvozasi bo'lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy ma'lumotlardan ayon. Quyida ko'hna Toshkentning maxsus nomlar bilan atalgan darvozalari haqida fikr yuritiladi.

O'tgan XVIII-XIX asrlarda bu shaharning 12 ta darvozasi bo'lib, bular: Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashqar, Beshyog'och, Qo'qon, Qaymast va Komolon darvozalaridir. Ushbu darvozalardan kirilgach, eng avval guzarli keng maydonga chiqilgan, bu guzargohlar 1920-yillarning oxiriga qadar juda obod bo'lgan. Navro'z va ko'plab milliy bayramlar, har xil sayllar, xalq yig'inlari o'tkazilgan bu maydonda choyxona, oshxona, novvoyxona, sartaroshxona, kosibchilik, karvonsaroy, bozor, qassoblik va baqqollik do'konlari joylashgan edi. Darvozalardan boshlanib, shahar markazidagi katta bozorga olib boruvchi ko'chalar yo'l-yo'lakay juda ko'p kichik-kichik ko'chalarga tarmoqlashib ketardi. Ko'chalar eltgan shahar bozori faqat savdo-sotiq uchungina xizmat qilib qolmay, balki shahar xalqi hordiq chiqaradigan joy ham edi.

Shahar hokimining turli farmonlari ma'lum belgilangan joylardan tashqari, shu bozorda ham jarchilar tomonidan e'lon qilindi, bozor maydonida dorbozlik, sarbozlik, o'yin-kulgi va boshqa turli tomoshalar namoyish etilardi.

Afsuski, shaharning ko'hna darvozalari shu kunlarda saqlanib qolmagan. Lekin ularning qayerda joylashganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bor.

Darvozalar shaharning hozirgi o'zaro joylashishiga nisbatan taxminan quyidagi o'rinlarda joylashgan: Komolon – hozirgi "Baxt" ko'chasida; Qaymast – O'zbekiston ko'chasidan 9-yanvar ko'chasiga burilish yerida; Qo'qon – Mustaqillik maydoni (sobiq Lenin maydoni)da; Beshyog'och – Beshyog'och dehqon bozori bilan madaniyat va istirohat bog'i oralig'ida; Qashqar – Qashqar mahallasi guzari (hozirgi Markaz – 4 mikrorayonida); Labzak – Xurshid ko'chasi bilan Anhor kesishgan joyda; Taxtapul – Sobir Rahimov ko'chasidagi Kaykovus anhoriga qurilgan ko'prik yaqinida; Qorasaroy – Qorasaroy ko'chasining guzarida; Sag'bon – Sag'bon ko'chasidagi 11-maktab bilan Kaykovus oralig'ida; Chig'atoy – Chig'atoy ko'chasidagi Chig'atoy darvozasi guzarida; Ko'kcha – Ko'kcha guzarida; Samarqand – hozirgi "Samarqand darvozasi" ko'chasining guzari atrofida bo'lgan.

Bu darvozalar faqat qamal paytlaridagina emas, balki tinch vaqtlarda ham har kuni qorong'i tushishi bilan berkitib

qo'yilar edi. Ertalab barvaqt ochilar, karvonlar, sayyohlar va darveshlar, boyonlar va amaldorlar yayov va faytunlarda viqor bilan kech oqshomga qadar kirib-chiqib turganlar. Doimo maxsus soqchi (darvozabon) lar qo'riqlab turgan bu darvozalarning tarixi "chortoq" shaklida bichilib, pishiq chorsi g'ishtdan murakkab qorishmadan qurilib, tomi gumbazli qilib yopilgan. Me'morlar uning oldi ko'rinishiga alohida e'tibor berib, ulkan peshtoqli qilib loyihalashtirganlar.

Kechqurun darvozalar taqa-taq yopilib, shahar ichkarisiga tashqaridan hech kim kiritilmagan. Keluvchilar kim bo'lishidan qat'iy nazar darvoza tashqarisida tunab qolishga majbur bo'lishgan. Qadimgi darvozalarga ishlangan eshiklar archa yog'ochlaridan yasaliib, sirtining ba'zi yerlariga bezak sifatida metall ham qoplanar hamda turli xildagi islmiy va girexiy naqshlar bilan milliy shaklda bezatilar edi. Bu eshiklarga yaqinlashgan har bir kishi zahmatkash ustalarning mahoratiga, aql-zakovatiga tahsinlar aytishardi.

Go'zal shahrimizning o'n ikki darvozasining o'n ikki kaliti nusxalari hozirgi kunda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining ko'rgazma bo'limida tartib bilan terib qo'yilgan. Ularning oltindan yasalgan asl nusxalari esa Moskvada – sobiq SSSR Davlat bankida saqlanmoqda.

Respublikamizda qayta qurish, oshkoralik, mustaqillik amalga oshirilayotgan shu kunlarda, ko'hna Toshkent shahar darvozalaridan boshlanadigan ko'chalarga shu darvoza nomlari berilib, marmar toshlavhalar o'rnatilsa hamda shahar darvozalari zamonamizga moslab tiklansa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Toshkentning o'n ikki darvozasi nomlarini ayting.
2. O'n ikki darvoza nomi bilan yuritilishining sababi nima?

OYBEK

(1905-1968)

O'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li — Oybek 1905-yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o'rta maktabda, 1922–1925-yillarda esa Toshkent pedtexnikumida ta'lim oldi. So'ngra O'rta Osiyo Davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetida o'qishni

davom ettirdi. Leningraddagi Plexanov nomidagi xalq xo'jaligi institutida tahsil ko'rdi. 1930-yili O'rta Osiyo Davlat universitetini tugatib, Oliy maktabda siyosiy iqtisoddan dars berdi.

Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib keladi. Shoirning "Dilbar davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq" (1933), "Temirchi Jo'ra" (1933) poemalari o'z davrining she'riy solnomalaridandir.

O'zbek xalqining 1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'aloni yozuvchining "Qutlug' qon" (1940) romanida zo'r mahorat bilan ifodalangan. Adibning ikkinchi yirik tarixiy asari "Navoiy" (1944) romanidir. Oybek bu romanda o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Uning "Oltin vodiya shabadalar" (1949) asarida xalqimizning urushdan so'nggi davr yaratuvchilik mehnati, "Quyosh qoraymas" (1958) romanida ikkinchi Jahon urushida erishilgan g'alaba aks ettirilgan.

Adibning avtobiografik povesti "Bolalik" 1963-yilda yaratildi. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zidir.

Oybek iste'dodli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, davlat va jamoat arbobi, publitsist, tanqidchi va tarjimon. A.S.Pushkinning "Yevgeniy Onegin", Lermontovning "Maskarad" asarini, antik-rim adabiyoti namunalarini, arman eposi "Sosunli Dovud"ni Oybek tarjimasida o'qishga muyassar bo'lganmiz.

Oybek 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolligiga saylandi va 1950-yilgacha Akademiyada ijtimoiy fanlar bo'limining raisi lavozimida ishladi.

Ulkan adib bir nechta orden va medallar bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori ham bo'lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Muso Toshmuhammad o'g'li — Oybek qachon tug'ilgan?
2. Oybekning bolalik va o'smirlilik yillari qanday kechgan?
3. Oybekning qanday asarlarini bilasiz?
4. Oybekning "Na'matak" she'rini yod oling.

G'AFUR G'ULOM

(1903-1966)

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G'afur G'ulom 1903- yil 10- mayda Toshkent shahrining Qo'rg'on-tegi mahallasida mehnatkash oilada tug'ildi. To'qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. U Oktabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923-yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng "Kambag'al dehqon", "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" ro'znoma muharririyatlarida ishlagan. Unga ro'znoma (gazeta)lar xalq hayotini o'rganish, unga faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'lgan.

30-yillar G'afur G'ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori "Netay", "Yodgor", "Tirilgan murda" kabi qissalarini ham o'z kitobxoniga taqdim etdi.

G'afur G'ulomning Ikkinchi Jahon urushi yillarida yozilgan she'rlari "Sharqdan kelayotirman" nomli to'plamida jamlangan. G'afur G'ulom bir nechta orden va medallar bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (1943) edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O'zbekiston Xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoirning ko'pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan.

O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, ulkan so'z san'atkori G'afur G'ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo'shgan adibdir. Adib 1966- yilda vafot etdi.

Savol va topshiriqlar

1. G'afur G'ulom qaysi asrga mansub shoir?
2. G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'rida shoir shaxsi, yetimlik yillari qanday aks etgan?
3. Shoirning hayoti va ijodi haqida hikoya qiling.

ABDULLA QAHHOR

(1907-1968)

O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abdulla Qahhor 1907- yili Qo'qon shahrida temirchi oilasida dunyoga keldi. O'rta ma'lumotni Qo'qonda olgan Abdulla 1925- yil Toshkentga kelib, "Qizil O'zbekiston" ro'znomasida ishlaydi.

U O'rta Osiyo Davlat dorilfununining pedagogika fakultetida (1930) tahsil oldi. Abdulla Qahhor O'zbekiston Yozuvchilari Uyushmasi raisi, O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir lavozimlarida ishladi (1954-1956).

Abdulla Qahhorning ijodi 1924- yildan boshlangan. Dastlab, "Mushtum" oynomasida, "Yangi Farg'ona" va "Qizil O'zbekiston" ro'znomalarida uning hikoya, felyeton, xabarlarini bosildi. Yozuvchining "Olam yasharadi" nomli birinchi hikoyalar to'plami 1938- yilda chop qilindi. 30-yillarda adibning "Hikoyalar" to'plamlari (1935, 1938, 1939) kitoblar qo'lga tegdi. Bu davrida Abdulla Qahhor kichik hikoyalardan tashqari "Sarob" (1935) romanini yozdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari chop etildi. "Asror bobo", "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar" hikoyalari va "Oltin yulduz" kabi qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan.

Yozuvchining "Sinchalak" (1958), "Muhabbat" (1968), "O'tmishdan ertaklar" (1965) qissalari o'zbek prozasining taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. U "O'tmishdan ertaklar" qissasi uchun Oybek ("Bolalik"), N.Safarov ("Ko'rgan-kechirganlarim") kabi adiblarning avtobiografik qissalari qatorida Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun O'zbekiston Xalq yozuvchisi unvoni, ko'pgina orden va medallar bilan taqdirlandi. So'z ustasi Abdulla Qahhor 1968- yil 25- mayda 61 yoshida vafot etdi.

Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Qahhor qayerda tavallud topgan?
2. A.Qahhorning ilk ijodi qachon boshlangan?

3. A.Qahhorning o'zbek hikoyachiligidagi o'rni qanday?
4. A.Qahhorning "Bemor", "O'g'ri" hikoyalarining g'oyaviy mazmunini so'zlab bering.

HAMID OLIMJON

(1909-1944)

Shodlik va baxt kuychisi, iste'dodli shoir, dramaturg, olim, davlat va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909- yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Narimonov nomidagi boshlang'ich maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923-1926), O'zbek Pedakademiyasida (1926-1931) o'qidi.

Hamid Olimjonning "Ko'klam" nomli ilk she'riy to'plami 1929- yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng "Olov sochlar" (1931), "O'lim yovga" (1932), "Poyga" (1932) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi (1943) Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo'yicha qator ilmiy-tanqidiy asarlar yaratdi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining ajoyib durdona asari "Alpomish" dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib, so'zboshi bilan (1938) chop etildi. U Alisher Navoiyning 500 yilligini o'tkazish yubileyi qo'mitasining a'zosi sifatida ulug' shoir hayoti va ijodi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

Hamid Olimjon 1939- yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasiga rahbarlik qildi.

Hamid Olimjon o'zining "Daryo kechasi" (1936), "Chirchiq sohillarida" (1937), "O'lka" (1939), "Baxt" (1940) to'plamlari, "Ikki qizning hikoyasi" (1935-1937), "Oygul bilan Baxtiyor" (1937), "Zaynab va Omon" (1938), "Semurg'" (1939) dostonlari bilan novator shoir sifatida davrining ilg'or g'oyalarini tarannum etdi.

Ikkinchi Jahon urushining olovli yillarida uning "Muqanna" nomli she'riy dramasi yaratildiki, u hanuzgacha dramaturgiyamizning gultoji bo'lib kelayotir. Uning "Jinoyat" dramasi zamonaviy mavzuda yozilgan. Bu davrda uning bir necha she'riy to'plamlari bilan bir qatorda "Jangchi Tursun", "Roksananing ko'z yoshlari" kabi qator balladalari ham yaratildi.

Iste'dodli shoir Hamid Olimjonning ko'pchilik asarlari qardosh xalqlar va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shoir 1944- yilda vafot etgan. Uning nomi abadiylashtirilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Hamid Olimjon qanday oilada tarbiya topgan?
2. Nega H.Olimjonni baxt va bahor kuychisi deyishadi?
3. Hamid Olimjonning Zulfiya ijodiga ta'siri qanday bo'lgan?
4. Shoirning "O'rik gullaganda" she'rini yod o'ling.

SHAROF RASHIDOV

(1917-1983)

Adib, yirik davlat arbobi Sharof Rashidov 1917-yilning 6-noyabrida Jizzaxda dehqon oilasida tavallud topgan. Narimonov nomidagi maktabda tahsil ko'rgan. 1934-yilda Jizzaxdagi pedagogika texnikumini, 1941-yilda Samarqand universitetini tugatadi. 1941-1942-yillarda Ikkinchi Jahon urushida qatnashadi. Frontdan qaytgach, 1944- yildan boshlab rahbarlik ishlariga o'tadi.

Uning ijodi, asosan, 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, dastlab she'riyatda qalam tebratgan. Uning birinchi she'riy to'plami "Samarqand kuylari" nomi bilan bosilgan. So'ng esa "O'lkam", "Orzuimiz" (1939) kabi she'rlari chop etilgan.

Sharof Rashidov maqolanavis-publitsistlikdan kamolga yetgan adib darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham uning badiiy ijodi namunalarida bu ruh yetakchi o'rinni egallaydi. Adibning katta nasr namunalari bo'lgan "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli", "Qudratli to'liqin" romanlarida Ikkinchi Jahon urushidan keyingi O'zbekiston xalqining tiklanish yillaridagi mehnat jasoratlari badiiy ifodasini topgan.

Ijodkorning "Kashmir qo'shig'i", "Komde va Mudan" kabi lirik qissalari an'anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo'lib, yoshlik, bahor, go'zallik, hayot nashidasi madhiga bag'ishlangandir. Adib hayotining so'nggi yillarida yaratgan "Dil amri" qissasi urush yillarida Belorus zaminida kechgan jang manzaralari, turli millat jangchilarining g'alaba yo'lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag'ishlangan.

Ko'pgina orden va medallar sovrindori Sharof Rashidov 1983-yilning kuzida vafot etgan.

Savol va topshiriqlar

1. Sharof Rashidov qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Bolalik yillari qanday kechgan?
3. Sh.Rashidov davlat rahbari, ijodkor shaxs sifatida qanday edi?
4. Yozuvchining romanlarida nimalar aks etgan?

SAID AHMAD

(1920)

O'zbek adabiyotining yetakchi nosirlaridan biri Said Ahmad Husanxo'jayev 1920- yili Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Shu yerda o'rta maktabni (1939) bitirib, Oliy o'quv yurtida (1940-1941) ta'lim olgan. Said Ahmad dastlab "Mushtum" oynomasida, Radio qo'mitasida (1942-1943), "Qizil O'zbekiston" ro'znomasi (1943-1947), "Sharq yulduzi" oynomasi (1948-1950)da va so'nggi yillarda u O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi qoshidagi nasr bo'limiga boshchilik qildi. Uning birinchi hikoyalar to'plami "Tortiq" 1940- yilda nashr etildi.

Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozdi: "Er yurak" (1942), "Farg'ona hikoyalari" (1948), "Muhabbat" (1949) kabi to'plamlari nashr etildi.

Adibning hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning bayondagi lakonizmi (qisqa va aniqlik) mujassamdir.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. U hikoyalarida tasvirlaydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy usullarning xilma-xilligiga erishishga intildi. "Cho'l burguti", "O'rik domla", "Lochin", "Odam va bo'ri", "Bo'ston", "To'y boshi" kabi qator asarlari Said Ahmad ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'ldi. Adib hikoyalarining bosh qahramoni ichki dunyosi boy va pok bo'lgan zamondoshlarimizdir. Muallif "Tog' afsonasi", "Zumrad", "Muhabbatning tug'ilishi", "Ko'zlaringda o't bor edi", "Poyqadam", "Alla", "Iqbol chiroqlari" asarlarida hayotiy xarakterlar yaratdi.

Said Ahmad hajviy hikoyalarida taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi, yangicha ma'naviy-axloqiy masalalarni o'rta qo'yadi. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniyesida quvnoq miniatyuralar teatriga asos solgan.

Said Ahmad hikoyalaridan asta-sekin yirik polotnolar yaratishga o'tdi. 1949- yilda chop etilgan "Qadrdon dalalar" va "Hukm" (1958) qissalari shular jumlasidandir.

"Ufq" romani (1964) trilogiya bo'lib, yozuvchi unda urushdan oldingi va undan keyingi davr hayotiy muammolari haqida bahs yuritadi. Y o'zining "Jimjitlik" (1988) romanida esa turg'unlik davri illatlarini fosh etishga intildi. Said Ahmad to'lqin hissiyotli yozuvchi. U tasvir ichiga kulgi sochishni jondan sevadi. U kitobxonlarni yayratib kuldirmaguncha yozayotganidan ko'ngli to'lmay turadi.

Said Ahmad mohir dramaturg sifatida ham tanildi. Uning "Kelinlar qo'zg'oloni", "Kuyov" kabi sahna asarlari shular jumlasidandir. 1980- yilda Said Ahmadning 3 jildlik "Saylanma" asarlari chop etildi.

Said Ahmad ham qatag'onlik zulmining ikkinchi to'lqiniga duchor bo'lgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir. O'z talanti va ona xalqiga sadoqat, katta ishonch adibni so'z san'atkori darajasiga yetkazgan.

O'zbek prozasining shoiri Said Ahmad o'zining quvnoq, orombaxsh hikoyalari va salmoqli romanlari bilan o'zbek prozasi pivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan ilg'or yozuvchidir. U O'zbekiston Xalq yozuvchisi, Hamza mukofoti sovrindori. 1999- yilda esa "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Said Ahmad qachon tavallud topgan?
2. Said Ahmadning yozuvchilik mahoratiga xos xususiyatlar nimada?
3. Said Ahmadni nima uchun o'zbek prozasi (nosiri)ning shoiri, deb yuritiladi?
4. Said Ahmadning sahna asarlaridan qaysilarini bilasiz?
5. Said Ahmadga qachon va nima uchun "Mehnat Qahramoni" unvoni berildi?

ODIL YOQUBOV

(1926)

Odil Yoqubov Qozog'iston Respublikasi Chimgent viloyati Turkiston tumanining Qarnoq qishlog'ida xizmatchi oilasida 1926-yili tug'ildi. 1944-yilda o'rta maktabni tugatib, 1945–1950-yillarda sobiq Qizil Armiya safida xizmat qildi. 1951–1956-yillarda u O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiydi. 1955–1959-yillarda O'zbekiston yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, "Literaturnaya gaseta"sining (1959–1963, 1967–1970) respublikamizdagi maxsus muxbiri, "O'zbekfilm" kinostudiyasida va Respublika kinematografiyasi qo'mitasida bosh muharrir, "G'afur G'ulom" nashriyatida bosh muharrir o'rinbosari (1970-1982) bo'lib ishladi. So'ngra "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining bosh muharriri (1982-1989) bo'lib xizmat etdi. Bir necha yil u O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining raisi bo'ldi.

Odil Yoqubovning birinchi yirik asari — "Tengdoshlar" povesti 1956-yilda bosilib chiqdi. Uning "Chin muhabbat", "Aytsam tilim, aytmam dillim kuyadi" (1958) kabi komediyalari Hamza nomidagi o'zbek akademik drama teatri sahnasida qo'yildi.

1956-yilda "Ikki muhabbat" nomli nasriy asarlar to'plami nashr etildi. Keyin birin-ketin "Bir felyeton" qissasi (1961), "Muqaddas" (1963), "Qanot juft bo'ladi" (1969), "Billur

qandillar" (1975) kabi qissalari chop etildi. Odil Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa" (1969) nomli romani Ikkinchi Jahon urushi yillaridagi voqealikni aks ettiradi.

Yozuvchi keyingi yillarda yaratgan "Ulug'bek xazinasini" romanida (1974) ulug' o'zbek astronomi Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatib, progressiv va reaksiyon kuchlar orasidagi kurashlarni tasvirlaydi. Romanda Ulug'bekning iste'dodli shogirdi, mashhur olim Ali Qushchining ham ulug'vor obrazi yaratilgan.

Boshqa bir yirik asari — "Ko'hna dunyo" romanida O'rta Osiyoning ikki buyuk allomasi Beruniy va Abu Ali ibn Sino hayoti va fojiali taqdiri qalanga olinadi. Ularning jahon ilmfani taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini umumlashtirishga intiladi. Shuningdek, Odil Yoqubov zamonaviy mavzularda ham "Diyonat" (1973), "Oqqushlar, oppoq qushlar" (1988) kabi yirik polotnolar yaratdi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi (1985) Odil Yoqubov ko'pgina orden va medallar bilan taqdirlangan. "Ulug'bek xazinasini" romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Odil Yoqubovning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni qanday?
2. O.Yoqubovning ilk ijod davri qaysi yillarga to'g'ri keladi?
3. O.Yoqubovning studentlar hayotidan hikoya qiluvchi asari qaysi?
4. Yozuvchining "Ulug'bek xazinasini" romanidagi Ulug'bek shaxsiyatini izohlang.

ERKIN VOHIDOV

(1936)

Hozirgi davr o'zbek she'riyatining porloq yulduzlaridan biri iste'dodli shoir Erkin Vohidovdir. U 1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida dunyoga kelgan. Erkin Vohidovlar oilasi 1945-yilda

Toshkentga ko'chib kelgach, bo'lg'usi shoir shu yerda o'rta ma'lumot oladi. 1960-yilga kelib, u Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatadi, so'ngra turli nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Avval "Yosh gvardiya" nashriyotida (1960-1963, 1975-1982), so'ng "G'afur G'ulom" nashriyotida (1963-1970) bosh muharrir, direktor bo'lib ishlaydi.

Uning birinchi she'riy to'plami 1961-yilda "Tong nafasi" nomi bilan bosilib chiqqan edi. Shundan buyon shoirning o'ttizdan ortiq she'riy majmualari o'z o'quvchisiga yetib borgan. Jumladan, shoirning "Qo'shiqlarim sizga" (1962), "Yurak va aql" (1963), "Mening yulduzim" (1964), "Nido" (1963), "Lirika" (1965), "Palatkada yosilgan doston" (1967), "Yoshlik devoni" (1969), "Charog'bon" (1970), "Dostonlar" (1973), "Hozirgi yoshlar" (1971), "Muhabbat", "Tirik sayyoralar" (1980) kabi she'riy guldastalari va dostonlaridir.

Erkin Vohidov bir qator ajoyib dramatik dostonlar miallifi sifatida ham ma'lum va mashhurdir, xususan, uning "Ruhlar isyoni", "Istambul fojiasi" kabi dostonlari o'zining badiiy barkamolliigi, o'tkir dramatik xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Ayni chog'da u mohir dramaturg hamdir. Uning "Oltin devor" asari ko'p yillardan buyon Hamza nomli teatr sahnasidan tushmay kelishi ham shundadir.

Erkin Vohidov otashin publitsist va adabiyotshunos sifatida ham samarali ijod qilib kelmoqda. Uning "Shoir-u, she'r-u, shuur" kitobi shundan dalolat beradi. Shu bilan birga u mohir tarjimon sifatida S.Yesenin, L.Ukrainka, M.Svetlov, A.Blok, R.Hamzatov, S.Kaputikyan kabi iste'dodli shoirlarning she'rlarini o'z ona tilida so'zлата oldi. Uning tarjima sohasidagi mahorati buyuk nemis shoiri Gyotening "Faust" asari tarjimasida (1974) yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Adabiyot oldidagi ana shu xizmatlari uchun u O'zbekiston Respublikasi Xalq shoiri, Hamza mukofoti sovrindori bo'ldi.

Erkin Vohidov hozirda 1999- yilda "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

ERKIN VOHIDOV

O'ZBEGIM

(Qasida)

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim!
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim!
Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Forob avlodidan,
Asli nasli balki O'zliq,
Balki Tarxon, o'zbekim!
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk –
Qo'ydi narvon, o'zbekim!
Mir Alisher na'rasiga
Aks sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shoh-u silton, o'zbekim!
Menga Pushkin bir jahon-u,
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim!
Qayga bormay boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk.
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim!
Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, gabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim!

(1968).

Savol va topshiriqlar

1. Erkin Vohidovning o'zbek she'riyatida tutgan o'rni qanday?
2. Menga Pushkin bir jahon-u,
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim!
satrlaridagi ma'no nozikliklarini sharhlang.
3. E.Vohidovning "O'zbekim" she'rini yod oling.

ABDULLA ORIPOV

(1941)

Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dehqon oilasida 1941-yili dunyoga keldi. Abdulla o'rta maktabni 1958-yili oltin medal bilan tugatgach, O'rta Osiyo Davlat universiteti jurnalistika bo'limiga kirib, uni 1963-yili muvaffaqiyatli bitirib chiqdi.

1963-yildan buyon turli nashriyotlarda muharrirlik, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, Mualliflar huquqini himoya qilish idorasining rahbari vazifalarida xizmat qilib keldi.

A.Oripovning talabalik yillarida yaratilgan she'rlari Respublikamiz vaqtli matbuotida bosilib chiqdi. 1965-yili birinchi she'rlar to'plami "Mitti yulduz" chop etildi, shundan buyon shoirning "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotirota" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Hayrat" (1979), "Hakim va ajal" (1980), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni" (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, unda shoirning she'rdan-she'rga, to'plamdan-to'plamga, yildan-yilga o'sib, ijodi barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, 60-yillardan keyingi asarlarida hayot va odamlar haqidagi, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarining tobora chuqur tus olayotganligi seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg'ular bilan badiiy talqin bir-biriga uyg'unlashib boradi. Bu bora-bora teran fikrlash bilan yuksak badiiylilikning omuxtasiga aylanadi, shoirning kamolotidan darak beradi.

Abdulla Oripov she'riyatining hozirgi bosqichi yana ham o'zgacha, ma'naviy-badiiy jihatdan yuksaklikka ko'tarilmoqda. U mustaqil O'zbekiston madhiyasining muallifi hamdir.

Abdulla Oripov iste'dodli shoir bo'lganidek, iste'dodli tarjimon hamdir. U Dantening "Ilohiy komediya" asarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'girdi. Abdulla Oripov Nekrasov, L.Ukrainka, T.Shevchenko asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan.

Ijodkorning she'riy majmualari rus va boshqa qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan.

Abdulla Oripov O'zbekiston Xalq shoiri (1989), Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining sovrindoridir. Davlat va xalq oldidagi xizmatlari uchun Abdulla Oripov 1998- yilda "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

ABDULLA ORIPOV

O'ZBEKISTON

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor,
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!

Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika - sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo.
Hammasiga guvoh - yer osti.
Lekin do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar rosti.

Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dynybo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!

* * *

Bobolardan so'zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyak:
Buyuklarga baxsh etgan dahol,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin
O'zi yemay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!

Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Oripov qayerda tavallud topgan?
- 2. Abdulla Oripovni turkiy xalqlar, xususan, o'zbek she'riyatining faxri deyish mumkinmi, nima uchun?
3. Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ildi ilk bor,
Ko'ragoniy jadvallarida.
A.Oripovning "O'zbekiston" she'ridan olingan mazkur parchada bobolarimizning qaysi birlarining buyuklik dahosi haqida fikr yuritilmoqda?
4. Shoirning "O'zbekiston" she'rining badiiy xususiyatlarini sharhlang.

O'TKIR HOSHIMOV

(1941)

Talantli yozuvchi O'tkir Hoshimov 1941-yili Toshkentda ishchi oilasida tug'ildi. U o'rta maktabni bitirgach, 1959–1964-yillar Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida ta'lim oldi. O'tkir Hoshimov "Toshkent haqiqati", "Sovet O'zbekistoni", 1966-yildan "Toshkent oqshomi" gazetasi muharririyatida bo'lim mudiri, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot

va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishladi. Hozirgi kunda "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriridir.

O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshlagan. Uning birinchi ocherklar to'plami 1962-yilda "Po'lat chavandoz" nomi bilan nashr etildi. So'ngra "Cho'l havosi" (1963), "Odamlar nima derkin?..", "Shamol esaveradi", "Bahor qaytmaydi" (1970), "Qalbingga quloq sol" (1973), "Uzun kechalar" (1975), "Nimadir bo'ldi" (1976), "Quyosh tarozisi" (1980), "Dunyoning ishlari" (1982) hikoya va qissalar to'plamlari hamda "Nur borki, soya bor" (1979), "Ikki eshik orasi" (1985) romanlari bosilib chiqdi. Uning "Uyqudagi tushlar" romani "Sharq yulduzi" jurnalida bosildi. Unda shaxsga sig'inish va qatag'onlik davri illatlari haqida hikoya qilinadi. 1974-yili esa "Birovning tashvishi" nomli psixologik dramasi sahnalashtirildi. Bundan tashqari, O'tkir Hoshimov O'rta Osiyo Respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan "To'ylar muborak", "Sizdag yugina, bizdan bugina" kabi pyesalarning muallifidir.

O'tkir Hoshimov E.Xemingvay, K.Simonov, A.Kiprin, O.Bergols singari yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan

Asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Ijodkor 80-yillar publiksistikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adiblardan biridir. Uning odob-axloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko'rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi (1991) O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi uchun Oybek nomidagi (1982) hamda "Ikki eshik orasi" romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga (1986) sazovor bo'lgan.

Savol va topshiriqlar

1. O'tkir Hoshimov qayerda tug'ilgan?
2. Yozuvchining ijodiy faoliyati qachon boshlangan?

3. O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi", "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi" romanlari nomlaridagi ramziy ma'nolarni qanday tushunasiz?

4. O. Hoshimovga shuhrat keltirgan asarlarini nomma-nom keltiring.

AZIM SUYUN

(1948)

Azim Suyun (Azim Alimovich Suyunov) 1948-yilda Samarqand viloyatiga qarashli Nakurt qishlog'ida tug'ilgan. 1977-yilda Toshkent Davlat universitetini tamomlagan.

Azim Suyun o'zining mehnat faoliyatini oddiy ishchilikdan boshladi. Harbiy xizmat burchini o'tab qaytgach, Toshkent shahri qurilishlarida mehnat qildi. Keyinchalik "Toshkent universiteti" gazetasida adabiy xodim, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir bo'lib ishladi. O'zbekiston Matbuot Davlat qo'mitasida adabiy maslahatchi, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasida mas'ul kotib, "Xato so'zi" gazetasida bo'lim muharriri vazifasida xizmat qildi. Ayni paytda "O'zbekiston ovozi" va "Golos Uzbekistana" gazetalarining bosh muharriridir.

Azim Suyun O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi va O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. Butunjahon shoirlar Kongressi a'zosisidir.

Azim Suyun she'rlari, she'riy turkumlari va kitoblari turk, ingliz, rus, qosoq, tojik, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, tuva va boshqa tillarda chop etilgan.

Azim Suyunning o'zbek tilida nashr etilgan to'plamlari: "Mening osmonim" (1978), "Zarb" (1979), "Zamin taqdiri" (1981), "Xayolot" (1984), "Ziyo yo'li" (1986), "Javzo" (1987), "Olis tonglar" (1989), "Kuyganim – suyganim" (1992), "Qora ko'zing sening" (1994), "Sarbadorlar" (1994), "Saylanma" (1997), "O'zlik" (1999) va boshqalar.

Azim Suyun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlangan. Shunindek, u Turkiya Yozuvchilari Birligining diplomi bilan ham mukofotlangan.

AZIM SUYUN

KUZ

1

Salqin tushib qoldi tog'lar bag'riga,
Vazmin ko'tarilar daradan tumon.
El-yurt ko'chib endi tog' etagiga,
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroq,
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,
Ufq'larga singib ketar oxlri...

2

Nurota tog'larin quchog'lda kuz
Ancha qisqa bo'lar va lekin go'zal.
Men uning qo'ynida kezaman yolg'iz,
Har qanday fasldan kuz menga afzal.
Ammo siz o'ylamang: jo'shqin va qaynoq
Jabhalardan qochib u yurar sarson.
Xilvat ungurlarda daydir begumon,
Ona yurt, xalqining tashvishi yiroq.

3

Bunday gumonlarga borsangiz, tayin,
Kechira olmasman bir umr sizni.
Ko'rganmisiz halol mehnat qilmayin
Burda non sindirgan asl o'zbekni?!
Yo ayri tushganmi o'z zamonidan
Qoyadan parcha tosh uchganl misol.
Robinson qismati bu xalqqa inalol
Otasga sig'ingan olis onidan.

4

Men shu xalq farzandi, bazmi, to'yida
Qamishdan bel bog'lab xizmat qilgum soz,
O, xalqim to'ylari, jonim ko'yingda...
Ko'pkari urrosi yodga tushdi boz-
Bobolarning o'tli yuragi, qoni,
Shu shonli maydonda bo'lur namoyon.
Hey, bo'm-bo'sh qolmasin bu qadim maydon,
Tanti chavandozlar, gurkirang, qani!

5

Lekin aza yo'q deb kim ayta olar
 To'ylar gurillagan ulug' maydonda.
 Beshafqat ajal goh changalin solar,
 Aziz do'stni olib ketar bir onda.
 Azador g'amiga bo'laman sherik,
 Dardiga darddoshman hayot shomlari,
 Faxriya bitganday u to'y damlari,
 Marsiya bitaman g'amgin va o'ksik.

6

Mehnat esa menga hamisha hamdam,
 Inson uchun burch u bizning zamonda.
 Erkin, ozod sehri qadam-baqadam
 Jonga singib borar dorilamonda.
 Agar kimga buyuk maqsad bo'lsa yor,
 Kimda orzu bo'lsa ezgu, bepoyon,
 Unga qanot berar muborak Vatan,
 Kim bizning saflarda bo'lsa barqaror.

7

Ammo kuz tog'larga yoyganda sepin,
 Bag'riga chiqmoqqa topaman imkon!
 Sertashvish mehnatlar yukidan keyin,
 Bag'ishlar ruhga u lazizat va darmon.
 Uzun xayollarga qilur zanjirband,
 Yurakda qo'zg'atar ajib tuyg'ular.
 Nomini tutqazmas qalamga ular,
 Har qanday jarangdor so'zlardan baland.

8 .

Tog' qizlarin ibo, nazokatlarlari,
 Kuzning ruxsorida bo'ladi zohir.
 Joningni oladir latofatlari,
 Goh ular hikmatli, gohida sohir.
 Goho keksalarning o'ychan va munis
 Qarashlarin birdan tushirar yodga...
 Davrada tikilib turganday o'tga,
 Qalblarin yondirib allaqanday his.

9

G'azabin bemavrid to'kuvchi g'addor,
 Yoki asablari noziklar, hay-hay,

Ishongum, tog' kuzin, kuzatsa bir bor,
O'zgalar qalbiga g'ashlik solmagay.
Yoki ruhi injiq, yo takabbur zot,
Uning lavhalarin uqsaydi, qani,
Umridan ajratib olardi ma'ni,
Bilsaydi qanchalar tabib tabiat.

10

Garchi kuz chehrasi emas serkulgu,
Garchi ko'p erkalab kuylamas shodon,
Goh dilda titroq mung uyg'otsa ham u,
Dilgir sukutlarga ko'msa ham, inon,
U sobir rejalar doyasi erur,
Donishmand otaday oladi qo'lga
Va boshlab yuborar muqaddas yo'lga,
Qarshingda manzillar raxshon ko'rinur.

11

O kuz, sening turlik ko'rinishlaring
Men uchun suyumli va aziz biram.
Oqshom cho'kkandagi urinishlaring,
Tonggi shafaqlaring sirli va teran.
Firuza soylarning qirg'oqlarida
Xazondan bexabar yashil maysalar...
Menchalik sevmagay o'zga kimsalar,
Umrning sermas'ul bu chog'larida.

12

Erta saharlar, hey, salqin saharlar,
Chashma yellariday sarin va latif,
Sayyod shoshib o'tar bunday saharlar,
Hayolida semiz o'ljasin tutib.
Yilqi uyurlari quloqlarini
Ding qilib sharpaga tikilib turar.
So'ng birdan o'zlarin daraga urar
Qoldirib xazonrez o'tloqlarini.

13

Tog'da tunab ketmoq kuz payti maza,
Sheriklar bo'lsa gar davra qurllar,
O'rtada quruq shox yonar charsillab,
Tun zulmati bundan nari surilar.

Omonat o'choqda sho'rva qaynaydi,
Rivoyat boshlanur tog'lar haqinda
Va yo o'tmish – olis chog'lar haqinda
Qaydadir ukki qush bo'g'iq sayraydi.

14

Havo aynib turar tog'larda tez-tez,
Goho u badqovoq, goh o'yga cho'mar.
Goho bulut toshib kelar va shu kez
Qo'ng'ir tog' o'rmonin yomg'irga ko'mar.
Tag'in ko'p o'tmayin serto'lqin osmon
Oqarib yorishar – nim boqar oftob.
Xush islar dimoqqa urilar shitob,
Bu islarga to'yib bo'lmas hech qachon.

15

Lekin kunlar chumchuq galasi kabi
Qo'nim nima bilmay yengil uchishar.
Qorayib boradi buloqlar labi,
Yo'llar uzra bazo'r izlaring tushar.
Tonglar tevarakda shabnamlar bo'liq,
Alqorlar junjikib chiqar qoyaga,
G'alati tikilar quyuq soyaga –
Sezgaylar: kuz va'da etmaydi issiq.

16

Hech narsaga parvo qllmayin, faqat
Mangu yashillikda yashnar archazor.
Uni qiziqtirmas go'yo bu fursat,
Go'yo bu xilqatda birgina bahor.
Yoyilib yetgandir cho'qqigacha to -
Qaqshagan toshlarni chiqishgan yorib.
Hatto bu tog'larning sovug'i, qori,
Yashil libosidan qilolmas judo.

17

Oh, sir-u asrorim – kuz, sendan mudom
Xushbaxtman! Naqadar sevaman seni!!!
Tezda qish ayozin olib kelsang ham,
Uning muz bag'riga otsang ham meni.
Umrim mehmonligi fikrimdan yiroq,
Sening nash'alaring simirib, to'yib,

Kuylagim keladi goh jim, goh to'lib
Va sarkash ilhom ham kuttirmas uzoq...

18

Salqin tushib qoldi tog'lar bag'riga,
Vazmin ko'tarilar daradan tumon.
El-yurt ko'chib endi tog' etagiga,
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroq,
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,
Ufqlarga singib ketar oxiri...

Savol va topshiriqlar

1. Azim Suyunning ijodiy faoliyati qachon boshlangan?
2. Shoirning bolalik va o'smirlik yillari qanday kechgan?
3. Shoirning "Tog'larda kuz" she'rida kuz manzarasi qanday aks ettirilgan?
4. Oh, sir-u asrorim – kuz, sendan mudom
Xushbaxtman! Naqadar sevaman seni!!!
Tezda qish ayozin olib kelsang ham,
Uning muz bag'riga otsang ham meni...
satrlaridagi badiiy jozibaning sehri nimada?
5. "Tog'larda kuz" she'rining bir qismini yod oling.

HAYDAR MUHAMMAD

(1936)

Haydar Muhammad 1936- yil 1- aprelda Toshkentda tavallud topdi. Oliy ma'lumotni Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Instituti (hozirda universitet) da tahsil olgan.

Taniqli shoir va dramaturg Haydar Muhammad ko'p yillardan beri yuzlab qo'shiqlari va qator sahna asarlari bilan san'at va adabiyotimizga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Uning sahna asarlaridan "Ipak gilamlar", Navoiy bir kuni". Respublika bir pardali pyesalar tanlovi g'olibi bo'lgan. "Turkiston umumiy uyimiz" mustaqillik ssenariysi O'zbekiston Madaniyat vazirligi tanlovining g'olibi, deb topilgan. "Suv — obi-hayot" nashtarfilm ssenariysi ham tabiatni muhofaza qilish tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan. "Toshkentning nozanin malikasi" musiqali dramasi sobiq uttifoq tanlovida faxtiy Diplom bilan taqdirlangan.

"Yo'ling topsam" qo'shig'i Umumyevropa festivali g'olibi bo'lgan.

H.Muhammadning "Ko'nglim mening", "Yo'llaring mushtoqiman", "Oldhamning tug'ilgan kuni" she'riy to'plamlari chop etilgan. Yuzlab qo'shiqlari Toshkent, Moskva gramstudiylarida plastinka qilib chiqarilgan. O'zbekiston radiosining fonotekasida 250 ga yaqin qo'shiqlari oltin fondga saqlanadi va kundalik eshittirishlarda bir necha o'n yillardan beri muntazam eshittirib kelinmoqda. Uning nihoyatda ommalashib ketgan "Xatlarim yetmasmikan", "Yozgan xating qo'limda", "Samarqand", "Sevgi bahori", "Dilbarmisan", "Tomchillar", "Toshqabrlar" kabi qo'shiqlari chet ellarda ham mashhur. H.Muhammadning "Toshkentning nozanin malikasi", "Har kimki vafo qilsa", "Kuyovlar konkursi" (R.Azizxo'jayev bilan) musiqali dramalari Muqimiy teatrida, "Xotinlar "gap"idan chiqqan hangoma", "Jinoyat ustida ushlansin", "Sab'ai sayyor" (A.Navoiy dostoni asosida) dramatik asarlari Hamza nomli akademik teatrida, "Elyor botir" Namangan viloyati teatrida, "Ko'ngil – chinni piyola" Jizzax viloyat teatrida, "Sehrgar va ayyor" Surxondaryo viloyat teatrida, "Haziikash shoh" Qo'qon teatrlarida sahnalashtirilgan.

H.Muhammadning "Xotinlar "gap"idan chiqqan hangoma" komediyasi asosida "Temir erkak" filmi suratga olingan. "Borsa kelmas" hajviyasi asosida nashtarfilm yaratilgan. H.Muhammadning qator dramalari respublika teatrlaridan joy olib, Tojikiston, Qirg'iziston Davlat teatrlarida sahnalashtirilgan. "Hamza teatri 70 yil", "Melisa"dan Sohibqirongacha" degan teatrshunoslikka oid kitoblar chop ettirgan. H.Muhammad O'zbekiston radiosida, Madaniyat ishlari vazirligida mas'ul vazifalarda ishlagan. H.Muhammad 1984- yildan beri Hamza teatrida adabiy bo'lim rahbari bo'lib ishlab kelmoqda.

1996- yilda atoqli dramaturg Haydar Muhammad 60 yoshga to'ldi. Dramaturgning 60 yoshlik yubileyi keng nishonlandi. Respublikamizning turli joylaridagi teatrlarda dramaturg bilan uchrashuv kechalari, oliy o'quv yurti, kollej va litsey hamda maktablarda shoir bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

Haydar Muhammad bugungi kun o'zbek dramaturgiyasida o'z ovozi va o'z soziga ega bo'lgan ijodkor. Uning qo'shiqchi shoir sifatidagi iste'dodi elimizning dili va tilidadir.

HAYDAR MUHAMMAD

O'ZBEGIM XAZINASI

O'zbekim xazinasi sabr ila toqatdir,
Uning asl maslagi insonga sadoqatdir.

Bir mayizni qirq bo'lib, qirq do'stini to'ydirgan,
O'zbekimning mehridan bu qadim hikoyatdir.

Suv kelganda simirib, tosh kelganda kemirib,
Bardosh ila topgani ozodlik — saodatdir.

Ne-ne quvg'in elatlar joy topgandir bag'ridan,
Bag'ri ochiq, fe'li keng bir ajib jamoatdir.

Tikilsa tog'ni teshar, o'ylasa nuni eshar,
Ilm ila tafakkur bu yerda ijobatdir.

Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek-u Navoiy,
Amir Temur, Boburlar olamga salobatdir.

Faxr etarman o'zbekning farsandi bo'lganimdan,
Haydarga bu martaba Allohdan inoyatdir.

TO'RTLILIK

Deydilar, odamni alam yig'latadi,
Yolg'izlik, yetimlik va g'am yig'latadi.
Alam-u g'amlarni gunohkor etmang,
Aslida odamni odam yig'latadi.

Savol va topshiriqlar

1. Haydar Muhammad dramatik mahoratining siri nimada?
2. Haydar Muhammadning she'riy iqtidoriga qanday qaraysiz?
3. Yozuvchi asarlarida qahramonlar ruhiy holati qanday aks etgan?
4. Adibning ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni izohlang.

MA'RUF JALIL

(1936)

1936- yilning kuzida Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi Payshanba qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent Davlat dorilfununining Til va adabiyot bo'limini bitirgan.

She'rlari 1950- yildan ro'znoma va oynomalarda bosilib chiqa boshladi. "Men sizni sevardim" (1970), "Raxmat, odamlar" (1970), "Seni o'ylab" (1973), "Notanish yo'llar" (1975), "Qo'shiq ishtiyoqi" (1978), "Men suv ichgan daryolar" (1981), "Parizodim" (1984), "Daryoni izlar shamol" (1987), "Baxtinga sen borsan" (1989) kabi qator she'rlar to'plamlari, "Bunyodkor qalb", "Orol madad so'raydi" ocherklari nashr etilgan. 1993-yilda buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur haqida "Sohibqiron" she'riy-dramatik qissasi bosilib chiqdi.

U rus tilidan Angliya shoiri Kristofor Marloning ikki qismdan iborat "Buyuk Temur" she'riy fojiasini, Yavdot Ilyosovning "Sug'diyona" tarixiy romanini o'zbekchaga tarjima qilgan. Bundan tashqari, venger shoiri Shandor Pertofi, ukrain shoiri Lesya Ukrainka, rus shoiri Yevgeniy Yeutushenko va boshqalarning ko'p she'rlari Ma'ruf Jalil tarjimasida bosilib chiqqan.

Ma'ruf Jalil she'rlarida hayot va inson go'zalligi, vatan shon-sharafi, el-yurt taqdiri va tarixi, mehr-oqibat, insof va diyonat, halollik, vafo va sadoqat tuyg'ulari goh turli majozlar, ramzlar, goh tashbeh taqqoslar orqali ifodalanadi, ozodlik tarannum etiladi.

Hozirda O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasida mas'ul xodim sifatida faollik ko'rsatmoqda.

SEN MARD BO'LSANG...

Sen mard bo'lsang, dengizlarga tosh otma o'ynab,
Sen mard bo'lsang tupurmagin tog'lar betiga,
Sen mard bo'lsang, ranjitma hech, ranjitma yerni,
Hamma orzu-umidlarning onasidir u.

Sen mard bo'lsang, dushmanlarni do'stga aylantir,
Sen mard bo'lsang, ishonch tig'dir shubha o'rniga.

Inoq elni parokanda qilma dushmanday,
Sen mard bo'lsang, parokanda elni birlashtir!

Savol va topshiriqlar

1. Ma'ruf Jalil qayerda tug'ilgan?
2. Ilk ijodi qachon boshlangan?
3. "Sen mard bo'lsang" she'rida mardlik, matonat his-tuyg'ulari qay tarzda aks etgan?
4. She'rni yodlang.

NORMUROD NORQOBILOV

(1953)

Normurod Norqobilov 1953-yilda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida tug'ildi. 1982-yilda Toshkent Davlat universitetining jurnallistika fakultetini tugatgan.

Yozuvchining "Zangori ko'l"(1987), "Unutilgan qo'shiq"(1990) nomli hikoyalar to'plami hamda "Yuzmayuz" (1993) nomli qissalari chop etilgan.

Normurod Norqobilovning qissa va hikoyalari insonni avaylash, tabiatni, har bir jonivorni asrash kabi masalalar badiiy intihosiga yetgan. Uning hikoyalari O'tkir Hoshimov va Abdulla Orlpovlar tomonidan yuqori baholangan. Yozuvchining "Ro'molcha" hikoyasi taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov tomonidan o'zbek hikoyachiligining eng saralaridan, deb e'tirof etilgan.

Normurod Norqobilovning "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Oqbo'yin" qissasi qissachilligimizning so'nggi yutuqlaridan ekanligi iqtidorli munaqqid olimlar: Umarali Normatov, Abdug'ofur Rasulov va boshqalar tomonidan alohida ta'kidlangan.

Normurod Norqobilov ayni paytda O'zbekiston televideniyesi adabiy-badiiy ko'rsatuvlar tahririyatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Normurod Norqobilov asarlarida or-nomus, iymon-e'tiqod singari insoniy his-tuyg'ular qanday aks ettirilgan?

2. Yozuvchining "Ro'molcha" hikoyasida bola fe'l-atvori qay tarzda aks etgan?
3. N.Norqobilov asarlarining badiiy xususiyatlarini sharhlang.
4. Yozuvchi shaxsi va ijodiy faoliyati haqida hikoya qiling.

BAROT YARASHEV

Barot Yarash (Yarashev) 1952-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumaniga qarashli Harduri qishlog'ida tug'ildi. 1980-yilda Samarqand Davlat universitetining fulologiya fakultetini tugatgan.

1993-yilda Barot Yarashning "Dilchiroy" nomli she'rlar to'plami "Fan" nashriyotida chop etilgan.

Barot Yarash respublika gazeta va jurnallarida o'zining diltortar she'riyati bilan faol qatnashib kelayotgan umidli shoirlardan biri bo'lib, uning she'rlarida yangilanayotgan hayot tarzimiz, ona va ona-yurtga bo'lgan muhabbat, mustaqillikka erishgan vatan, uning baxtli kelajagi baland ruh bilan tarannum etiladi.

Barot Yarash ayni paytda yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko'rsatmoqda.

BAROT YARASH

IFTIXOR

Yurtim bugun nur o'ynaydi yo'llaringda,
Ozod qonun-qolda bor qo'llaringda.
Yo'lchi bo'lib yo'lga boshlar yo'riqnomang,
Baxt nafasi kezar o'ng-u so'llaringda.

O'z tamg'ang bor, o'z madhiyang, o'z bayrog'ing,
Kezdim, yo'qdir ona-yurtim hech adog'ing.
Temur bobom panoh bo'lgan mulking qo'lda,
Kengliklarni qamrar bugun ko'z-qarog'ing.

Dunyo bo'lib o'tayotgan karvoning bor,
Dunyo tinglar toj-u taxtli sarboning bor.
Ozodlikning tug', bayrog'i qo'llaringda,
Ona-yurtim yana qanday armoning bor?!

O'z qonuning kuchga kirgan kuning bugun,
Kunduzlarga aylangandir turing bugun.

Dunyo bo'ylab aylanadi ona-yurtim,
Bobolaring kiygan do'ppi, to'ning bugun.

Savol va topshiriqlar

1. Barot Yarash qayerda tavallud topgan?
2. Shoirning ilk ijodi qachon boshlangan?
3. Barot Yarashning "Ifixor" she'rida mustaqil yurtimiz, uning milliy istiqloli haqidagi o'y-kechinmalar qanday ifodalangan?
4. Temur bobom panoj bo'lgan mulking qo'lda,
Ona - yurtim yana qanday armoning bor?!
satrlarida yurtga bo'lgan muhabbat, uning bugungi istiqloldan faxrlanish his-tuyg'ulari qanday aks etgan?

Bilib qo'ygan yaxshi.

CHOY HAQIDA

Choy o'simligining asl vatani Janubiy-Sharqiy Osiyo hisoblanadi. Jumladan, Xitoy, Birma, Hindiston kabi mamlakatlardan choy asta-sekin dunyoning boshqa mamlakatlariga tarqalgan.

Xitoyda mavjud bo'lgan manbalarga qaraganda choyning shifobaxshligi eramizdan 2700 yil muqaddam ham ma'lum bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan III-IV asrlarda choyzor-plantatsiyalari tashkil qilingan. Dastavval choydan dorivor giyoh sifatida, asosan, "ko'ngil ochuvchi", bosh og'rig'ini forig' etuvchi, ko'zning ko'rish xususiyatini oshiruvchi omil sifatida foydalanilgan. Choyli bo'tqa bod va belangiga davo hisoblangan.

Choy o'z davrida juda qimmatbaho va noyob mahsulot sifatida qadrlangan, uni hoqonlar o'zlarining yaqin kishilariga, katta xizmatlari evaziga tortiq qilganlar. Ma'lumotlarga qaraganda, Xitoyda IV asrgacha choydan faqat badavlat va nufuzli kishilar shifobaxsh omil sifatida foydalangan bo'lib, X asrdan boshlab umumxalq iste'moliga kirib borgan.

Choy qadimiy qo'lyozmalarda "tou", "tse", "kxa", "chung", "ming" deb yuritilgan. Eramizning IV-V asrlarida choy o'simligining juda murg'ak barglaridan eng a'lo navli choylar tayyorlangan. Bu oliy navli choy "cha", ya'ni "murg'ak bargcha" deb atalgan.

Xitoycha "cha-i" so'zi tayyor quruq choy ma'nosini beradi. Hozirgi o'zbekcha "choy" so'zi mo'g'ulcha "tsay" so'zidan

olingan bo'lsa, ruscha talaffuzidagi "chay" so'zi portugalcha "chaa" so'zidan olingan. Shuningdek, "choy" so'zi arablarda "shay", Hindiston, Pokiston va Bangladeshda "chxay", qalmlarlarda "tsya", yaponlarda "tya", deb ataladi. Lotlncha choyning atamasi "tea", deb qabul qilingan. Hozirda fransuzlar choyln "te", inglizlar va yana bir qator Yevropa xalqlarl "ti" deb atashadi.

("Xosiyatli ichimliklar va sharbatlar" kitobidan).

TO'RA MIRZO

(1956)

Iste'dodli shoir va dramaturg To'ra Mirzo (To'ra Mirzo Jabborali Dadamirzo o'g'li) 1956-yilda Namangan viloyati, Chortoq tumanining Peshqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. O'ra maktabdan so'ng u 1979-yilda Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent San'at institutining teatrshunoslik bo'limini tugatgan. 1989-yilda esa Moskvadagi Oliy Adabiyot instituti dramaturgiya bo'limini bitirdi. So'ngra bir qator ijodiy idoralar, jurnal va gazetalarda faoliyat ko'rsatadi.

• To'ra Mirzoning ijodi 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, uning birinchi she'rlar to'plaml "Maysalar hayqirig'i" 1983-yilda chop etildi. Shundan so'ng uning bir qator she'riy majmualarl o'zbek, rus va turk tillarida bosiladi. Jumladan, "Go'ro'g'lining belanchagi", "Tonggi maktublar", "Kulgixona", "Amir Temur vasiyati" kitoblarl o'zbek tilida chiqdi. Shuningdek, uning "Dobriy znak", "Vozvrasheniye v Ferganu" (Moskvada) to'plamlarl rus tilida, "Bilga Tunokuk vasiyati" majmuasi va turkum she'rlarl esa Turkiyada nashr qilindi.

To'ra Mirzo iste'dodli shoir bo'lishi bilan birga, mohir dramaturg va yetuk tarjimon hamdir. Uning "Bekat", "Tonggi tramvay", "Poytaxt latifalarl", "Saratondagi izg'irin" kabi dramatik asarlarl bir necha bor yuksak sovrinlarga ega bo'lgan. Shuningdek, adibning "Qovrilgan o'rdak parvozi", "Muhabbatga o'q tekkan kun", "Ahmad ila Oqbilak" singarl dramalarl Respublika va viloyat teatrlarl sahnasidan munosib o'rin olgan. Hozirgi kunda esa uning "Amir Temur" dramasi Qashqadaryo viloyati teatrida sahnalashtirildi. Ayni chog'da shu asosda O'zbekiston

Respublikasi televideniyesida ikki qismli videofilm ham yaratilgan.

U mohir tarjimon sifatida Jon Gloyl Pristanlining "Xazina", Agata Kristining "Qopqon", Valeriy Shuljikning "Tegirmon tepasidagi quyosh", Aziz Nesinning "Yashasin sarg'ish pushti rang" kabi dramatik asarlarini o'zbekchallashtirgan.

To'ra Mirzo butun ijodi davomida boy tarixiy merosimiz, buyuk tarixiy shaxslar, ilmiy-madaniy yutuqlarimiz, milliy-ma'naviy boyligimizni e'zozlab kelmoqda.

To'ra Mirzo 1994-yil Turkiya Diyonat Vakfining maxsus mukofoti, 1995-yili esa ikkinchi mukofotini oldi.

Hozirgi kunda u O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi va Respublika Targ'ibot Markazining bosh direktori vazifasida faol ishlamoqda.

TO'RA MIRZO

O'QIB BERSANG NAVOIYDAN SHE'R

O'qib bersang Navoiydan she'r,
Tunda seni to'xtatmas mirshab.
Misralarda uyg'onar mehr,
Har bir bayti yo'llarga o'xshar.

Navoiyning so'zi ortidan
Otlanasan, otlanar yo'llar.
Qulamasang insof otidan,
Har qadamda Navoiy qo'llar.

Navoiyning har aytgan so'zi,
Birlashtirar beshta asrni.
Birlashtirar kecha-kunduzni
Olti qit'a, to'rtta faslni.

Navoiydan she'r o'qib bersang,
To'xtatmaydi chegarachilar.
Baytlar tomgan labingni bossang,
Bu tog'larga – toshlar ochilar.

Salom aytgin olam eliga
Navoiydan – o'qi she'rlarin.

Navoiyning har bir she'riga
Bog'lab qo'ysa bo'lar Yer sharin.

Savol va topshiriqlar

1. To'ra Mirzo she'riyatimizning qaysi avlodiga mansub ijodkor?
2. To'ra Mirzo dramalarida dramatik holatlar qanday aks etgan?
3. Shoirning "O'qib bersang Navoiydan she'r"ining badiiy xususiyatini sharhlang.
4. She'rni yod oling.

MUKARRAMA MUROD QIZI

(1947)

Mukarrama Murod qizi 1947-yilning 18-yanvarida Andijon shahrida o'qituvchilar oilasida tavallud topgan. Uning onasi Muazzamxonim riyoziyot muallimasi bo'lsa-da, badiiy adabiyotga e'tiqodi yuksak ziyoli edi. Muazzamxonim qizining qalamiga sinchkovlik bilan qarar va yosh shoiradan hamisha hayotiy asarlar yozishni talab etardi.

• Mukarramaning ilk she'ri "Onajon" 1959-yilning 6-martida viloyat gazetasida chop etilgandan so'ng o'tgan yillar davomida uning yozganlari respublikamiz va qardosh xalqlarning vaqtli nashrlarida e'lon qilingan. Shoiraning "Bahor boshlanibdi" (1972), "Seni kuylayman" (1974), "Gulshan" (1976), "Yorug' kun" (1978), "Yangi to'lqin" (1984), "Olovgul" (1986) she'riy to'plamlari nashr etilgan. Uning she'rlari qoraqalpoq, tojik, turkman va rus tillariga tarjima qilingan. 1983-yilda Moskvadagi "Molodaya gvardiya" nashriyotida "Svetnik" nomi bilan chop etilgan.

M.Murodova Andijon Davlat pedagogika institutini (1964-68), Nizomiy nomidagi TDPUda aspiranturani 1982-85-yilda bitirgan. Toshkent xalq xo'jaligi instituti kechki bo'limida (1985-89-yillar) tahsil ko'rgan. "Hamid Olimjon dostonlari tilining leksik xususiyatlari" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi M.Murodova Bo'z tumanidagi 2-o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyoti muallimasi, O'zbek Qomusi Bosh tahririyatida

ilmiy muharrir, "Xalq so'zi", "Milliy tiklanish" gazetalari tahririyatlarida bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. Ayni vaqtda boshqa vazifalarda ham o'rindoshlik yo'li bilan mehnat qilgan.

Mukarrama opaning bevosita rahbarligi ostida 400 nafardan ortiqroq yosh havaskor ijod sirlari bilan chuqur tanishib, shoir, adib, tarjimon, olim va jurnallstlar bo'lib, elga tanilishdi.

Ayni paytda shoira "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bo'lim mudiri vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

MUKARRAMA MURODOVA YANA YURTIMGA QAYTGIL MUHABBAT

Tabiat, bir kunlik husn ato et,
Bugun qarshisida o'tiray porlab,
Bugun jigar-bag'rin kelayin dog'lab,
Tabiat, bir kunlik husn ato et!

Nodir libosimni kiyay onajon,
Garchi shohilarga emasdim banda,
Bugun to'vusmisol tovlansin tanda,
Nodir libosimni kiyay onajon!

Muhabbat, bir kunlik qudrat ber menga,
To'yiga men o'zim bugun bo'lay bosh!
Ko'zimdan qatra ham to'kilmayin yosh,
Muhabbat, bir kunlik qudrat ber menga!

Savol va topshiriqlar

1. Mukarrama Murodova hayoti va ijodi haqida hikoya qiling.
2. Shoira shaxsi va she'riyatidagi sehr nimada?
3. Shoiraning jurnalist sifatidagi faoliyatini qanday baholaysiz?
4. M.Murodovaning ona, ona-yurt haqidagi she'rlarini yod oling.

TEZ AYTISHLAR

A

Ayiq asal yaladi,
Asalari taladi.

B

Bir tup tut, to'rt tup turp.

D

Dengiz tubsiz dedingizmi?
Tubsiz dengiz dedingizmi?

E

Erkin ertagi ekin ekishni ertaga boshlaydi.

H

Holi, Vali, Soli sholi oldi.

J

Jo'ja va jibljibon,
Juda jo'ra jonajon.

K

Ko'k choynakka oq qopqoq,
Oq choynakka ko'k qopqoq.

L

Lola arralaydi, Sora allalaydi.

M

Moshdan — tosh, toshdan mosh bo'lmas.

N

Nodir nonvoyxonadagi nonvoydan non oldimi?

O

Olma oldida olmaxon,
Olmaxonning oldida Olimaxon.

P

Pirpirak pirillaydi,
Pirildoq chirillaydi.

Q

Qopqoq qop yonida,
Qop qopqoq yonida.

S

Saodat soatini soatsozga sozlatdi.

T

To'ti tutgan to'rtta to'ti to'rda turibdi.

U

Uy yasaysizmi?
Osh oshaysizmi?

X

Xumsonlik rassom Asom
Isomning rasmini chizdi.

O'

O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

Sh

Shamol shovullab shovqin soldi,
Shalpangquloq qo'rqqanidan shataloq otib
qoldi.

Ch

Chumchuq chug'urchuqni cho'qimasa,
Chug'urchuq chumchuqni cho'qimaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Tez aytishlarni qanday tushunasiz?
2. Tez aytishning qanday turlarini bilasiz?
3. Tez aytish namunalarini keltiring.

MASHRAB BOBOYEV

(1941)

Mashrab Boboyev o'z tengdoshlari orasida ko'p qirrali ijod sohibi ekanligi bilan farqlanib turadi. U bir vaqtning o'zida kattalar va bolalar uchun she'r yozadi — shoir. Ayni paytda hikoyalar, qissalar muallifi — nosir. Yana sahna asarlari yozadi — dramaturg ham. U 1941-yili Samarqand viloyatining Poyariq tumanida oddiy dehqon, bog'bon oilasida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatgach, jamoa xo'jaligida avval traktorchi, keyin esa kutubxonachi bo'lib ishlaydi. 1958-1960-yillarda madaniy-oqartuv bilim yurtida, so'ng Toshkent Teatr va rassomchilik instituti kechki bo'limida tahsil ko'radi. Institutni tugatgach, Samarqand viloyati xalq ijodiy uyiga rahbarlik qiladi. Tuman, viloyat, radio va ro'znomalarda muxbir bo'lib ham o'z faoliyatini davom ettiradi. Toshkentga kelgach, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir, "Sharq yulduzi" jurnalida adabiy xodim bo'lib ishlaydi. Hozirgi kunda shoir va dramaturg Mashrab Boboyev Madaniyat ishlari vazirligida ishlamoqda.

Mashrab Boboyev shoir va adib sifatida 60-yillardan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. Uning "Onamga xat" nomli birinchi she'riy to'plami 1971-yilda nashr etiladi. So'ngra "Bahor kayfiyati" (1972), "So'z" (1978), "Olisdagi chiroq" (1981), "Bag'ishlov" (1984), "Men bilgan sir" (1991) kabi bir qancha she'riy to'plamlari bosiladi. To'plamdan o'rin olgan deyarli barcha she'rlarda shoir yaxshi odamlar, urf-odatlar, beg'ubor sevgi-muhabbat, kelajak orzular haqida to'lib-toshib kuylaydi.

Mashrab Boboyev bolalar shoiri sifatida "Paxtam mening - baxtim mening" (1975) kabi qiziqarli she'riy majmua ham yaratgan.

Adib yosh, iste'dodli dramaturg sifatida ham el-yurtga tanilgan adiblardan biri. U o'ndan ortiq sahna asarlari yaratgan bo'lib, bular orasida "O'ttiz yoshlilar" (1976), "Yer tomiri" (1979), "Gurung" (1979), "Onaizor" (1985), "Yashasin, afandi" (1985), "Mushkul savdo" (1989) kabi pyesalari ko'pchilikka manzur bo'lgan.

Mashrab Boboyev ko'p qirrali va sermahsul iste'dod egasi sifatida hozirgi adabiy jarayonda o'z ovozigacha ega bo'lgan adiblar sirasiga kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Mashrab Boboyevning ijodiy faoliyati haqida so'zlang.
2. M.Boboyevning dramatik asarlaridan qaysi birini bilasiz?
3. Mashrab Boboyev she'riyatining o'ziga xosligi nimada?

RAUF PARFI

(1943)

Iste'dodli soir Rauf Parfi 1943-yilda Toshkent viloyatining Sho'ralisoy qishlog'ida dunyoga keldi. 1960-1965-yillarda Toshkent Davlat universitetida tahsil ko'rdi. Respublika kino qo'mitasida, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida ishladi. Garchi uning ilk she'rlari 50-yillarning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan bo'lsa ham u 60-yillarning o'rtalariga kelib shoir sifatida tanildi. Shundan so'ng uning "Karvon yo'li" (1968), "Aks sado" (1970), "Tasvir" (1973), "Xotiro" (1974), "Ko'zlar" (1976), "Qaytish" (1981), "Sabr daraxti" (1986) kabi o'nlab sara she'riyat to'plamlari bosilib chiqdi. "Sukunat" (1991), "Ona Turkiston" (1992), "Turkiston ruhi" (1993) hamda ikki jildli "Saylanma" asarlari (1993) chop etildi. Agar uning 1-jildi nazm bo'lsa, 2-jildi nasriy va tarjima asarlarini tashkil etadi. So'nggi yillarda uning "Sharq yulduzi", "Yoshlik" kabi jurnallarda hamda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Turkiston" gazetalarida yangi - mustaqillik davri muammolarini hikoya qiluvchi o'nlab ajoyib she'rlari o'z o'quvchisi qalbini yangidan zabt etoldi. U mohir tarjimon sifatida Bayronning "Manfred", Nozim Hikmatning "Inson manzaralari", Karlo Kaladzening "Dengiz xayoli" kabi asarlarini o'z ona tiliga o'girdi.

U shoir, tarjimongina emas, nosir, maqolanavis sifatida ham o'z o'quvchisiga yaqindir.

Rauf Parfi o'zining "Sabr daraxti" (1986) she'riy to'plami uchun O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining Hamid Olimjon nomidagi sovriniga musharraf bo'lgan. 1992-yilda xalqaro Mahmud Koshg'ariy sovriniga ham ega bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Rauf Parfi mahoratining siri nimada?
2. R.Parfi ijodi asrimizning nechanchi yillarida boshlangan?

•

3. Rauf Parfining o'zbek she'riyati kamolotida tutgan o'rni qanday?

4. Shoir shaxsi va she'riyatidagi komillik xususiyatlarini sharhlang.

TURSUNOY SODIQOVA

(1944)

Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira Tursunoy Sodiqova nozik ta'b, o'tkir didli, nafasatli adibalarimizdan biri. U 1944-yili Toshkentda tavallud topgan. U o'rta maktabdan so'ng 1961-1966-yillarda Toshkent Davlat universitetida tahsil olgan. Dastlabki mashqlari shu yerda paydo bo'lgan. Bo'lg'usi shoira avval maktablarda, so'ngra yoshlar tashkilotlarida ishlagan, Andijon Davlat Tillar institutida talabalarga saboq bergan. Filologiya fanlari nomzodi. Hozirda Respublika Ma'naviyat markazida bo'lim mudiri lavozimida ishlamoqda. Shoiraning hozirgacha beshdan ortiq to'plamlari chop etilgan. "Qizlar daftari" (1973) she'riy turkumining tashkilotchi va mualliflaridan biridir. Shoiraning birinchi she'riy guldastasi "Kuy" nomi bilan 1976-yilda chop etilgan.

Tursunoy she'rlari goh o'ynoqi, sho'x, shalolalardek zavqli, qudratli, ba'zi she'rlari og'ir, vazmin, o'y-xayolga toldiruvchi, inson, hayot, muhabbat va taqdir haqida yana ham chuqurroq o'ylashga da'vat etuvchidir. U "Firoq" nomli bir she'rida daryoga murojaat, etib: "Betoqatsan, toshqin oqasan" degan edi... Shoiraning keyingi "Iqbol" (1984), "Dil gavhari" (1985) she'riy to'plamlaridagi ko'pchilik asarlarida ham ana shu holat ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Mazkur to'plamlarning birinchisida agar insoniy his-tuyg'ular, g'urur, inson va ezgulik, olijanoblik va chin muhabbat kuylansa, keyingi guldastasida lirik, falsafiy ohangdorlik yetakchilik qiladi.

Adibaning "Mehnat" nashriyoti tomonidan 1997-yilda "Mehr qolur" nomli ma'naviyat darslari uchun chop etilgan qo'llanmasida badiiy publitsistik maqolalari o'rin olgan.

MIRZO KENJABEK

(1956)

Istiqlol kuychisi va fidolysi Mirzo Kenjabek hozirgi davr o'zbek poeziyasi rivojida o'zining munosib o'rniga ega shoirlardan biri. U 1956-yilning 20-fevralida Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi "Mehnat" (eski "Ashurjlon") qishlog'ida oddiy mehnatkash oilasida tug'ilgan. 1963-1973-yillar orasida o'z qishlog'idagi o'rta maktabda o'qib, uni muvaffaqiyatli yakunlaydi. So'ngra 1974-1979-yillarda u Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oladi.

Mirzo Kenjabek o'zi haqida yozib: "Sholrik tug'llimasimdan boshlangan bo'lsa kerak", — deydi. Chindan ham undagi she'riyatga havas, ixlos, intilish ancha erta boshlangan bo'lib, birinchi she'riy to'plami yigirma olti yoshida, ya'ni 1982-yilda "Adashgan maktublar" nomi bilan nashr etildi ("Maktublarim"). Ketma-ket esa uning o'nga yaqin she'riy to'planlari, publiksistik maqolalardan tarkib topgan kitoblari chop etildi. Adibning "Quyoshga qaragan uy" (1983), "Munshaot" (1986), "Sharq tili" (1988), "Bahorim yellari" (1991) hamda "Muhabbatning yo'li xatarli", "Hasrat kitobi" kabi she'riy va publiksistik majmualari kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olingan.

U iste'dodli tarjimon sifatida A.S.Pushkinning mashhur "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini o'zbek tiliga ag'dargan.

Mirzo Kenjabek ijodi misolida milliy mustaqillik uchun kurashayotgan fidoly yoshlarning qiyofasi gavdalanadi.

TOHIR MIRZO

(1961)

Tohir Mirzo (Mamaturdiyev) 1961-yilda chor atrofi tog'lar bilan o'ralgan O'sh viloyatining so'lim Aravon qishlog'ida dunyoga keldi. U ilk saboqni o'zi tug'ilib o'sgan Aravon qishlog'idagi Hamza nomli o'rta maktabda oldi. 1978-yilda o'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan Tohir 1978-1982-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirda universiteti)ning fizika-matematika fakultetida tahsil olib, uni imtiyozli diplom bilan tugatdi. 13 yoshida ikki xonali va uch xonali sonlarni og'zaki kvadratga oshirish

•

usuli (algoritmi)ni topgan Tohir 28 yoshida fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 1997- yilda, ya'ni 36 yoshida esa fizika-matematika fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. U yuzlab maqolalar, o'nga yaqin o'quv qo'llanmalarining muallifidir. U qanchalik ilmiy qobiliyatga ega bo'lsa, shunchalik ijodiy qobiliyatga ham egadir. Uning qalbida o'quvchilik yillarida g'unchalagan ijod guli talabalik yillarida qiyg'os gul ochib, mevaga kirdi. Shuning natijasi o'laroq shoirning "Nazm va navo" to'plami dunyoga keldi. Talabalikdan so'nggi yillarida yaratgan she'rlari esa "Uchqur otlar" va "Tiniq nur" to'plamidan o'rin oldi. Xullas, Tohir Mirzo ilmiy faoliyati bilangina emas, she'riy-ijodiy faoliyati bilan ham keng jamoatchilikning tiliga tushdi. Tohir Mirzo she'riyatiga xos xususiyat shundaki, u ona-Vatanni sevish va ardoqlash, milliy g'urur va poklik hamda insonga xos lirik, ijtimoiy, falsafiy kechinmalarni yuksak poetik obrazlarda aks ettiradi. Bu xususiyat Tohir Mirzoning she'riyatida o'z sozi va o'z ovozigaga ega bo'lgan otashqalb shoir ekanligidan darak beradi. Uning ko'plab qo'shiqlari san'atkorlar tomonidan sevib kuyalanmoqda. Ayni paytda Tohir Mirzo Qirg'iz-O'zbek universitetining direktori vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

Quyida hisob ilmining bilimdoni, olim va shoir Tohir Mirzo she'rlaridan namunalar keltiramiz.

AJRATMAGIL

Tilagim shu: Tangrim o'zing iymonimdan ajratmagil,
Bergan menga rizq-u ro'zing In'omingdan ajratmagil.
Ilm gulshanida yayrab ijod etmoqqa ne yetsin,
Dunyo qadar tansiq, go'zal imkoningdan ajratmagil.
Tilim borki, el-u yurtim ruhini nurda sharh etgum,
Dilim bulbulga jo'r etgan lisoningdan ajratmagil.
Daryoda keng quloch otgan dengizga mahtal to'lqinman,
Daryo-yu dengizni joylar ummoningdan ajratmagil.

QAHRAMON XALQIM

Sinovlar, dovonlarga,
Sen o'zing, qalqon xalqim.

Bardosh bergan alarga,
Buyuk, qahramon xalqim.
Qadam tashlab, mustaqil,
Izlagan imkon, xalqim.
Tinchlik saqlab, bir ahil,
Dovrug'i osmon, xalqim.
Sen menga ustoz, malham –
Dardimga darmon, xalqim.
Senday xalqqa o'g'lonman,
Yo'q menda armon, xalqim.
Temur-u Bobur, Islom –
Davlati Turon, xalqim,
Ko'ksida to'la iymon,
Qo'lida Qur'on, xalqim.
Asrasin seni Tangrim –
Ko'zlardan yomon, xalqim.
Boshingda humo qushi –
Tursin! Bo'l omon, xalqim!

Savol va topshiriqlar

1. Tohir Mirzo qayerda tavallud topgan?
2. T. Mirzoning "Ajratmagil" nomli g'azalida iymon-e'tiqod, oriyat singari insoniy his-tuyg'ular qay tarzda aks ettirilgan?
3. "Qahramon xalqim" she'rida o'zbek xalqiga xos bo'lgan qahramonlik xususiyatlari qanday aks etgan?

MUNDARIJA

So'zboshi	3
O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi	5
O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi	6
O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i	6
Hayot bilan hamnafas	7
Odobning boshi "Assalomu alaykum"	12
Imom al-Buxoriy	12
Abu Iso Muhammad at-Termiziy	13
"Hadis"lardan namunalar	14
Bahovuddin Naqshband	20
Abu Rayhon Beruniy	21
Abu Rayhon Beruniydan "To'qson to'qqiz ibratli so'z" ..	22
Amir Temur ibn Tarag'ay	25
Amir Temur ibn Tarag'ay o'g'itlari	27
Alisher Navoiy	28
Mahmudxo'ja Behbudiy	29
Abdulla Avloniy	31
A.Avloniy "Aqlli bog'bon"	32
Abdurauf Fitrat	33
Abdulla Qodiriy (Julqunboy)	35
Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon O'g'li)	37
Usmon Nosir	39
Botu (Mahmud Hodiye)	41
Donolar deydilarki,... Ilm haqida	42
Vatanparvar inson – eliga posbon	43
Ona yurtim – oltin beshigim	44
Oqil bobo deydilarki,... ..	45
Yer sevarni — el sevar	45
Go'zal xulq — go'zal qalb ifodasi	46
Saodat egasi bo'laman, desangiz... ..	47

Non ham non, ushog'i ham non	48
Hikoyat	49
Non – dori-darmon	49
Yemoq odoblari	50
Tilga e'tibor – elga e'tibor	52
Donolar bisotidan: Til va so'z haqida	54
"Sen" yaxshimi, "Siz?"	55
Sog' tanda — sog'lom aql	55
Iymon haqida	56
Poklik haqida	57
Halollik haqida	59
Kamtarlik haqida	59
To'g'rilik haqida	60
Ruxsat so'rash odobi haqida	61
Yaxshilik haqida	62
Inson yaxshilik uchun yaratilgan	63
Do'stlik haqida	64
Hunar haqida	64
Saxiylilik haqida	65
Himmat haqida	65
Menmon aziz	66
Iqtisod haqida	67
Isrof haqida	67
So'z qudrati	68
Kitob haqida	69
Bola boshidan... ..	70
Hikmatlar	72
Donolar deydlarki,... ..	77
Tariximiz sahifalarida. Toshkentning o'n ikki darvozasi ..	79
Oybek	81
G'afur G'ulom	83
Abdulla Qahhor	84
Hamid Ollmjon	85
Sharof Rashidov	86
Said Ahmad	87

Odil Yoqubov	89
Erkin Vohidov	90
O'zbekim	92
Abdulla Oripov	93
O'zbekiston	94
O'tkir Hoshimov	95
Azim Suyun	97
Kuz	98
Haydar Muhammad	102
O'zbekim xazinasi	104
Ma'ruf Jalil	105
Sen mard bo'lsang...	105
Normurod Norqobilov	106
Barot Yarashev	107
Iftixor	107
Bilib qo'ygan yaxshi. Choy haqida	108
To'ra Mirzo	109
O'qib bersang Navoiydan she'r	110
Mukamma Murod qizi	111
Yana yurtimga qaytgil muhabbat	112
Tez aytishlar	113
Mashrab Boboyev	115
Rauf Parfi	116
Tursunoy Sodiqova	117
Mirzo Kenjabek	118
Tohir Mirzo	118
Ajratmagil	119
Qahramon Xalqim	119

3002

00988679